

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Magistratura bo‘limi

**Qo‘lyozma huquqida
UDK:**

ABDULLAYEVA SAODAT NURULLO QIZI

**MUSTAFO KAMOL OTATURK VA ISLOM
ABDUG‘ANIYEVICH KARIMOV PORTRETIGA CHIZGILAR**

Mutaxassislik: 5A120302 Tarix(yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

T.f.d., professor, Sh.A.Hayitov

**Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti “Jahon tarixi”
kafedrasida bajarilgan.**

Ilmiy rahbar

T.f.d., professor

Sh.A. Hayitov

Imzo

Ilmiy darajasi va unvoni,

F.I.Sh.

Kafedra mudiri

T.f.f.d (PhD)

O.R.Rashidov

Imzo

Ilmiy darajasi va unvoni,

F.I.Sh.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

f.-m.f.f.d(PhD)

A. To‘raev

Imzo

Ilmiy darajasi va unvoni,

F.I.Sh

Abdullayeva Saodat Nurillo qizining
“MUSTAFO KAMOL OTATURK VA ISLOM ABDUG‘ANIYEVICH
KARIMOV PORTRETIGA CHIZGILAR”

mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: Turkiya Respublikasi, O‘zbekiston, respublika, islohot, jamiyat, “o‘zbek modeli”, “olti qanotli dastur(Altı Ok)”, demokratiya, ichki siyosat, tashqi siyosat, inson, qiyosiy tahlil.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi: Tadqiqotda asosiy ilmiy konsepsiya masalasiga tarixiy haqiqat asosida yondashilgan bo‘lib, unda Mustafa Kamol va Islom Karimov shaxslari tarixiylik, ilmiylik va xolislik tamoyillariga tayangan holda tahlil qilindi. Tadqiqotni yozishda bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan zamonaviy tarixni o‘rganishning obyektivlik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, tarixni o‘rganishning xronologik izchillik uslubidan foydalanilib, ingliz, rus va turk olimlarining asarlarida diskors uslubi qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari ilmiy to‘plamlardagi ikkita maqola, uchta tezis va turli ilmiy anjumanlardagi ma‘ruzalarda o‘z aksini topdi. Tadqiqot natijalaridan Turkiya tarixi va Turkiya ijtimoiy- siyosiy xayotiga oid masalalarni o‘rganishda manba sifatida foydalansa bo‘ladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Mazkur ilmiy tadqiqot ishining tadqiqot obyektlari Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti Mustafa Kamol Otaturk hamda mustaqil O‘zbekiston davlati bunyodkori Islom Abdug‘aniyevich Karimovlar sanaladi. Ularning qiyosiy tahlili esa tadqiqot ishimizning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Tadqiqot ishida Turkiyada Respublikaga asos solib, uning asoslari va taraqqiyot yo‘lini belgilab bergan Mustafa Kamol Otaturk hamda O‘zbekiston Respublikasini mustaqil Respublikalar safiga qo‘shgan Islom

Abdugʻaniyevich Karimovlarning siyosiy portretlarining oʻzaro uygʻun va farqli jihatlari ilk bor tarixiy tadqiqot sifatida yoritildi.

Tadqiqotda koʻzda tutilgan asosiy ilmiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

- Turkiya Respublikasi va Oʻzbekiston Respublikasining birinchi prezidentlari garchi turli davr va hududda istiqomat qilishgan boʻlsada, ularning davlat tepasiga kelishidagi shart–sharoitlar va olib borilgan islohotlar deyarli bir-biriga oʻxshashligi ochib berilgan;

- Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimovlarning davlat rahbari sifatida oʻtkazgan islohotlari va usullaridagi oʻzaro farqlar koʻrsatilgan;

-Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimovlarning islom diniga boʻlgan shaxsiy munosabatlari tahlil etilgan.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Magistrlik disertatsiyasi yuzasidan mavzuga oid bitta maqola va uchta tezis chop etilgan.

Magistrlik disertatsiyasining tarkibiy tuzilishi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, olti band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalar kabi qismlardan iborat.

Ishning birinchi bobi Mustafu Kamol Otaturk hayoti va siyosiy portretiga qaratilgan boʻlsa, ikkinchi bobi Islom Karimov hayotidagi eng muhim nuqtalarga yoʻnaltirilgan. Dissertatsiyaning uchinchi bobida ikki tarixiy siymoning faoliyati hamda siyosiy-strategik yoʻlidagi uygʻunlik va farqli jihatlari manbalar tahlili orqali ochib berilgan. Dissertatsiyaning matn qismi 78 betni tashkil etadi.

Ilmiy rahbar:

T.f.d., professor, Sh.A.Hayitov

Magistratura talabasi:

S.N.Abdullayeva

Аннотация магистерской диссертации
Абдуллаевой Саодат Нурилловны
«ЛИНИИ ПОРТРЕТА МУСТАФЫ КЕМАЛЯ АТАТЮРКА И
ИСЛАМА АБДУГАНИЕВИЧА КАРИМОВА»

Ключевые слова: Турецкая Республика, Узбекистан, республика, реформа, общество, «узбекская модель», «шесть стрел (Altı Ok)», демократия, внутренняя политика, внешняя политика, человек, сравнительный анализ.

Краткое описание методов, использованных в исследовании. Основная научная концепция исследования основана на исторических фактах, в которых личности Мустафы Кемалья и Ислама Каримова анализируются на основе принципов истории, науки и объективности. В исследовании использовались методы объективности, сравнительного анализа, анализа и обобщения исследования современной истории, которые широко используются сегодня. Кроме того, используя метод хронологической последовательности изучения истории, дискурсивный метод использовался в работах английских, русских и турецких ученых.

Теоретическая и практическая значимость результатов исследования. Результаты исследования были отражены в двух статьях в научных сборниках, трех тезисах и докладах на различных научных конференциях. Результаты исследования могут быть использованы в качестве источника для изучения вопросов, связанных с историей Турции и общественно-политической жизнью Турции.

Объект и предмет исследования. Объектами исследования данной работы являются первый Президент Турецкой Республики Мустафа Кемаль Ататюрк и основатель независимого государства Узбекистана Ислам Каримов. Их сравнительный анализ является предметом нашего исследования.

Научная новизна исследования. Впервые в исследовании подчеркиваются сходства и различия между политическими портретами

Мустафы Кемала Ататюрка, который основал республику в Турции и Ислама Каримова, который добавил Узбекистан в ряды независимых республик.

Основными научными инновациями в исследовании являются:

- Хотя первые президенты Турецкой Республики и Узбекистана жили в разные периоды и регионы, условия их прихода к власти и проводимых реформ практически идентичны.

- Различия в реформах и методах Мустафы Кемала Ататюрка и Ислама Каримова как главы государства.

- Проанализировано личное отношение Мустафы Кемала Ататюрка и Ислама Абдуганиевича Каримова к исламу.

Основные результаты работы. Опубликована одна статья и три тезиса по теме магистерской диссертации.

Структура магистерской диссертации. Магистерская диссертация состоит из введения, трех глав, шести параграфов, заключения, списка использованной литературы и источников, приложений. Первая глава посвящена жизни и политическому портрету Мустафы Кемала Ататюрка, а вторая глава посвящена наиболее важным моментам в жизни Ислама Каримова. В третьей главе диссертации деятельность двух исторических фигур, а также гармония и различия в политико-стратегическом пути раскрываются посредством анализа источников. Текст диссертации составляет 78 страниц.

Научный руководитель:

профессор, д.и.н Ш.А.Хайитов

Магистр:

С.Н.Абдуллаева

**Annotation to a Master's thesis research of
Abdullayeva Saodat Nurilloevna on a topic
"LINES PORTRAIT OF MUSTAFO KAMOL ATATURK AND ISLAM
ABDUGANIEVICH KARIMOV"**

Key words: Republic of Turkey, Uzbekistan, republic, reform, society, “Uzbek model”, “six arrows (Altı Ok)”, democracy, domestic policy, foreign policy, man, comparative analysis.

Brief description of the methods used in the research: The main scientific concept of the research is based on historical facts, in which the personalities of Mustafa Kemal and Islam Karimov are analyzed based on the principles of history, science and objectivity. The research used the methods of objectivity, comparative analysis, analysis and synthesis of the study of modern history, which are widely used today. In addition, using the method of chronological sequence of the study of history, the discourse method was used in the works of English, Russian and Turkish scholars.

Theoretical and practical significance of the research results: The results of the research were reflected in two articles in scientific collections, three theses and reports at various scientific conferences. The results of the research can be used as a source for the study of issues related to the history of Turkey and Turkish socio-political life.

Object and subject of research: The research objects of this research work are the first President of the Republic of Turkey Mustafa Kemal Ataturk and the founder of the independent state of Uzbekistan Islam Karimov. Their comparative analysis is the subject of our research.

Scientific novelty of the research: For the first time, the research highlights the similarities and differences between the political portraits of Mustafa Kemal Ataturk, who founded the Republic in Turkey and Islam Karimov, who added Uzbekistan to the ranks of independent republics.

The main scientific innovations in the study are:

- Although the first presidents of the Republic of Turkey and Uzbekistan lived in different periods and regions, the conditions for their coming to power and the reforms carried out are almost identical.

- Differences in the reforms and methods of Mustafa Kemal Ataturk and Islam Karimov as head of state.

- The personal attitudes of Mustafa Kemal Ataturk and Islam Abduganievich Karimov to Islam are analyzed.

The main results of the work: One article and three theses on the topic of the master's dissertation were published.

Structure of the master's dissertation: The master's dissertation consists of parts such as introduction, three chapters, six points, conclusion, list of used literature and appendices. The first chapter is devoted to the life and political portrait of Mustafa Kemal Ataturk, and the second chapter is devoted to the most important moments in the life of Islam Karimov. In the third chapter of the dissertation, the activities of two historical figures, as well as harmony and differences in the political and strategic path, are revealed through analysis of the sources. The text of the dissertation is 78 pages.

Supervisor:

DcS. Professor Sh.A.Khayitov

Master's

student:

S.N.Abdullayeva

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MUSTAFO KAMOL OTATURK – MILLAT RAHNAMOSI, MUSTAQILLIK VA DAVLATCHILIK ASOSCHISI	10
1.1 Mustafu Kamol shaxsiyatining shakllanishi va yetakchilikni qo‘lga olishi. Kamolchilar inqilobi	10
1.2 Mustafu Kamol Otaturk – Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti	22
I bob bo‘yicha qisqacha xulosa	36
II BOB. ISLOM KARIMOV BUYUK MAQSADLARGA YO‘NALTIRUVCHI ULUG‘ YO‘LBOSHCHI	37
2.1 Islom Karimovning istiqlolni qo‘lga kiritish yo‘lidagi s‘ay-harakatlari	37
2.2 Islom Karimov davrida O‘zbekiston Respublikasining ichki hamda tashqi siyosati	48
II bob bo‘yicha xulosa	60
III BOB. MUSTAFO KAMOL VA ISLOM KARIMOV HAYOTI VA FAOLIYATIDAGI O‘ZIGA XOSLIK VA UMUMIY JIHATLAR	62
3.1 Ikki buyuk aql-zakovat sohiblarining o‘ziga xos jihatlari	62
3.2 Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov faoliyatidagi umumiy o‘xshash jihatlar	69
III bob bo‘yicha xulosalar.....	80
UMUMIY XULOSA VA TAFSIYALAR	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	83
ILOVALAR	87

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi:

Turkiya va O‘zbekiston tarixda tili va madaniyati, urf-odat va an‘analari mushtarak, eng yaqin qardosh xalqlar sifatida dunyoga tanilgan. Turkiya Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini birinchilardan bo‘lib, 1991 yil 16 dekabrda tan olgan mamlakat sanaladi. Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar esa 1992 yil 4 martda o‘rnatilib, shu yil aprel oyida Turkiyaning Toshkentda elchixonasi ochilgan. 1993 yil may oyidan boshlab Anqarada O‘zbekiston elchixonasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1991, 1994, 1997 va 1998 yillar davomida 4 marotaba Turkiya Respublikasiga tashrif buyurgan. O‘z navbatida Turkiya prezidentlari T.Ozal, S.Demirel, N.Sezer, R.Erdog‘anlar ham O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurishgan. 1996 yilda mamlakatlarimiz o‘rtasida «Abadiy do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida» gi shartnoma imzolangan¹. O‘zbek va turk xalqlari ko‘p asrlik tarixi, yagona tili, dini, mushtarak qadriyatlar va o‘xshash urf-odatlar bilan bir-biriga chambarchas bog‘langan. Davlatlarimiz o‘rtasida o‘zaro ishonch asosidagi do‘stona munosabatlar bugungi kunda izchil mustahkamlanib bormoqda. Xalqaro maydonda ham, o‘zaro aloqalarda ham bir-birini doimo qo‘llab-quvvatlaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hamda Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochildi. Bunda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdo‘g‘onning siyosiy irodasi, qat‘iyati muhim asos bo‘ldi. Ya‘ni ikki mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi do‘stona aloqalar, yuksak ahamiyat kasb etayotgan uchrashuvlar, samimiy muloqotlar o‘zaro hamkorlik rivojiga katta turtki bermoqda. Turkiyaning turli sohalardagi yutuqlarini o‘rganish, ilg‘or tajribalaridan foydalanish, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalarga turk tadbirkorlari va kompaniyalari sarmoyalarini jalb qilish mamlakat manfaatlariga to‘la mos keladi. O‘z navbatida, O‘zbekistonning ulkan bozori, tobora

¹ <https://mfa.uz/uz/cooperation/countries/201/>

erkinlashayotgan iqtisodiyoti, qulay investitsiyaviy muhiti, tarixiy shaharlari va muqaddas qadamjolari Turkiyada katta qiziqish uygʻotmoqda. Yaʼni hamkorlikni mustahkamlashdan har ikki tomon ham manfaatdor.

Soʻz yuritilayotgan ikki buyuk davlatlarning rivojida asosiy tamal toshini qoʻyib poydevorini yaratgan, asoschilari boʻlmish Mustafo Kamol Otaturk(1881–1938 yy) va Islom Abdugʻaniyevich Karimov(1938–2016 yy)larning xizmatlari cheksizdir. Ularning siyosiy portretlarini oʻrganish esa dolzarb va davrtalab masaladir.

Birinchi, «XX asr odami»² deb ulugʻlanuvchi Mustafo Kamol Otaturk oddiy oilada tugʻilib voyaga yetgan boʻlishiga qaramay, yillar davomidagi tinimsiz sayʼ-harakatlari, tirishqoqligi tufayli 623 yil davomida mavjud boʻlgan Usmonlilar imperiyasi oʻrnida Turkiya davlatiga asos soladi. Davlatni ichki va tashqi siyosatda rivojlantiradi. Mustafo Kamol oʻz oldida uchragan toʻsiqlar va ularga qoʻllanilgan oqilana yechimlar tufayli xalq mehrini qozonib «Otaturk» yaʼni «Turklar otasi» deya koʻklarga koʻtarilishi uning siyosiy portretini yanada chuqurroq oʻrganishni talab qiladi.

Ikkinchi, SSSR tarkibidan Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi boʻlib ajralib chiqqan davlat bu - Oʻzbekiston Respublikasi ekanligi barchaga ayon. Haqiqiy yetakchi Islom Abdugʻaniyevich Karimov oʻz xalqining qoʻllab-quvvatlashini va ishonchini his qilib, mamlakat taqdiri uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olgan holda, qatʼiyatlilik, mardlik hamda jasorat namunasini koʻrsatib 1991 yil 31 avgustda zaiflashayotgan Ittifoq tarkibidan uzoqlashadi. Islom Karimovning xalq orasida obroʻsi oshib, oʻzbek xalqining ishonchiga sazovor boʻlishi sabablarini bilib olish muhim sanaladi.

Uchinchi, ikki buyuk davlat arbobining yashagan davrlari va davlatlari turlicha boʻlsa ham ular olib borgan siyosat va islohotlar orasida oʻxshashlik va oʻziga xosliklar boʻlishi tabiiy. Bularni toʻgʻri anglab, tushunish esa ahamiyatli masaladir. Tarixchilar nafaqat mamlakatning boy tarixini, balki xorijiy Sharq va

² Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.:—Молодая гвардия; 2004.— С.6.

G'arb mamlakatlarining tarixiy taraqqiyot xususiyatlari va tarixiy tajribalarini tadqiq etish orqali mamlakat rivoji uchun muhim hissa qo'shishlari lozimdir. «Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvida erkinlashtirish, huquq va erkinliklarini, fikrlar rangbarangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz³». Shu nuqtai nazardan jahon tamadu– nining bir qismi bo'lgan Turkiyaning Respublika sifatida namoyon bo'lishida xizmat qilgan Mustafa Kamol Otaturk va O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovlarning siyosiy portretlarini tahlil etish dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Mazkur ilmiy tadqiqot ishining tadqiqot obyektlari Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti Mustafa Kamol Otaturk hamda mustaqil O'zbekiston davlati bunyodkori Islom Abdug'aniyevich Karimovlar sanaladi. Ularning qiyosiy tahlili esa tadqiqot ishimizning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari: Mazkur tadqiqot ishida Mustafa Kamol Otaturk va Islom Abdug'aniyevich Karimovlarni davlat rahbarligiga kelishini tahlil qilish va ularning siyosiy portretlarini qiyosiy o'rganish orqali amaliy xulosalar chiqarish asosiy maqsad qilib belgilangan. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda ishning oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi :

- Mustafa Kamol Otaturk shaxsiyatining shakllanish jarayoni va uning yetakchilikni qo'lga olish sabab va asoslarini yoritib berish;
- Mustafa Kamol Otaturkning Turkiya Respublikasining Birinchi Prezidenti lavozimiga kelishi va amalga oshirgan islohotlar tarixini bayon etish;
- Islom Abdug'aniyevich Karimovning istiqlolni qo'lga kiritish yo'lidagi say-harakatlari va O'zbekiston Respublikasining ilk rahbari sifatida hokimiyatni qo'lga olishini tahlil qilish;

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.–T.:—Ma'naviyat, 2008.-B.114.

- Islom Abdugʻaniyevich Karimovning Oʻzbekiston Respublikasining davlat rahbari boʻlgan davrida olib borgan ichki va tashqi siyosati haqida maʼlumot berish;
- Ikki yirik davlat arboblarning davlatni idora etishdagi oʻziga xos jihatlariga alohida toʻxtalib oʻtib, ularni ochib berish;
- Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimov faoliyatidagi umumiy oʻxshash jihatlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Tadqiqot ishida Turkiyada Respublikaga asos solib, uning taraqqiyotini belgilab bergan Mustafu Kamol Otaturk hamda Oʻzbekiston Respublikasini mustaqil Respublikalar safiga qoʻshgan Islom Abdugʻaniyevich Karimovlarning siyosiy portretlarining oʻzaro uygʻun va farqli jihatlari ilk bor tarixiy tadqiqot sifatida yoritildi.

Tadqiqotda koʻzda tutilgan asosiy ilmiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

- Turkiya Respublikasi va Oʻzbekiston Respublikasining birinchi prezidentlari garchi turli davr va hududda istiqomat qilishgan boʻlsada, ularning davlat tepasiga kelishidagi shart–sharoitlar va olib borilgan islohotlar deyarli bir-biriga oʻxshashligi ochib berilgan;

- Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimovlarning davlat rahbari sifatida oʻtkazgan islohotlari va usullaridagi oʻzaro farqlar koʻrsatilgan;

-Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimovlarning islom diniga boʻlgan shaxsiy munosabatlari tahlil etilgan.

Mavzu boʻyicha qisqacha adabiyotlar tahlili: Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimovlarning davlat rahbari sifatida faoliyatlari, ularning hayot yoʻllari, ijtimoiy–siyosiy tadqiqotlarda koʻp oʻrganilgan mavzu hisoblansada, oʻzbek tarixshunosligida ularning siyosiy portretlarini qiyoslab oʻrganish yangi mavzu sanaladi. Tadqiqot ishiga taaluqli boʻlgan maʼlumotlar va adabiyotlarni izlashda manbalar tanqisligi muammosiga deyarli duch kelinmadi. Tadqiqot jarayonida asosan oʻzbek, rus, ingliz va turk olimlari asarlariga murojaat qilindi. Shuningdek, bugungi zamonaviy hayot bilan aloqador boʻlgan holatda kerakli internet saytlaridan ham foydalanildi. Tadqiqot ishida ikki turli davr va

davlatda bo'lgan davlat arboblari haqida fikr yuritilar ekan, mavzu bo'yicha adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

Avvalo, davlat rahbarlarining shaxsan o'zlari tomonidan yozib qoldirilgan asarlar asosiy manbalar hisoblanadi. Turkiyaning birinchi Prezidenti Mustafa Kamol Otaturk⁴ va O'zbekistonning birinchi rahbari Islom Abdug'aniyevich Karimov⁵ tomonidan nashr etilgan asarlar muhim manbadir.

Rus olimlari tadqiqotlari natijasida yaratilgan rus tilidagi manbalar salmoqli bo'lib, bu guruhdagi A. Jevaxov, A. Ushakov, Yu.N.Rozaliev, G.Aliev, G.Kirievning⁶ asarlarini Mustafa Kamol Otaturkning siyosiy portretini o'rganishda foydalanilsa, xorijiy olimlar L.Levitin, N.L. Mishin⁷ asarlarini esa Islom Abdug'aniyevich Karimovning siyosiy faoliyatini o'rganishda foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, mazkur mavzuga oid ingliz olimlari tomonidan yaratilgan asarlar ham tadqiqot ishini olib borishimizda manba bo'lib xizmat qildi. Ingliz olimlari tomonidan Mustafa Kamol Otaturk hayotining o'rganilishi va unga atab yozilgan manbalar qatorida John P. Kinross, Ericson Edward, Jacob M. Landau, Mango Endrewning⁸ asarlarini sanab o'tish mumkin.

2017 yil Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov xotirasiga bag'ishlab oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida insholar tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlov g'oliblarining

⁴Ататюрк М.К. Избранные речи и выступления.—М.: Прогресс,1966./ Кемаль М. Путь новой Турции. 1919-1927. - Т. 1. - М., 1929.

⁵Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996./ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.:O'zbekiston; 2000./ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.–T.:—Ma'naviyat, 2008/ Karimov.I.A Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T.:Sharq, 1997. / Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. / Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.-T.:O'zbekiston, 2015.

⁶Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.:—Молодая гвардия,2004./Ушаков А. Феномен Ататюрка. Турецкий правитель,творец и диктатор.—М.:Центрполиграф,2002./Алиев Г. З. Турция в период правления младотурок. — М.: Наука, 1972./ Масловский С. Итало-турецкая война — М.:Terra Fantastica, 2003./ Киреев.Н.Г. История Турции XX век-М.:UBRAN: 2007./ Розалиев Ю.Н. Мустафа Кемаль Ататюрк. Очерк жизни и деятельности—М.: Восточная литература, 1995./ Орлов Д.И. Идеи, лидеры, действия.— М.:Букинистическое издание,— 2006

⁷Мишин Н.Л. Ислам Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997./ Левитин Л. Ислам Каримов – Янги Ўзбекистон президенти. –Т.: Ўзбекистон, 1996.

⁸John P. Kinross. Atatürk: a biography of Mustafa Kemal, father of modern Turkey. New York.: 1965./ Erickson, Edward J. Ordered to Die A History of the Ottoman Army in the First World War. — L.:Greenwood Press, 2001./ Mango, Andrew. Atatürk: The Biography of the Founder of Modern Turkey.–L.:Overlook TP, 2002/ Jacob M. Landau Atatürk and the Modernization of Turkey – Westview Press,1984

insholarini to‘plab «My first president» deb nomlanuvchi ingliz tilidagi kitob nashr etildi. Unda Islom Karimovning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muhim ma’lumotlar berib o‘tilgan.

O‘zbek mualliflari S.Xolboev, Q.Rajabov, N.Quvvatov, Sh.Qobilov kabilarning asarlarida Islom Abdug‘aniyevich Karimov to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. «Ayniqsa, tarixchi olim S.Xolboevning «Milliy mustaqillik va taraqqiyotning o‘zbek modeli» nomli monografiyasida I.A.Karimovning Vatan tarixshunosligi sohasidagi qarashlari tahlil qilingan⁹.

Mustafo Kamol Otaturk hayoti va faoliyati ham bir qator o‘zbek olimlarining diqqat markazidan o‘z o‘rnini topgan. Bular qatoriga F.Ergashev, Abdurahmon Zohidiy, Nasrulloh To‘ra, Sh.Hayitov¹⁰ va boshqalarning ilmiy izlanishlarini kiritishimiz mumkin. Keyingi manbalar ham Otaturk faoliyati nisbatan kengroq bayon etilgan turk tilidagi manbalardir.¹¹

Mavzu yuzasidan adabiyotlat sharxi shuni ko‘rsatdiki, hanuzgacha bu ikki tarixiy shaxs faoliyatini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan biror–bir alohida tadqiqot mavjud emas. Bu esa bizning magistrlik dissertatsiyasi doirasida ushbu ishni o‘rganishga undadi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi: Tadqiqotda asosiy ilmiy konsepsiya masalasiga tarixiy haqiqat asosida yondashilgan bo‘lib, unda Mustafo Kamol va Islom Karimov shaxslari tarixiylik, ilmiylik va xolislik tamoyillariga tayangan holda tahlil qilindi. Tadqiqotni yozishda bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan zamonaviy tarixni o‘rganishning obyektivlik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, tarixni o‘rganishning xronologik izchillik uslubidan foydalanilib, ingliz, rus va turk olimlarining asarlarida diskors uslubi qo‘llanildi.

⁹ Бўриев О. Ўзбекистоннинг биринчи президенти Ислон Каримовнинг тарихий мероси. –Т.:Ўзбекистон, 2010.

¹⁰ Эргашев Ф. Янги Туркиянинг отаси //Жаҳон адабиёти,1998,-№8./Абдурахмон Зоҳидий.Мустафо камол Отатурк//Фан ва турмуш,2001.-№1/Насруллоҳ Тўра.Мустафо Камол Отатуркнинг Амир Темур ҳақида ёзганлари//Миллатнинг дардига дармон бўлиб... Навоий:2008./Ҳайитов Ш.А.,Раҳмонов К.Ж,Ҳайитов Ж.Ш Амир Темур сиймоси барҳаёт Бухоро: 2015.

¹¹ Şahin Atacan.Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları.-Eskişehir:Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2011./ Şevket Süzeyya Añdemir. Tek adam. Mustafa Kemal. Istanbul, 1963-1966.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari ilmiy to'plamlardagi ikkita maqola, uchta tezis va turli ilmiy anjumanlardagi ma'ruzalarda o'z aksini topdi. Tadqiqot natijalaridan Turkiya tarixi va Turkiya ijtimoiy- siyosiy xayotiga oid masalalarn o'rganishda manba sifatida foydalansa bo'ladi.

Dissertatsiyaning nazariy – metodologik asosi: Magistrlik dissertatsiya ishida tadqiq etilayotgan masalalarga tarixiy tizimlilik, ob'ektivlik va xolislik nuqtai-nazaridan yondashilgan. Respublikamiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev asarlarida tarixiy tadqiqotlar oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, mavzuni yoritish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ko'zda tutilgan. Ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy – falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, sistemalashtirish, mavhumlikdan murakkablikka intilish, qiyosiy solishtirma, obektiv holatni tahlil qilish kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotda yangi va zamonaviy progressiv ketma-ketlik nazariyasi asos qilib olindi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan mavzuga oid bitta maqola va uchta tezis chop etilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, olti band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar kabi qismlardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 78 betni tashkil etadi.

I BOB. MUSTAFO KAMOL OTATURK – MILLAT RAHNAMESI, MUSTAQILLIK VA DAVLATCHILIK ASOSCHISI.

1.1. Mustafu Kamol shaxsiyatining shakllanishi va yetakchilikni qo‘lga olishi. Kamolchilar inqilobi.

Bu dunyo ne-ne daholarni, olim-u ulamolarni, kuchli sarkardalarni ko‘rmadi. So‘z yuritilayotgan buyuklar orasida 2000 yilda «XX asr odami»¹² deb atalgan davlat arbobi Mustafu Kamol Otaturk ham bor. Chunki u bugungi zamonaviy Turkiyaning asosini ya‘ni poydevorini yaratib bergan shaxs sanaladi. Turk tilida «Otaturk» so‘zi «xalq otasi», «butun turklar otasi» degan ma‘nolarni anglatadi va bu nom unga bejizga berilmagan. Turklar otasi hisoblanmish Mustafu Kamol irodali siyosatchi, mohir qo‘mondon, kuchli notiq edi. Har bir shaxning bu yorug‘ olamda kamol topib ulg‘ayishida va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida uning ota-onasining o‘rni beqiyosligi ma‘lum. Mustafu Kamolning oddiy maktab o‘quvchiligidan tokim davlat rahbari darajasigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tib, islohotlar orqali uning davlatini rivojlantirishdagi jarayonlarda ota-onasining o‘rni haqida fikr yuritish joiz.

Bo‘lajak millat rahnamesining otasi Ali Rizo Afandi 1839 yilda hozirgi shimoliy Makedoniya hududida joylashgan Korjajik qishlog‘ida tavallud topgan. U dastlabki ta‘limini Abdu Hafiz domlaning boshlang‘ich mahalla maktabida oladi. Ali Rizo hayoti davomida bir necha marotaba o‘z kasbini o‘zgartiradi. Dastlab u diniy tashkilotlarda ishlagan, davlat xizmati yillarida, aniqrog‘i 1871 yilda Ali Rizo Zubayda Xonimga uylanadi. Zubayda Xonim savodli insonlarning farzandi sifatida ta‘lim olib, savod chiqargandi. Shuning uchun ham Lankazada Zubayda Xonimni Zubayda Mulla deb atashgan. U zobit Ali Rizoga turmushga chiqayotganida bor yog‘i 14 yoshda bo‘lgan. Ali Rizo o‘zidan yoshi ancha kichik bu ayolning qora sochlari va ko‘k ko‘zlariga mahliyo bo‘lib qolgan edi. Ular Yangi Kapi mahallasidagi bir uyda istiqomat qilishdi va ularning besh nafar (ayrim manbalar bo‘yicha esa olti nafar) farzandlari bo‘lgan.

¹² Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.: -Молодая гвардия; 2004.– С.6.

Farzandlardan birinchisi Fotima 1872 yilda tug‘ilgan. Fotimadan so‘ng ko‘p o‘tmay, ular ikkita o‘g‘il ko‘rishadi. Ahmet 1874 yilda va Umar 1875 yilda tug‘ilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Umar tug‘ilgan yili opasi Fotima sil kasaliga chalingan va shu sababli vafot etgan. 1876 yilda Ali Rizo Salonikadagi Milliy askar deb ataluvchi batalyonda ofitser bo‘lib ishlagan va keyinchalik yog‘och savdosi bilan shug‘ullangan. Yog‘och savdosi tufayli daromad darajasi oshgan Ali Rizo rafiqasi Zubayda Xonim, bolalari Ahmet va Umar bilan Salonikining Islahan tumanidagi Ahmet Subashi mahallasidagi bir uyga ko‘chib o‘tishdi. Keyinchalik esa Ali Rizo Yunoniston chegarasidagi Chayagziga ko‘chib o‘tdi, ammo yangi ko‘chib kelingan yurtda farzandlari Umar va Ahmet vafot etdi. Ularning to‘rtinchi farzandi Mustafo 1881 yilda Salonikida Yunonistonda tug‘ilgan. O‘sha paytda bu hudud Usmonli imperiyasi tomonidan boshqarilgan. «Bolamning umri uzoq, rizqi butun, xalq qahramoni bo‘lsin» degan niyat bilan otasi Mustafoning beshigining ustiga qilich ilgan ekan. Mustafo Kamolning aniq qaysi kuni tug‘ilgani bugungi kunga qadar tarixchilar orasida turli baxslarga sabab bo‘lib, aniq sana haligacha noma’lum. Buning asosiy sababi, musulmonlarda tug‘ilgan kunni nishonlash an’ana sifatida qabul qilinmaganligi tufayli tug‘ilgan kun sanasi muhim hisoblanmagan. Shaxslarning tug‘ilgan kunlari qaysidir avliyo yoki mashhur bir shaxsning tavalludiga nisbat qilib olingan. Usmoniylar imperiyasida ikki turli kalendar qo‘llanilgan: Hijriy kalendar* va Rumiyy kalendar*.

Ayrim hujjatlarda Mustafoning tug‘ilgan yili sifatida 1296 yil deb ko‘rsatiladi va qaysi kalendar bo‘yicha ekanligi aytilmaydi. 1296 yili (Grigoriy kalendari) hozirgi kundagi kalendarning 1880–1881 yillariga to‘g‘ri keladi. Mustafoning tug‘ilgan sanasini shartli deb hisoblash kerak. Bundan tashqari, qadimgi Turkiyada fuqarolik holati dalolatnomalari rasmiy yozuvlari yo‘q edi.

*Musulmonlar diniy bayramlarning sanalarini belgilashda foydalanadigan oy taqvimini bo‘lib, unda hisob-kitob milodiy 622 yil 16 iyuldan ya’ni Muhammad payg‘ambar va uning tarafdorlarining Makkadan Madinaga ko‘chirilish kunidan (Hijratdan) boshlanadi.

*Rumiyy taqvimini - 1926 yilda Grigorian taqvimiga o‘tishdan oldin Usmonli Imperiyasi va undan keyin Turkiyada rasman ishlatilgan.

Mustafo Kamol tavalludining ko'pchilik olimlar tomonidan aniqlangan sanasi 1881 yil 12 mart hisoblanadi.¹³

Kamolning o'zining aytishiga qaraganda, onasi Zubeyda Xonim o'g'liga uning tug'ilgan vaqtini arbain davri edi deb aytgan¹⁴. Arbain davri o'sha yilgi Grigoriy kalendarida 22 dekabrda 31 yanvargacha bo'lgan qishning qirq kuniga to'g'ri keladi¹⁵. Singlisi Makbulening aytishicha, onasi Zubayda Xonim Mustafo Kamolni tunda, momaqaldiroq paytida, bo'ronli kunda tug'ilganini aytgan. Turk tarixchisi Faik Reshid Unat Salonikida Zubeyde Xonimning qo'shnilaridan turli xil javoblarni olgan. Ba'zilar uni bahor kuni, boshqalari esa qishda, yanvar yoki fevralda dunyoga keltirgan deb ta'kidlashadi. Ba'zi manbalar yuqorida sanab o'tilganlarning barchasini e'tiborsiz qoldirib, mutlaqo boshqacha ekanligiga ishora qiladilar. Quyida ularni bir nechtasini ko'rishimiz mumkin:

1. Anvar Bexnan Chapolio, turkiy dinshunosning ta'kidlashicha, Otaturk 1880 yil 23 dekabrda tug'ilgan¹⁶.

2. Shavkat Sureya Aydamir (1897-1976)- turk yozuvchisi, ziyolisi, iqtisodchisi, tarixchisi edi. U 1932 yildan 1934 yilgacha Turkiyada nashr etilgan nufuzli siyosiy jurnallardan biri bo'lgan Kadro («Kadra») jurnalining asoschilaridan biri. 1963-1965 yillar davomida u Mustafo Kamol Otaturk haqida uch jilddan tashkil topgan «Tek Adam (Yolg'iz odam)» kitobini nashr etdi.¹⁷ Aynan uning esdaliklarida Mustafo Kamolning tug'ilgan kunini 1881 yil 14 yanvar sanasi berilgan.¹⁸

3. Muxtor Kumral, Mustafo Kamol Jamiyati rahbari, 1881 yil 13 mart sanasini Mustafo Kamolning dunyoga kelishi sanasi deb ta'kidlagan va bu sanani Makbuledan keltirganligini aytadi. Agar ushbu sana Rumiya taqvimiga o'tkazilsa, u 1297 yil 1 marta chiqadi. Boshqa tomondan, 13 mart kuni Otaturkning onasi va singlisi yuqorida bergan ma'lumotlarga zid kelmaydi: «... erta bahor, bu vaqtda

¹³ Большая российская энциклопедия. Т.2.– М.:2005.–С.438.

¹⁴ Ушаков А.Феномен Ататюрка.Турецкий правитель,творец и диктатор.– М.:Центрполиграф;2002. –Б.8.

¹⁵ <https://ru.wikipedia.org/wiki/МустафаКемальАтатюрк>

¹⁶ Орлов Д.И. Идеи, лидеры, действия.–М.: Букинистическое издание; 2006–С.130.

¹⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/%C5%9Eevket_S%C3%BCreya_Aydemir#cite_ref-3

¹⁸ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.:-Молодая гвардия; 2004.– С.14.

ob-havo hodisalari bo‘ron va momaqaldiroq ...» kabi hodisalar bo‘lishi mumkin (garchi erta bahorda momaqaldiroq kam bo‘lsa-da).

4. Tefvik Ryushtyu Aras, turk siyosatchisi, Otaturk davrida (1923-1938) Turkiya tashqi ishlar vazirining muovini bo‘lgan. U Otaturk 10 dan 20 maygacha tug‘ilganligi haqidagi fikri bildiradi. U o‘z fikrlari bilan Mustafa bilan bo‘lishganida va unga Mustafa shunday javob berdi: «Nega 19-chi sana emas».¹⁹

5. Sovet harbiysi va davlat arbobi, inqilobchi, Sovet armiyasining polkovnigi, diplomat Semyon Ivanovich Oralovning ham Mustafa Kamolning tug‘ilgan sanasi haqida o‘ziga xos fikrlari mavjud. Uning xotiralariga ko‘ra, Semyon Ivanovich Oralov Mustafa Kamol bilan suhbatlashgan va Otaturk xuddi mendek 1880 yilda tug‘ilgan deb aytgan.

Reshit Saffet Atabinning taklifidan keyin Otaturkning o‘zi qayta tug‘ilgan sanasi deb 19 mayni tanlaydi. Chunki aynan shu ko‘rsatilgan sanada 19 mayda Turk mustaqilligi uchun kurash boshlangan edi. Mustafa Kamolning so‘nggi rasmiy hujjatlarida va Turkiya Respublikasida u tug‘ilgan rasmiy sana sifatida 1881 yil 19 may kuni qabul qilingan.

Ali Rizo va Zubayda Xonimlarning qizlari Makbule 1885 yilda tug‘ilgan. Shuningdek ayrim manbalarda oilaning oltinchi farzandi Nachiya haqida ham ma’lumotlarni uchratish mumkin. U adabiyotlarda 1889 yilda tug‘ilgan va sil kasalligi tufayli erta hayotdan ko‘z yumgan deb ko‘rsatiladi. Salomatligi tufayli Ali Rizo harbiy xizmatdan iste’foga chiqdi va yog‘och savdosi bilan shug‘ullandi. Ammo bu savdo ishida muvaffaqiyat qozonmadi. Ali Rizoning oilasi faqat qarindoshlarning yordamigagina tayanib qoldi. Ali Rizo Afandi 49 yoshida vafot etdi. Shundan so‘ng Zubayda Xonim bolalarini olib Langazada yashovchi, fermerlik bilan shug‘ullanuvchi akasi Husaynning oldiga boradi. Otasining erta vafoti va tog‘asinikida oilasining erkagi bo‘lib yashash yosh Mustafoning hayotni ertaroq tushunishiga imkon bergan. Uzoq vaqt akasiga og‘ir yuk bo‘lib yashashni istamagan Zubayda Xonim Salonikadagi bojxona direktori Rajibbey degan odamga ikkinchi bor turmushga chiqadi. Rajebbeyning ilgari nikohidan to‘rt nafar farzadi

¹⁹<https://ru.wikipedia.org/wiki>

bo'lgan. Boshida bu nikohni Mustafo otasining vafotiga nisbatan onasining hurmatsizligi deb g'azablendi. Ammo keyinchalik yangi otaning o'ziga nisbatan iliq munosabatini ko'rgach undagi Rajebbeydan g'azablanish tuyg'usi asta so'na boshlagan. Mustafo o'gay otasi Rajebbey haqida Ali Fuat Sebesoyga shunday deb aytgan: «U menga doimo hurmat bilan munosabatda bo'lgan va menga buyuk inson kabi muomala qilgan. U mehribon va muloyim odam edi.²⁰»

Mustafo yoshligidan tengdoshlaridan farq qilib, nisbatan faol bola edi. Tezkor va mustaqil firka yuritish qobiliyatiga egaligi sabab doimo oldingi safda bo'lgan. Bola yolg'izlik va mustaqillikni tengdoshlari yoki opa-singillari bilan muloqot qilishdan afzal ko'rar edi. U boshqalarning fikriga toqat qilmaydigan, murosaga kelishni yoqtirmaydigan va har doim o'zi uchun tanlagan yo'ldan borishga intilgan. O'ylagan hamma narsani to'g'ridan-to'g'ri ifoda etish odati keyingi hayotda Mustafoga ko'p qiyinchiliklar olib keldi va shu sabablar tufayli ko'p dushmanlar orttirdi. Onasi o'g'li Mustafoni Islom an'analarida tarbiyalashni va Qur'onni o'rganishini juda xohlagan, otasi esa o'g'liga zamonaviy ta'lim berishni istagan. Natijada, ota-onalar bu masalada kelisha olmay, Mustafoni eng yaqin maktabga yuborishgandi²¹. O'zining intiluvchanligi tufayli 1893 yil 13 martda u 12 yoshida (otasi vafotidan 4 yil o'tgach) Salonikidagi Askarlar harbiy tayyorgarlik maktabiga o'qishga kirdi va maktabning 459 nafar bitiruvchilari orasidan o'zlashtirish bo'yicha sakkizinchisi (ayrim manbalar bo'yicha to'rtinchi²²)bo'lib o'qishni tugatdi. Aynan shu yerda matematika o'qituvchisi unga uning intellektual mahorati uchun Kamol («mukammallik») degan nomni qo'ydi.²³ O'zining Otaturk («turklarning otasi») ismini Mustafo Kamol keyinchalik qabul qildi - 1934 yilda parlamentning taklifiga binoan. 1896 yilda u Manastr shahridagi (hozirgi Shimoliy Makedoniyadagi Bitola²⁴) harbiy maktabga o'qishga kirdi.

²⁰ Али Фуат Себесой, мой одноклассник Ататюрк - Воспоминания школьных и молодых офицеров. Стамбул: –Основные публикации;2000.–С.25.

²¹ Орлов Д.И. Идеи, лидеры, действия.М.:– Букинистическое издание; 2006.–С.130.

²² Ушаков А.Феномен Ататюрка.Турецкий правитель,творец и диктатор. М.:–Центрполиграф,2002. –Б.29.

²³ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.:-Молодая гвардия; 2004.– С.16.

²⁴ Словения, Хорватия, Сербия, Черногория, Босния и Герцеговина, Македония, Албания // Атлас мира /М.:–ПКО «Картография»;2010.–С.70.

1899 yil 13 martda Usmonli imperiyasining poytaxti Istanbuldagi Usmonli Harbiy Kollejida o‘qishini davom ettirdi. Oldingi o‘quv joylaridan farqli o‘laroq bu yerda inqilobiy va islohotchilik kayfiyatlari ustunlik qilar edi. Shuning uchun kollej Sulton Abdul-Hamid II ning qattiq nazorati ostida edi. Kollejda harbiy fanlardan tashqari, Mustafo Kamol jahonga dong‘i ketgan Russo, Volter, Xobbes, boshqa faylasuf va mutafakkirlarning asarlarini mustaqil o‘rgandi²⁵. 1902 yil 10 fevralda u Istanbuldagi Usmoniy Bosh shtablar akademiyasiga o‘qishga kirdi va 1905 yil 11 yanvarda tamomladi.

O‘qishni tugatgandan so‘ng Mustafo Kamol darhol Usmonli turk sultoni Abdulhamid II rejimini noqonuniy tanqid qilgani uchun hibsga olinadi va bir necha oy qamoqda saqlanadi. Keyin esa Damashqqa surgun qilinadi. U yerda 1905 yilda inqilobiy «Vatan» tashkiloti tuziladi.²⁶ «Vatan» so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, «tug‘ilgan joyi» yoki «yashash joyi» degan ma‘noni anglatadi. Ushbu jamiyat inqilobiy yo‘nalish ya‘ni davlat boshqaruvi tuzimini isloh qilish kabi maqsadi bilan boshka jamiyatlardan ajralib turardi. Biroq «Vatan» tashkiloti o‘z faoliyatini keng miqyosda kengaytira olmadi. Mustafo Kamol jamiyatning boshqa a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarda umumiy til topishga erisha olmagan holda, tashkilotni tark etadi²⁷. Mustafo Kamol 1905-1907 yillarda turk askari va siyosatchisi Lutfi Mufit Bey (1871-1940) bilan birga Damashqda joylashgan 5-armiyada xizmat qildi.

1907 yilda Mustafo Kamolning lavozimi ko‘tarilib, Manastir shahridagi 3-chi armiyaga tayinlangan. Salonikida o‘qib yurgan kezlari dayoq Kamol inqilobiy jamiyatlarga a‘zo bo‘lib, ularda faoliyat olib borgan edi. Akademiya ta‘limining so‘nggi yillarida Mustafo «Yosh turklar» harakatiga qo‘shildi. 1908 yildagi Yosh turklar inqilobini tayyorlash va o‘tkazishda qatnashdi. Inqilob davrida inqilobga rahbarlik qilish uchun tuzilgan «Birlik va taraqqiyot» qo‘mitasi bilan hamkorlikda

²⁵ Ушаков А. Феномен Ататюрка. Турецкий правитель, творец и диктатор. М.: – Центрполиграф, 2002. – С. 24.

²⁶ Мустафа Кемаль. Путь новой Турции. Литиздат: – Н. К. И. Д. Т. I; 1929. – С. 16.

²⁷ Ушаков А. Феномен Ататюрка. Турецкий правитель, творец и диктатор. – М.: Центрполиграф, 2002. – С. 52.

* Yosh turklar - 1876 yildan boshlab liberal islohotlarni o‘tkazishga va konstitutsiyaviy hukumat tuzishga harakat qilgan Usmonli imperiyasidagi siyosiy harakat edi. Yosh turklar 1908 yilda Sulton Abdul-Hamid II ni ag‘darib tashladilar va G‘arbning rivojlangan davlatlaridagi islohotlarni amalga oshira boshladilar, lekin Turkiyaning Birinchi Jahon urushidagi mag‘lubiyatidan so‘ng ular o‘z kuchlarini yo‘qotdilar. Kamol Otaturk g‘alabasidan keyin ko‘pchilik yosh turklar uning partiyasining faoliyatini faol qo‘llab-quvvatladilar.

bo'lgan.²⁸ Inqilob natijasida Abdul-Hamid II konstitutsiyani rasmiy darajada tiklashga va parlament chaqirishga rozi bo'ladi. 1909 yilda sulton tarafdorlari isyon ko'tarib, qisqa vaqt davomida uning mutlaq qudratini tikladilar. Ammo ularni Makedoniyadan kelgan harbiy qismlar siqib chiqarishdi. Ushbu voqeadan keyin parlament Abdul-Hamid II ni hokimiyatdan chetlashtirdi va Mehmed V ni yangi sulton etib sayladi. Keyinchalik, Yosh turklar harakatining rahbarlari bilan kelishmovchiliklar tufayli vaqtincha siyosiy faoliyatdan uzoqlashdi.

1910 yilda Mustafa Kamol Fransiyaga yuborildi va u yerda, aniqrog'i Pikardiyada, harbiy mashg'ulotlarda ishtirok etdi. 1911 yildan u Istanbulda, Qurolli Kuchlar Bosh shtabida xizmat qila boshladi. Xuddi o'sha yili italiyaliklar Tripoliga bostirib kirishi bilan boshlangan italyan-turk urushi (1911-1912 yillar) paytida Mustafa Kamol o'z safdoshlari bilan Tobruk va Derna mintaqalarida italyanlarga qarshi jang qildi. Neshet bey Tripolidagi kuchlar qo'mondonligini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, Mustafa Kamol Tobrukda va Anvar Bey esa Beng'ozida qo'mondon bo'lgan. 1911 yil 22 dekabrda Mustafa Kamol Tobruk jangida italiyaliklarni mag'lub etdi va 1912 yil 6 martda Derndagi Usmonli kuchlari qo'mondoni etib tayinlandi.²⁹ 1912 yil oktabr oyida Birinchi Bolqon urushi boshlandi, Unda Mustafa Kamol Gallipoliya va Bolayir harbiy qismlari bilan birga qatnashdi. Ko'p o'tmay Bolqon urushi natijasida Salonika shahri Usmonli turklar saltanati tarkibidan chiqib, Gresiya tarkibiga qo'shiladi. Bu orada Mustafa Kamol Istanbuldan uy sotib oladi va Zubeyda Xonim ikkinchi nikohidan ham ajralib qizi Maqbule bilan birga Istanbulga ko'chib keladilar. Mustafa Kamol Didimotixon va Edirneni bolgarlardan tortib olib, fath etish jarayonida katta rol o'ynagan. 1913 yilda Mustafa Kamol Sofiya(Bolgariya)da harbiy attashe lavozimiga tayinlandi va podpolkovnik unvonini oldi. U yerda Mustafa Kamol 1915 yilgacha xizmat qilib, 19-diviziyani tuzish uchun Tekirdog'ga yuborilgan edi.

Ushbu operatsiyada Antanta davlatlarining xususan Buyuk Britaniyaning asosiy maqsadi Konstantinopolni qo'lga olish, Turkiyani urushdan olib chiqib,

²⁸ Алиев Г. З. Турция в период правления младотурок. — М.: Наука, 1972. — С.50.

²⁹ Масловский С. Итало-турецкая война.— М.: Terra Fantastica, 2003. — С.542.

Rossiyaga dengiz yo'lini ochish edi. Birinchi jahon urushi boshida Mustafa Kamol Chanoqqal'a yaqinidagi jangda turk kuchlariga muvaffaqiyatli qo'mondonlik qildi. Bu jang davomida Dardanell operatsiyasi qo'llaniladi. Ushbu operatsiya 1915 yil 19 fevraldan 1916 yil 9 yanvargacha davom etgan va Birinchi Jahon urushi paytida tarqatilgan keng miqyosli harbiy operatsiya edi.³⁰ Shu o'rinda operatsiya haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish joiz. Ushbu operatsiyada Antanta davlatlari, xususan Buyuk Britaniyaning asosiy maqsadi Konstantinopolni qo'lga olish, Turkiyani urushdan olib chiqib, Rossiyaga dengiz yo'lini ochish edi. Dardanell operatsiya rejalari 1906 yilda Buyuk Britaniya mudofaa qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilgan va operatsiyani juda xavfli deb hisoblashgan. 1915 yilda ushbu masala qayta muhokama qilindi, quruqlik va dengiz kuchlaridan birgalikda foydalanilgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishish mumkinligi ta'kidlangan edi. Vitse-admiral Karden U.Churchilga ushbu operatsiya rejasini 1915 yil 11 yanvarda taqdim etadi. U 4 bosqichni o'z ichiga olgan :

1. Tashqi qirg'oqlarni qo'lga kiritish;
2. Minalarni yo'q qilib, istehkomlarni vayron qilish;
3. Ichki qal'alar va istehkomlarni vayron qilish;
4. Marmar dengiziga chiqish.³¹

1915 yil 18 martda Angliya-Fransiya eskadroni Dardanell dan o'tib ketishga urindi, ammo bu jarayonda ular katta yo'qotishlarga duch keldi. Shundan so'ng, Antanta qo'mondonligi Gallipoli yarim oroliga desant tashlab qo'nishga qaror qildi. 1915 yil 24 martda tarkibi Turkiya harbiylaridan iborat bo'lgan Dardanell va Gallipollini Antanta qo'shinlari hujumidan himoya qilish maqsadida Germaniya generali Liman fon Sanders qo'mondonligida Beshinchi armiya tuzilgan edi. Dardanell operatsiyasi boshlanib, Antanta hujumga o'tgach, beshinchi Turkiya armiyasiga ikkita arman korpusi kelib qo'shiladi. Ular Gallipoli va Osiyo sohillarini himoya qildilar. Natijada ittifoqchilarning mardonavor harakatlari tufayli Antanta armiyasi bu hududlarga ega bo'la olmadi. Usmonli qo'shinining

³⁰ Джон Киган. Первая мировая война. — М.: АСТ, 2004. — С.576.

³¹ Первая мировая война на море — Мн.: Харвест; М.: АСТ, 2001.—С.67.

Gallipolidagi g'alabasi katta siyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega edi, chunki bu paytgacha turklarning mag'lubiyati va yevropalik dushmanlarning ustunligi haqidagi afsonalar keng tarqalgan bo'lib, ushbu g'alaba bunday afsonalarni yo'qqa chiqardi. Turklar tarixida Gallipoli jangi alohida ahamiyatga ega, chunki Gallipoli jangida Dardanell mudofaasini tashkillashtiruvchilardan biri Turkiya Respublikasining kelajakdagi asoschisi va prezidenti Mustafo Kamol bo'lgan edi. Turkiya va Germaniyaning ko'pgina muvaffaqiyati urushlari tufayli Bolgariya ular tomonida turib urushga kirdi. Cherchill operatsiyaning tashabbuskori sifatida iste'foga chiqishga majbur bo'ldi va urush tugagandan keyingina Britaniya siyosatiga qaytishga muvaffaq bo'ldi. Chanoqqal'a jangida Angliya - 490 ming, Fransiya - taxminan 80 ming, Rossiya bitta kreyser orqali urushga kirgan edilar. Natijada esa Buyuk Britaniya imperiyasi 119,7 ming kishini yo'qotgan bo'lsa, Avstraliya 8709 kishini, Yangi Zelandiya 2721 kishini, Fransiya esa 47 ming odamni yo'qotdi.³²

1915 yil 25 aprelda Keypariburnuga kelgan ingliz-fransuz qo'shinlari Mustafo Kamol qo'mondonligi ostidagi 19-diviziya tomonidan to'xtatildi. Ushbu g'alabadan keyin Mustafo Kamol polkovnik unvoniga sazovor bo'ldi. Avstraliya va Yangi Zelandiya korpuslari va boshqa Britaniya qo'shinlari Dardanell operatsiyasi paytida Gallipoli yarim oroliga qo'nayotgan paytda, janglarning eng umidsiz lahzalarida, 1915 yil 25 aprel kuni ertalab, uning bo'linmasining 57-polkida kun tartibiga ko'ra, Kamol shunday deb yozgan edi: «Men sizga oldinga yurishga buyruq bermayman balki men sizga o'lishni buyuraman. Biz o'lamiz degunimizcha, boshqa jangchi va qo'mondonlar kela olishi va bizning o'rnimizni to'ldira olishi mumkin.»³³

1915 yil 6-15 avgustda nemis zobiti Otto Sanders va Mustafo Kamol boshchiligidagi bir guruh qo'shinlar Suvla ko'rfaziga yaqinlashayotgan ingliz qo'shinlarining muvaffaqiyatiga xalaqit berishib, ularni mag'lub etadilar. Keyin 17 avgust kuni Kirechtepada va 21 avgustda esa ular Anafartal janglarida jasorat

³² Мировая война в цифрах. — М.: Воениздат, 1934. —С. 128.

³³ John P. Kinross. Atatürk: a biography of Mustafa Kemal, father of modern Turkey. New York: 1965.—P.90.

ko'rsatib inglizlar ustidan g'alaba qozonadilar. Dardanell uchun bo'lgan jangdan so'ng Mustafa Kamol Edirna va Diyarbakirda qo'shinlarga qo'mondonlik qildi.

1916 yil 1 aprelda u diviziya generali lavozimiga ko'tarilib 2-armiya qo'mondoni etib tayinlandi. Uning qo'mondonligi ostida 2-armiya 1916 yil avgust oyining boshida qisqa muddat bo'lsada Mush va Bitlisni egallab olishga muvaffaq bo'ldi, ammo tez orada u yerdan ruslar tomonidan haydab chiqarildi. Turkiya va Rossiya orasida bu davrda Bitlis jangi, Erzijan va Ognot operatsiyalari uyushtiriladi.³⁴

Damashq va Xalabdagi qisqa muddatli xizmatdan so'ng Mustafa Kamol Istanbulga qaytadi. Bu yerdan Mustafa Kamol valiahd shahzoda Vahetdin bilan birga tekshirishlar o'tkazish uchun Germaniyaga frontga jo'nadi. 1918 yil 15 avgustda U Halabga 7-armiya qo'mondoni sifatida qaytadi. Uning qo'mondonligi ostidagi armiya ingliz qo'shinlari hujumlaridan mamlakatni muvaffaqiyatli himoya qilgandi. 1918 yil 30 oktabrda Usmonlilar imperiyasining taslim bo'lishi natijasida Mudros yarashuv shartnomasi imzolanadi. Shundan so'ng Mustafa «Yildirim» armiya guruhining qo'mondoni lavozimiga tayinlandi.³⁵ Ushbu tarkib tarqatib yuborilgandan so'ng, Mustafa Kamol 1918 yil 13 noyabrda Istanbulga qaytib keldi va u yerda Mudofaa vazirligida ish boshlagandi. Birinchi jahon urushi boshlanishida Uinston Cherchill: «Bu zilzilada cho'ntagida bir tiyini bo'lmagan Turkiyaning zilzilasi bilan nima sodir bo'ladi?» Biroq, Turk xalqi Mustafa Kamol milliy ozodlik harakatining boshlig'i bo'lganida, o'z davlatlarini kuldan tiklay oldi. Kamolchilar harbiy mag'lubiyatni g'alabaga aylantirib, zaiflashgan, bo'linib ketgan, vayron bo'lgan mamlakat mustaqilligini tikladilar. Uning ko'k ko'zlarining o'tkir nigohlari, charchamas tirishqoqligi va temir irodasi bugungi kunga qadar har bir Turkiya fuqarosining undan minnatdor bo'lishiga sababdir.

Usmonli turklar imperiyasining to'liq taslim bo'lish haqidagi shartnomaning imzolanishi natijasida Usmonli davlati o'z armiyasini qurolsizlantirib, tarqatib yuborishga majbur bo'ldi. 1919 yil 19 mayda Mustafa Kamol 9-armiyaning

³⁴ Зайончковский А.М. Первая мировая война.- СПб.: Полигон, 2002.-Б.78.

³⁵ Erickson, Edward J. Ordered to Die A History of the Ottoman Army in the First World War. — L.:Greenwood Press, 2001. — P. 202.

inspektori sifatida Samsunga kelgandi³⁶. 1919 yil 22 iyunda Amasiyada u mamlakatning mustaqilligi xavf ostida ekanligi ommaga ma'lum qilgandi va deputatlarni Sivas kongressiga chaqirgandi. 1919 yil 8 iyulda Mustafa Kamol Usmonli qo'shinidan iste'foga chiqdi. Mustafa Kamolning o'zi ta'kidlaganidek, uning maqsadi "milliy suverenitetga asoslangan yangi turk davlatini yaratish uchun bosqinchilarga qarshi kurashish va hech qanday cheklovlarsiz va mustaqillikdan bahramand bo'lish³⁷" edi. 1919 yil 23 iyul - 7 avgustda Erzirumda imperiyaning oltita sharqiy viloyatlarining Kongressi, so'ngra 1919 yil 4-11 sentabr kunlari Sivas Kongressi bo'lib o'tdi. Ushbu qurultoylarning chaqirilishi va ishini ta'minlagan Mustafa Kamol shu tariqa «vatanni qutqarish» yo'llarini belgilab oldi. Sulton hukumati bunga qarshi turishga harakat qildi va 1919 yil 3 sentabrda Mustafa Kamolni hibsga olish to'g'risida farmon chiqardi, ammo uning ushbu farmonni bajarishga qarshi chiqadigan tarafdorlari yetarli edi.³⁸ 1919 yil 27 dekabrda Mustafa Kamolni Anqara aholisi mamnuniyat bilan kutib olishdi. Antanta qo'shinlari tomonidan 1918 yil noyabr oyida Konstantinopolning bosib olinishi va 1920 yil 16 martda Usmonlilar parlamentining tarqatib yuborilishi oqibatida Mustafa Kamol Anqarada o'zining parlamentini - Turkiya Buyuk Millat Majlisini (TBMM) chaqirdi, uning birinchi yig'ilishi 1920 yil 23 aprelda ochildi³⁹. Kamolning o'zi parlament raisi va Buyuk Millat Majlisining hukumat rahbari etib saylandi. 29 aprel kuni Buyuk Millat Majlisi uning qonuniyligiga shubha qilgan har kimni o'limga hukm qiluvchi qonun qabul qildi. Bunga javoban Istanbuldagi sulton hukumati 1 may kuni Mustafa Kamol va uning tarafdorlarini o'limga hukm qilish to'g'risida qaror chiqardi.⁴⁰

Kamolchilarning asosiy vazifalari shimoli-sharqda armanlar bilan, g'arbda yunonlar bilan, shuningdek, turk yerlarini bosib olmoqchi bo'lgan Antanta bilan janglar olib borish edi. 1920 yil 7 iyunda Anqara hukumati oldingi Usmonli imperiyasining avvalgi barcha shartnomalarini bekor qildi, bundan tashqari,

³⁶ Ушаков А.Феномен Ататюрка.Турецкий правитель,творец и диктатор.– М.:Центрполиграф,2002. – Б.151.

³⁷ Кемаль М. Путь новой Турции. 1919-1927. - Т. 1. - М., 1929. - С. 15.

³⁸Mango, Andrew. Ataturk: The Biography of the Founder of Modern Turkey.–L.:Overlook TP, 2002.–P.249.

³⁹ Ушаков А.Феномен Ататюрка.Турецкий правитель,творец и диктатор.–М.:Центрполиграф,2002.– Б.173.

⁴⁰ Mango, Andrew. Ataturk: The Biography of the Founder of Modern Turkey.–L.:Overlook TP, 2002.–P.279.

TBMM sulton hukumati va Antanta mamlakatlari o'rtasida 1920 yil 10 avgustda imzolangan imperiyaning turk aholisiga nisbatan adolatsiz deb hisoblagan Sever shartnomasini rad etdi. Shartnomada ko'zda tutilgan xalqaro sud mexanizmi yaratilmagan vaziyatdan foydalanib, kamolchilar ingliz harbiylarini, armanlarni qasddan yo'q qilganlikda ayblanib ular orasidan bir qanchasini garovga oldilar va yosh turk hukumati a'zolari shuningdek, Maltadagi turk asirlariga almashtirishni boshladilar. Shunga o'xshash mexanizm bir necha yillardan keyin Nyurnberg sudida ham sodir bo'ladi.⁴¹

1921 yil 23 avgust - 13 sentabr kunlari Soqariyo daryosi bo'yida bosqinchilarga qarshi bo'lib o'tgan jangdan keyin Kamolga marshal unvonini va «G'ozii» nasabini oldi. Bir yil o'tgach, yunon armiyasining dengizdagi va shahardagi so'nggi qo'shinlari ustidan g'alaba qozonildi. 1922 yil 2 noyabr kuni Turkiya tarixidagi muhim voqealardan biri xalifalik sultonlikdan ajratildi va Usmonli turk sultonligi tugatildi. 1922 yil 19 noyabrda Mustafo Kamol Abdulmajid II ga TBMM tomonidan xalifalik taxtiga saylanganligi mazmunidagi telegrammani taqdim etdi: «1922 yil 18 noyabrda Turkiya Buyuk Millat Majlisi o'zining 140-yalpi majlisida bir ovozdan dushmanning musulmonlar o'rtasidagi kelishmovchilikni qo'zg'ash va ular orasida qonli qirg'in qilish haqidagi taklifini qabul qilgan Mehmed V Vohididdinni hokimiyatdan chetlatishga qaror qildi...»⁴² 1923 yil 13 oktabrdan Anqara Turkiya Respublikasining poytaxti, 29 oktabrdan esa mamlakat Respublika, deb e'lon qilinadi⁴³. 1924 yil 3 mart sanasida Turkiyadagi xalifalik rejimi ham o'z yakuniga yetadi.

⁴¹ Барсегов Ю. Г.: Геноцид армян. Ответственность Турции и обязательства мирового сообщества, том 2, часть 2, Вопрос о создании международного уголовного суда в рамках Парижской мирной конференции. Комиссия пятнадцати

⁴² Мустафа Кемаль. Путь новой Турции. М.: 1934, Т. IV, С. 282—283.

⁴³ Киреев. Н. Г. История Турции XX век - М.: УБРАН, 2007. - С. 158.

1.2. Mustafo Kamol Otaturk –Turkiya Respublikasining prezidenti.

Mustafo Kamol irodali siyosatchi, mohir qo‘mondon, kuchli notiq bo‘lgan. Kamol ochiqchasiga sultonni taxtdan tushirish zarurligini anglagandi. Uning keyingi qadami, Turkiyani zamonaviy davlatga aylantirish edi.⁴⁴ Davlat boshqaruvi tubdan o‘zgartirilib, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va harbiy sohada chuqur islohotlar o‘tkazgan. Mustaqil davlat sifatida avvalo Mustafo Kamol respublika konstitutsiyasini qabul qildi. Chunki mamlakatda amaldagi 1921 yilgi konstitutsiya allaqachon eskirgan bo‘lib, 1924 yil 20 aprelda Yevropa standartlariga mos keladigan, 1961 yilgacha amalda bo‘lgan yangi konstitutsiya yaratildi va nihoyat Turkiya Respublikasida dunyoviy jamiyat yaratila boshlandi. Rossiyalik mashhur turkolog V. G. Kireyevning so‘zlariga ko‘ra, interventlar ustidan qozonilgan harbiy g‘alaba «yosh respublikaning milliy, vatanparvar kuchlari» deb hisoblangan kamolchilarga turk jamiyati va davlatini yanada o‘zgartirish va modernizatsiya qilish imkonini taqdim etdi. Kamolchilar o‘z pozitsiyalarini qanchalik kuchaytira boshlaganlari sari, ular shunchalik tez mamlakatni g‘arblashtirish va dunyoviylashtirishni e‘lon qila boshladilar.⁴⁵

Istiqlol uchun uzoq va mashaqqatli urushdan keyin Mustafo Kamol g‘alabaga erishdi va asosiy maqsadga - o‘z vatanining mustaqilligiga erishdi, lekin u bu yerda to‘xtamoqchi emas edi, chunki Turkiya ko‘plab urushlardan keyin qiyin ahvolda edi. Mustafo Kamol Turkiyani dunyoning eng qudratli davlati sifatida ko‘rishni istadi. Buning uchun turk jamiyati, sanoat va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qiladigan va kuchli iqtisodiyot sari yetaklaydigan islohotlar kerak edi. Modernizatsiyaning birinchi sharti - dunyoviy davlatning tashkil topishi sanaladi. 1924 yil 29 fevral kunida Turkiyaning Istanbul shahridagi masjidida so‘nggi xalifaning so‘nggi an‘naviy juma namozi o‘qildi. 1924 yil 3 mart kuni Mustafo Kamol raisligidagi TBMM yig‘ilishida Mustafo Kamol Turkiyada endi shariat bo‘yicha olib boriladigan sudlarni bekor qilish, vaqf mulkini umumiy mulk deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Mustafo Kamol tomonidan

⁴⁴ Кемаль М. Путь новой Турции: Избранные речи. - М., 1961. - С.43.

⁴⁵ Киреев Н. Г. История Турции XX в. — М.:УБРАН,2007.-С.157.

mamlakat rivoji va nufuzi uchun amalga oshirilgan islohotlarni biz shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin.

Sud-huquq tizimini isloh qilish. Ushbu sohada bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. 1926 yil 4 oktabrda yangi Fuqarolik Kodeksi qabul qilindi, unda fuqarolik huquqining liberal dunyoviy tamoyillari o‘rnatildi, mulk tushunchasi, ko‘chmas mulkka egalik qilish, xususiy mulk, umumiy mulk va boshqa tushunchalar mazmuni yoritildi. Kodeks o‘sha davrda Yevropada eng ilg‘or kodeks hisoblangan Shvesariya fuqarolik kodeksining matnidan ko‘rib chiqilib qayta yozilgan. Shunday qilib, oldingi Usmonlilar qonuni - Majalle* va 1858 yilgi Yer kodeksi bekor qilindi. Yangi Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi natijasida dunyoviy davlat boshqaruv tizimiga o‘tish mumkin bo‘ldi. Shuningdek, 1926 yil 1 martda Italiya modeliga asoslangan yangi jinoyat kodeksi qabul qilinadi⁴⁶.

Turkiyada majburiyatlarning joriy etila boshlanadi. Xususan 1926 yilda yuridik shaxslarning tashkil etilishi to‘g‘risida nizom qabul qilingandi. 1937 yil 5 fevralda Konstitutsiyadagi latsizm tamoyillarini yakuniy birlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilingandi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtiruvchi islohotlar. Mustafu Kamolning yangi davlat shakllanishining dastlabki bosqichida amalga oshirgan eng asosiy o‘zgarishlaridan biri bu iqtisodiy-ijtimoiy tuzilma rivojlanmaganligining sababchisi bo‘lgan iqtisodiy siyosat edi. 14 million aholining 77 foizga yaqini qishloqlarda istiqomat qilishgan, ularning 81,6 foizi qishloq xo‘jaligida, 5,6 foizi sanoatda, 4,8 foizi savdo va 7 foizi xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan. Milliy daromadda qishloq xo‘jaligining ulushi 67 foizni, sanoatning ulushi esa 10 foizni tashkil etardi. 1924 yilda mamlakatda 5 kunlik ish kuni joriy etiladi. Iqtisodiy sohasida olib borilgan yana bir muhim qonunlardan biri 1925 yilda Yangi texnologiyalarni joriy etish maqsadida namunaviy fermer xo‘jaliklarini yaratish mazmunidagi qonunning qabul qilinishi edi.

* Majalle -Islom qonunlarining eng katta kodifikatsiyasi. To‘liq nomi: Majallah al-Ahkam-i Adilya.

⁴⁶ Jacob M. Landau Atatürk and the Modernization of Turkey – Westview Press,1984. – P.249.

Temir yo'llarning ko'pchilik katta qismi chet elliklar qo'lida qoldi. Bank ishi, sug'urta kompaniyalari, kommunal soha va tog'-kon korxonalarida ham xorij kapitali ustunlik qildi. Markaziy bank vazifasini bajaruvchi Usmonlilar bankini ingliz va fransuz kapitalistlari boshqarardi. Mahalliy sanoatda aholi faqatgina hunarmandchilik va mayda hunarmandchilik bilan shug'ullangan.⁴⁷

Shuningdek, temir yo'llar qurilishiga katta e'tibor qaratildi, bu esa mahsulotlarni tijoratlashtirishga katta yordam berdi. 1927 yil 31 mayda Turkiyada temir yo'llar tashkil etila boshlandi. Dastlab temir yo'llarning uzunligi atigi 4500 kilometrni tashkil etdi, ularning 80 foizi xorijiy kompaniyalar tomonidan boshqarildi. Bundan tashqari, yo'l tarmog'i butun Kichik Osiyoni qamrab olmadi, faqat portlarga olib bordi; Anqara sharqida bitta chiziq ham mavjud emas edi.⁴⁸

1924 yilda Kamol bir qator parlament deputatlari ko'magida Biznes-bank («Ish banki») tashkil etildi. Faoliyatining dastlabki yillaridayoq bu bank «Turk Telsiz Telefon TASH» kompaniyasining 40 foiz aksiyasiga egalik qildi, o'sha vaqtda Anqaradagi eng katta mehmonxona sanalgan «Ankara Palace» mehmonxonasini qurdi, jun mato fabrikasini sotib oldi va qayta tashkil qildi, tiftik va junni eksport qiluvchi bir necha Anqara savdogarlariga qarz berdi.

1927 yil 1 iyuldan kuchga kirgan «Sanoatni rag'batlantirish to'g'risida»gi qonun muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan buyon korxonalar qurmoqchi bo'lgan sanoatchi 10 gektargacha bo'lgan yer uchastkasini bepul olishi mumkin edi. U yopiq binolarni, yer uchastkalarini soliqlardan ozod qilgan. Korxonaning qurilish va ishlab chiqarish faoliyati uchun olib kirilgan materiallarga bojxona to'lovlari va soliq solinmagan. Har bir korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining birinchi yilida uning mahsulotlari qiymatining 10 foizi miqdorida mukofot belgilangan. 1920 yillarning oxiriga kelib mamlakatda vaziyat deyarli keskinlashdi. 1920-1930 yillarda umumiy kapitali 112,3 million turk lirasiga teng bo'lgan 201 ta aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilib, ularning 66 tasi 42,9 million liraga ega bo'lgan chel el kapitali asosidagi jamiyatlar edi.

⁴⁷ Киреев Н. Г. История Турции XX в. — М.:УБРАН,2007.-С.178.

⁴⁸ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.:-Молодая гвардия; 2004.– С.184.

Turk lirasi kursini va valyuta savdosini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1930 yil mart oyida tarkibida Istanbulda faoliyat ko'rsatadigan barcha yirik milliy va xorijiy banklar, shuningdek, Turkiya moliya vazirligi kiritilgan vaqtinchalik konsorsium tashkil qilindi. Tashkil etilganidan olti oy o'tgach, ishtirokchilarga konsorsiumdan chiqish huquqi berildi. Pul tizimini tartibga solish va turk lirasi stavkasini tartibga solishdagi navbatdagi qadam 1930 yilning iyul oyida Markaziy bank kelgusi yil oktabrdan boshlab o'z faoliyatini boshlashini e'lon qildi. Yangi bankning ishga tushishi bilan konsorsium tugatilib, emissiya huquqi Markaziy bankka berildi. Shunday qilib, Usmonlilar banki turk moliya tizimida dominant rol o'ynashni to'xtatdi. Iqtisodiyotni, shuningdek, boshqa sohalarni rivojlantirish uchun Mustafo Kamol mamlakatni besh yillik rejalar tuzib, ular orqali boshqargan. Bunday besh yillik rejalaridan birinchisi 1933 yil 1 dekabrda qabul qilingan bo'lib, u «Rejalashtirilgan iqtisodiyot elementlarini» yaratishni o'z ichiga olardi.

Agrar sohada olib borilgan islohotlar. Asosiy muammo - yer bilan bog'liq bo'lgan agrar islohot edi. Ammo, bu masala Izmirdagi qurultoy tomonidan rad etildi, unda yersiz dehqonlar ishtirok etmaydilar.⁴⁹ Kamol rivojlanishning hozirgi bosqichida iqtisodiy afzalliklari aniq bo'lmagan islohotlarni boshlab, yer egalarini o'ziga qarshi qayta tiklamaslikni afzal ko'radi. Qishloqlarni institutsionalizatsiya qilish, Qishloq xo'jalik vazirligining tashkil etilishi, agrar bankning isloh qilinishi, qishloq xo'jaligi ko'rgazmalarining tashkil etilishi, don va materiallarning bepul tarqatilishi - bu davlat hokimiyati organlarining faoliyati edi.

Agrar siyosatda davlat yersiz va kam yerli dehqonlarga vaqf yerlarini, davlat yerlarini, shuningdek, vafot etgan va tashlab ketilgan nasroniylarning yerlarini ham ularga taqsimlab berdi. Shayx Said boshchiligidagi kurd qo'zg'olonidan so'ng*, 1925 yil 17 fevralda ashar (desyatina) bekor qilinib, uning o'rni esa yer

⁴⁹ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.: - Молодая гвардия; 2004. – С.183.

* 1925 yil fevral-aprel oylarida shimoliy viloyatlarda Shayx Said boshchiligidagi Turkiyada kurd (Zaz) qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olon yangi tashkil topgan Turkiya Respublikasi hukumati tomonidan olib borilgandunyoviylik siyosatiga javoban kurd sunniy qabilalarining qarshilik harakati edi. Turkiya armiyasiga qarshi bo'lgan isyonchilarda zamonaviy qurollar yo'qligi sababli qo'zg'olon uzoq davom etmadi. Qo'zg'olon mag'lubiyatidan so'ng minglab kurdlar Turkiyaning g'arbiy qismiga surgun qilindi. Kurdlarning qochib ketgan kichik bo'linmalari 1927 yilgacha mintaqada kurashni davom ettirdi.

solig'i bilan almashtirildi. Ashar dehqonlar uchun dahshatli voqea edi va Izmirdagi qurultoyda uning bekor qilinishini milliy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etildi. Afsuski, ushbu soliq turi, ishlab chiqarilgan mahsulotning o'ndan biridan ko'prog'ini undirib, respublika budjetidagi eng muhim daromadlardan biri edi.⁵⁰ Asharni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun katta siyosiy jasorat zarur edi. Mustafu Kamolda aynan shunday jasorat mavjud bo'lganligini tarix unutmaydi. 1925 yil 26 fevralda chet elliklarning «Reji» kompaniyasini tugatish to'g'risida qonun qabul qilindi⁵¹. Davlat qishloq xo'jaligi tashkilotlarini yaratishni rag'batlantirdi.

Siyosiy hayotda amalga oshirilgan islohotlar. Turkiyadagi siyosiy hayot haqida fikr-mulohaza bildirganda, albatta, undagi siyosiy partiyalar haqida eslatib o'tish o'rinlidir. Turkiyada siyosiy partiyalar ilk bor Usmonlilar davrida 1876 yildagi Konstitutsiya (Asosiy Qonun) va 1909 yildagi konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida jamiyat hayotiga kirib kelgan. Bu davrlarda «Ittihad va Taraqqiy» firqasi, «Mutadil Hurriyatparlar» firqasi, «Usmonli Demokratlar» firqasi va «Usmonli Sotsialistlar» firqasi kabi ko'plab siyosiy partiyalar tashkil topgan edi. Ular 1913 yildan 1918 yilgacha faoliyat olib borgan.

Turkiyada milliy ozodlik harakatlari davrida bir qancha siyosiy birlashmalar faoliyat olib borgan bo'lsada, ularning markazida Onaduli va Rumiliya Mudofaa Huquq Jamiyati turgan. Bu tashkilot Xalq firqasiga aylanib (1923 yil 9 sentabr) Turkiya jumhuriyatining ilk siyosiy partiyasiga aylandi. Mazkur partiya 1924 yil 10 noyabrdan Turkiya Respublikasi Xalq Partiyasi (RXP) nomini oldi.

Inqilob rahnamosi Mustafu Kamol Otaturk rahbarligidagi RXP qisqa vaqt ichida davlat va jamiyat hayotini modernizatsiya qilish islohotlarini boshlab yubordi. Biroq bu islohotlardan norozi bo'lgan bir guruh konservativlar partiyadan ajralib chiqib 1924 yil 17 noyabrda «Taraqqiyparvar Jumhuriyat» firqasiga asos solishdi. Ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tishning ilk harakati sifatida baholangan «Taraqqiyparvar Jumhuriyat» firqasining tashkil topishi Turkiyada

⁵⁰ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.: -Молодая гвардия; 2004. – С.184.

⁵¹ Киреев.Н.Г.История ТурцииXX век.-М.:УБРАН,2007.- С.185.

ko'ppartiyaviylikning ilk tajribasi nuqtai nazaridan juda ahamiyatlidir. Partiyaning yetakchisi Kozim Karabakir, o'rinbosari Husayn Rauf Orbay va bosh kotib Ali Fuat Jebasoylar mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarda qahramonlik ko'rsatgan shaxslar bo'libgina qolmay, Mustafo Kamol Otaturkning eng yaqin do'stlari ham edi. Biroq islohotlar jarayonida ba'zi kelishmovchiliklar kelib chiqdi.

Turkiya Respublikasi Xalq Partiyasi (RXP) dasturiga nazar tashlaganda jinsiy tenglik va ko'p madaniyatlilikdan tashqari, barcha liberal demokratik qadriyatlarga yaqinlashuvi tufayli so'l tomonga o'tgan. XRPning dasturida siyosiy leberalizmning asosiy qadriyatlari hisoblangan shaxs va erkinlik tushunchalariga e'tibor berish bilan birga tenglik, o'zlik va o'zlikni anglash kabi tushunchalarga e'tibor qaratgan.

Partiya nishonidagi oltita o'q kamolchilikning asosiy tamoyillari: respublikachilik, millatchilik, etatizm, milliylik, dunyoviylik va inqilobni anglatadi. Shu orqali Turkiyada 1946 yilga qadar bir partiyali siyosiy tizimning o'rnatilishiga erishildi. Mustafo Kamol davlat poytaxtini o'zgartirdi va u Anqara bo'ldi. Mustaqillik uchun kurash paytida ham Kamol bu shaharni o'zining shtab-kvartirasi uchun tanladi, chunki u Istanbulga temir yo'l orqali bog'landi va shu bilan birga dushmanlar qo'lidan tushdi. Milliy majlisning birinchi sessiyasi Anqarada bo'lib o'tdi va Kamol uni «poytaxt» deb e'lon qildi. U Istanbulga ishonmadi, bu yerda hamma narsa o'tmishdagi tahqirlarni esga soladi va eski rejim bilan juda ko'p odamlar bog'liq edi. 1923 yilda Anqara qariyb 30 ming kishi yashaydigan kichik savdo markazi edi. Keyinchalik uning radial yo'nalishlarda temir yo'llar qurilishi tufayli mamlakatning markazi sifatida mavqei mustahkamlandi.

Ijtimoiy islohotlar va ularning natijalari. Jamiyat hayotida ham bir qancha ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, bu sohada dastlab 1925 yil 25 noyabrda turk feskalarini kiyib yurishni ta'qiqlash va uning o'riga yevropacha shlyapalar va kiyimlarni kiyish to'g'risida qonun qabul qilindi.⁵² Shu o'rinda turklarning bosh kiyimlari tarixiga to'xtalib o'tsak. 1829 yilda Sulton Mehmet II

⁵² Киреев.Н.Г.История Турции XX век-М.:УБРАН,2007.- С.559.

ning yangi chiqargan buyrug'iga ko'ra, endilikda barcha amaldorlar an'anaviy salla kiyishni ta'qiqlab uni feska bilan almashtirishni e'lon qilgan. Bu qaror keyinchalik Mustafa Kamolni g'azablantirgan edi. Chunki feskalar musulmonlarni yunonlarga o'xshab noto'g'ri tomonga buradi deb, hisoblar edi. 1908 yilda ittifoqchilar tomonidan Tripolitaniyaga yuborilgan Kamol Sitsiliyadan o'tib ketadi va bolalar limon po'stini begona odamlarga boshlarida feska bilan tashlaydilar.

1910 yilda Mustafa Kamol Pikardidagi Buyuk Manevrlarda qatnashish uchun Fransiyaga jo'naganida Belgraddagi temir yo'l stansiyasida boshida qizil feskali yunon savdogari yo'lovchilardan birini haqorat qilganiga guvoh bo'lgan edi. Jumhuriyatning yaratilishi va xalifalikning bekor qilinishi odamlarning ongini o'zgartira boshladi. Endi turklar sivilizatsiyalashgan dunyoda boshqa xalqlar bilan taqqoslaganda ular bilan teng sur'atlarda yurishlari, madaniyatda ham orqada qolmay harakatlanishlari, buni tushunishlari va kundalik hayotda, xususan, tashqi ko'rinishlarida ham o'zgartirishlar kiritishlari kerak edi⁵³. Kamolning aynan o'zi birinchilardan bo'lib mamlakatda shlyapa kiya boshlagandi. Chunki mamlakatda foydalaniladigan feskalar asosan boshqa (xususan Avstriya) davlatlarning cho'ntagini qappaytirar edi.⁵⁴

1925-1931 yillar davomida vaqt, taqvim va o'lchovlarning xalqaro tizimini joriy etildi. Aholining g'arblashuv jarayoni tezlashdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xususan bunga oid misollar talaygina. 1926 yil sentabr oyida birinchi marotaba Turkiya poytaxti Anqaraga avtomatik telefon stansiyasi qurila boshlandi va 1933 yilga kelib stansiya 1697 ta abonentni ro'yhatga olgan edi. Radioeshittirish va efirga olish kabi tushunchalar 1928 yilda poytaxt Anqarada paydo bo'ldi. Dastlab radioeshittirishlar juda past quvvatda ya'ni 5 kilovattida ishlagan. Uni asosiy aksiyalari Biznes bankka tegishli bo'lgan «TASh» firmasi boshqargan. Ammo, 1936 yilga kelib radioeshittirishlar davlat qo'liga o'tdi.⁵⁵ 1926-1934 yillarda ayollarga erkaklar bilan teng huquqlar berish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi⁵⁶.

⁵³ Ушаков А.Феномен Ататюрка.Турецкий правитель,творец и диктатор.–М.:Центрполиграф,2002. –С.295.

⁵⁴ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.:-Молодая гвардия; 2004.– С.187.

⁵⁵ Киреев.Н.Г.История ТурцииXX век-М.:UBРАН,2007.- С.185.

⁵⁶ Ушаков А.Феномен Ататюрка.Турецкий правитель,творец и диктатор.–М.:Центрполиграф,2002. –С.296.

1934 yil 26 noyabr kuni taxalluslar va unvonlar ko‘rinishidagi ismlarga old qo‘shimchalarni bekor qilish. Yangi qonunga ko‘ra eski tuzumdagi ismlarni oldiga «xonim» va «janob» so‘zlari qo‘shib aytiladigan bo‘ldi.

1932 yildan boshlab butun mamlakat bo‘ylab turli xil badiiy tadbirlar, sport va boshqa madaniy tadbirlar uyushtiruvchi bir necha yuzlab «Xalq uylari» va «Xalq xonalari» ochilib, faoliyatlari kengaytirildi. Inson qiyofasini yaratishni budparastlik deb hisoblagan Usmonli sultonlar davrida oyoq osti qilingan tasviriy va plastik san‘at Mustafo Kamol davrida qo‘llab-quvvatlandi va rag‘batlantirildi. Ko‘plab muzeylar ochildi, arxitektura zamonaviy tendensiyalarga ergashishni boshladi, G‘arb klassik musiqasi, opera va balet, shuningdek, teatrga ham ko‘proq e‘tibor berila boshlandi. Kitob va jurnal nashrlari ko‘paydi, kino sanoati rivojlana boshladi. 1934 yilda Mustafo Kamol birinchi turk operasi - O‘zsoyni ishga tushirdi. Opera Anqara shahridagi Xalq uyida sahnalashtirilgan, uni Adnan Saygun yozgan va soprano Semiha Berksoy ijro etgan. 1935 yilgi umumiy saylovlar natijasida Turkiya parlamentiga 18 ayol deputat qo‘shildi. Turkiya boshqa bir qator Yevropa davlatlaridan oldin 1934 yil 5 dekabrda ayollarga to‘liq siyosiy huquqlarni berishga o‘tdi. Nikohda ayollarning teng huquqliligi Turkiyaning fuqarolik kodeksida allaqachon belgilangan edi. Mustafo Kamolning madaniy islohotlaridagi ayollarning o‘rni uning rahbarligi ostida tayyorlangan fuqarolik kodeksida yaqqol ifodalangan. Bunda Mustafo Kamol shunday dedi:

«Ayollarning shu vaqtga qadar siyosiy nosog‘lomligini mantiqiy tomondan tushunish mumkin. Bu boradagi har qanday salbiy fikrlash o‘tmishdagi so‘nib borayotgan ijtimoiy hodisadan boshqa narsa emas. ... Ayollar ovoz berish va saylanish huquqiga ega bo‘lishi kerak; chunki demokratiya buni ta‘kidlaydi, shuningdek, ayollarda himoya qilinishi kerak bo‘lgan manfaatlari va bajarishi kerak bo‘lgan ijtimoiy vazifalari ham mavjud⁵⁷.»

O‘zgarishlar asta-sekin sodir bo‘la boshladi, 1935 yilgi saylovlarda jami 395 vakildan 18 nafari ayol deputatlar bo‘lganligi yuqorida qayd etildi. 1934 yil 21 iyunda «Familiyalar to‘g‘risida» qonun qabul qilindi. 1934 yilda turklar ism va

⁵⁷ Орлов Д.И. Идеи, лидеры, действия.— Букинистическое издание.— 2006-140

familiyalarini almashtira boshladilar, Turkiya Buyuk Millat Majlisi (TBMM) Mustafo Kamolga Otaturk - «Turklarning otasi» nomini berdi. Maxsus qonunga ko'ra boshqa hech kim olingan bu ismdan foydalanishi mumkin emas, deb belgilab qo'yilgan.

Diniy hayot va uni tartibga soluvchi islohotlar. Diniy hayotda ham bir qancha jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Mustafo Kamolning fikricha din ayniqsa, diniy mutaasiblikni o'ziga kasb qilib olgan dindorlar yangilikka qarshi chiqqan holatda mamlakatni rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli 1924 yil 8 aprelda TBMM shariat sudlarini bekor qilish to'g'risidagi qonun ishlab chiqdi va sud tizimining ayrim qoidalariga o'zgartirishlar kiritdi. 1925 yil 30 noyabr kuni diniy monastirlar faoliyatini ta'qiqlash bo'yicha ham qonun qabul qilinib darveshlarning faoliyati nazoratga olinib, ularning xonaqohlari va tekkelari yopib qo'yildi.

1932 yilda turk tilida Qur'on tinglovchilar uchun radio orqali jonli efirga uzatildi. Aynan o'sha yili Mustafo Kamol islomni asrlar davomida anglamagan turk xalqiga ilk bora o'z ona tili turkchada dinni o'rgatishni istagan edi. O'sha paytlarda barcha Qur'on kitoblar qadimgi arab tilida nashr etilar edi. Bungacha arab, fors, turk va lotin tillarida tetrapla uslubida yozilgan Bernstadlik olim Andrea Akoluto tomonidan tayyorlangan Qur'onning noyob bir nusxasi bo'lib, u 1701 yilda Berlinda bosilgan. 1924 yilda Istanbulda Qur'onning uchta turkcha tarjimasi nashr etildi va bu bahs-munozarani keltirib chiqardi. Qur'ondan bir necha parchalar turk tilida omma oldida o'qildi. Ushbu Qur'on qiroatchilari turk dindorlari tomonidan qattiq qarshilikka uchragan. Ushbu voqealar va ko'plab musulmon yetakchilarining harakatlari Turkiya parlamentini Qur'onni sifatli tarjimasiga homiylik qilishga majbur qildi.

Namozga bo'lgan chaqiriq ya'ni azon endi turk tilida yangray boshladi. Ibodatlarda arabchadan voz kechishga urinish amalga oshirildi, ammo bu harakatlar samara bermadi. Chunki muqaddas Qur'on kitobida shunday arabcha so'zlar bo'lganki, ularni tarjimasi turk tiliga tushunarsiz bo'lgan. Kamolchilar juma kunini emas, yakshanba kunini dam olish kuni deb e'lon qilishadi, Istanbuldagi

Avliyo Sofiya masjidini muzeyga aylantirishdi. Shiddat bilan o'sib borayotgan poytaxt Anqarada deyarli birorta diniy binolar qurilmay qoldi⁵⁸.

Mustafo Kamolning qo'llab-quvvatlashi bilan parlament Din ishlari bo'yicha direksiya tuzish loyihasini ma'qullaydi. Shuningdek, Mehmet Akif (Ersoy) tomonidan Qur'onning tarjimasi va islomshunos olim Yelmalili Hamdi Yazirning «Haq Din Qur'on Dili» deb nomlanuvchi turk tilidagi Qur'on sharhi(Tafsir) yozildi. Faqatgina 1935 yilga kelib xalq ommasini kitob chop etilishiga erishildi. Mustafo Kamolning maqsadi Qur'onni zamonaviy odamlarga yetkazish edi va shuning uchun uni zamonaviy tillarga tarjima qilishga harakat qildi.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar. Mustafo Kamol yagona ta'lim tizimini yaratib, barcha ilmiy va o'quv muassasalarini Ta'lim vazirligiga topshirish bo'yicha qaror qabul qildi. Ushbu buyruqlar Turkiyada joylashgan xorijiy o'quv yurtlari va milliy kam sonli aholi maktablariga nisbatan qo'llanildi. Barcha ta'lim organlarini yagona rahbarlik ostida birlashtirish (1924 yil 3 mart)boshlandi. Turk tilshunosligi va turk tarixiy jamiyatlarining tashkil topdi.

Mustafo Kamol davrida Turkiyada boshqa sohalar qatori san'at ham rivoj topdi, tasviriy san'at sohasida bir qancha yangiliklarning yaratilgani buning yorqin misolidir. Misol uchun Anqarada 1927 yilda Davlat san'at va haykaltaroshlik muzeyi ochildi. Turkiyalik islom dindorlarining «budparastlikdan qochish» degan aqidasi tufayli mamlakatda haykaltaroshlik rivoj topmagan edi. Mustafo Kamol esa haykaltaroshlarga keng imkoniyatlar taqdim eta boshlab, sohani rivojlantirdi. Kamol madaniyatgina Turkiya Respublikasining poydevori bo'lishiga ishonar edi.

1928 yilning bahorida Mustafo Kamol Anakarada butun Turkiyadan kelgan tilshunoslar va professorlar bilan uchrashdi, ularga o'zgartirilgan lotin alifbosiga asoslangan yangi turk tili alifbosi yaratish vazifasini topshirdi. Yangi turk alifbosi eski arab yozuvini almashtirishi va Turkiyadagi savodxonlik muammosini hal qilish uchun xizmat qilishi zarur edi. U yangi alifboni turk tiliga kiritish uchun qancha vaqt kerakligini so'raganda, ko'pchilik professor va tilshunoslar uch yildan

⁵⁸ Орлов Д.И. Идеи, лидеры, действия.— Букинистическое издание.— 2006.—С.138.

besh yilgacha bo'lgan vaqtni aytishdi. Ammo Kamol ochiqchasiga: «Siz buni 3-5 oyda amalga oshirishingiz kerak» deb aytadi. Keyingi bir necha oy ichida Mustafo Kamol yangi turk alifbosini joriy etishni talab qildi va yangi alifboni qayta ko'rib chiqilishi haqida jamoatchilikka e'lon qildi. 1928 yil 1 noyabrda Mustafo Kamol yangi turk alifbosini joriy qildi va arab yozuvidan foydalanishni bekor qildi. O'sha paytda mamlakatning savodli fuqarolari aholining 10 foizini tashkil etar edi. Dyuey Kamolga, arab yozuvida turk tilida o'qish va yozishni o'rganish uchun boshlang'ich darajadagi juda zo'r usullar bilan qariyb uch yil davom etganini aytdi. Ular arab yozuvida yozilgan Usmonli tilidan arab va forscha lug'atlar bilan foydalanganlar. Lotin alifbosining bir varianti sifatida yangi turk alifbosining yaratilishi Mustafo Kamol tashabbusi bilan «Til komissiyasi» tomonidan amalga oshirildi. O'qitish Usmonli arman xattotidan olingan.

Yangi alifbodan foydalanilgan birinchi turk gazetasi 1928 yil 15 dekabrda nashr etildi. Kamolning o'zi fuqarolarga yangi alifboni o'rgatish uchun qishloqlarni kezib chiqdi. Mamlakatning yangi alifboga moslashuvi juda tez sodir bo'ldi va Turkiyada savodxonlik ikki yil ichida 10 foizdan 70 foizgacha ko'tarildi. 1932 yildan boshlab, 16 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan odamlar yangi alifboni majburiy ravishda o'rganishlari shart bo'lgan talabni qondirish uchun butun mamlakat bo'ylab Xalq uylari ochildi. Yangi xatni bilmagan amaldorlar ishdan bo'shatildi. Yangi alifboni o'rganmagan mahbuslar ozod qilinmadi. Mualliflik huquqi, xalq ta'limi va ilmiy nashriyot masalalarini muhokama qilish uchun kongresslar bo'lib o'tdi. Savodxonlik sohasidagi islohotlar, shuningdek, xususiy nashriyot sektorini mualliflik huquqi to'g'risidagi yangi qonun bilan mustahkamlash orqali qo'llab-quvvatlandi.

1931 yilda Mustafo Kamol turk tilida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun Turk tili Assotsiatsiyasini tuzdi. 1931 yilda Turk tarixiy jamiyati tashkil etilgan va 1932 yildan boshlab Turkiya tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning hisobot va arxivlarini saqlashni boshlagan.

1928 yil 1 yanvarda u «Turk Ta'lim Uyushmasi»ni tashkil qildi. Uyushma moliyaviy ehtiyojga ega, aqlli va mehnatsevar bolalarni qo'llab-quvvatladi, bu esa ta'lim sifatini yaxshilab, uning rivojiga moddiy va ilmiy hissa qo'shdi.

Mustafo Kamol boshlang'ich ta'lim bosqichida zamonaviy o'qitish usullarini targ'ib qildi. Turk ayollarga nafaqat bolalarni parvarish qilish, kiyim tikish va uy xo'jaligini boshqarish, balki uy tashqarisidagi iqtisodiyotga qo'shilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar ham o'rgatildi.

Turk ta'limi davlat tomonidan boshqariladigan tizimga aylandi, bu tizim mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun mahorat bazasini yaratishga qaratilgan edi. Uning «yagona» ta'lim dasturi mas'uliyatli fuqarolar bilan bir qatorda jamiyatning foydali va qadrli a'zolarini ham o'qitishga mo'ljallangandi ⁵⁹. Turk ta'limi qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan integrativ tizimga aylandi va gender tengligini o'rnatish uchun ayollarning ta'limi ishlatildi.⁶⁰ Mustafo Kamol ushbu davrda zamonaviy ta'limni targ'ib qilishga ommaviy axborot vositalarining e'tiborini qaratdi. U ta'lim sifati, o'qitish masalalari va ba'zi asosiy ta'lim tamoyillari to'g'risidagi «Ilmiy kengashlar» va «Ta'lim sammitlari» deb nomlangan rasmiy ta'lim uchrashuvlarini o'tkaza boshladi. «Bizning maktablarimiz va ulardagi o'quv rejasi shunday bo'lishi kerakki, ular barcha o'quvchilarga bilim olishlari va muvaffaqiyatga erishishlari uchun imkoniyat yaratib berishi kerak» deb aytardi, Mustafo Kamol. Uning shaxsan o'zi ikkita darslik yaratish ishlari bilan ham shug'ullangan. Ulardan biri turkcha «Vatandaş İçin Medeni Bilgiler (Fuqarolar uchun fuqarolik bilimlari)» deb nomlanib 1930 yilda nashr qilingan. Unda yangi davlat institutlarida qo'llaniladigan boshqaruv qoidalarini tushuntirilgan. Keyingi darslik esa 1937 yilda o'rta maktab o'quvchilari uchun yaratilgan «Geometriya» darsligi edi. 1933 yilda Mustafo Kamol Istanbul Universitetini zamonaviy muassasaga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi va keyinchalik poytaxtda Anqara universitetini tashkil qildi. 1933 yil

⁵⁹ Wolf-Gazo. John Dewey. The Middle Works of John Dewey, 1899-1924: Journal Articles, Essays, and Miscellany.– SIU Press, 2008.– P.40.

31 may kuni Universitet ta'limini tartibga solish to'g'risida qonun qabul qilindi. Mustafa Kamolning o'zi tarjimalar bilan ham shug'ullangan, ilmiy terminlarni turkchaga tarjima qilganligi buning isbotidir.

U turk tilidagi islohotlar uslubiy asosda bo'lishini istardi. Turk tilining ajralmas tuzilishini modellashtirmasdan tashqi ta'sirni «tozalash» uchun qilingan har qanday urinishni Mustafa Kamol noto'g'ri hisoblagan. U shaxsan barcha tillar bitta O'rta Osiyo tub tilining avlodlari degan taklifni anglatuvchi lingvistik nazariya bo'lgan «Quyosh tillari nazariyasi» ning rivojlanishiga shaxsan rahbarlik qildi. Uning qiziqishi fransuz olimi Xil de Barentonning barcha tillar shumerlar tomonidan qo'llanilgan ierogliflar va mixxat yozuvlaridan kelib chiqqanligi aytilgan «L'Origine des Langues, des Religions va des Peuples» asarini va Vena doktori Hermann F. Kvergich «La psychologie de quelques elements des langues Turques» («Turkiy tillarning ba'zi elementlari psixologiyasi») nomli maqolasini o'qigandan so'ng paydo bo'ldi. 1935 yilda u Quyosh tili nazariyasini Turkiyaning siyosiy va ma'rifiy doiralari olib kirdi, ammo nazariya keyinchalik to'g'ridan ko'ra ko'proq noto'g'ri ekstremistik amaliyotlarni amalga oshirgan.

Otaturkning tashqi siyosatda «Xonadonda, mamlakatda tinchlik va dunyoda tinchlik» shiori ostida siyosat olib borgan. Kamol siyosatining natijalari respublikadagi suveren parlamentning kuchiga bog'liq edi. Turkiyaning mustaqilligi uchun olib borgan urush bu Otaturkning boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarida oxirgi marta o'zining harbiy kuchini ishlatgan. Uning prezidentligi davrida tashqi siyosiy masalalar tinch yo'l bilan hal qilingan.

Mustafo Kamol umrining so'nggi yillari qurshovida. 1927 yil 30 iyunda marshal Mustafa Kamol qo'shinni tark etdi, ammo bu voqeaga u juda katta e'tiborini jalb qilmadi, chunki uning boshqa muhim va ahamiyatli muammolari paydo bo'lgan edi. Xuddi shu kun Mustafa Kamol Istanbulga poezdga borgandi. Shaharda u to'liq sakkiz yil davomida bo'lmagan edi. 1927 yil may oyining oxirida Kamol bir necha marta yurak xurujiga uchradi va shifokorlar uning sohil va qirg'oqlarda dam olishini maslahat berishdi. 1927 yil sentabr oyida Bosfor bo'yida yuz mingdan ortiq odam prezidentning yaxtasida uning sobiq poytaxtga kelishini

kutishdi.⁶¹ Mustafо Kamol uch oyni Istanbulda o‘tkazdi, shaharning turli joylariga tashrif buyurdi, Bosfor va Marmar dengizi bo‘ylab sayr qildi, vazirlar va boshqa davlat arboblari bilan uchrashdi. O‘shandan beri har yili vafotigacha Mustafо Kamol hukumat a‘zolari bilan uch oyni Istanbulda o‘tkazadi. Sobiq poytaxt yangi nafas oldi: u Turkiyaning yozgi poytaxtiga aylandi. 1923 yil 29 yanvarda Mustafо Kamol Latife Ushoqlizodaga uylangandi. Ammo ularning turmushi uzoq davom etmadi, 1925 yil 5 avgustda ularning yo‘llari ajralgandi⁶². Shundan so‘ng Mustafо Kamol hech qachon yangi turmush qurmagan. Otaturk hayoti davomida 12 nafar qiz va bir nafar o‘g‘il bolani farzand qilib asrab olgandi. Bo‘sh vaqtlarida u o‘qish va yozish (kitoblar va shaxsiy jurnal) bilan shug‘ullanardi. Bundan tashqari, u otda yurish, shaxmat va suzishni ham yaxshi ko‘rardi. U shuningdek chaqqon raqqos bo‘lgan va an‘anaviy xalq raqslaridan zavqlangan.

1937 yil davomida Otaturkning sog‘lig‘i yomonlashgani haqida turli xil xabarlar paydo bo‘lgandi. 1938 yil boshida, Yalovaga safarda bo‘lganida, u jiddiy kasallikdan aziyat chekardi. U davolanish uchun Istanbulga ketdi va u yerda alkogolli ichimliklarni ko‘p iste‘mol qilganligi sababli jigar sirrozi tashxisi qo‘yiladi⁶³. U oxirgi kunlarini Dolmabaxche saroyida o‘tkazdi va 1938 yil 10 noyabrda 57 yoshida vafot etdi. U vafot etgan yotoqxonadagi soat hanuzgacha uning o‘limi vaqtini ko‘rsatib turadi: ertalabgi 9:05. Otaturkning dafn marosimiga o‘n yetti mamlakat maxsus vakillarini yubordi. Dastlab Mustafо Kamolning mayiti Anqara Etnografiya muzeyida dafn etilgan va vafotidan 15 yil o‘tgach 1953 yil 10-noyabrda 42 tonnalik sarkofagda, Anqaradagi maqbaraga ko‘chirilgan⁶⁴. U o‘zining xohish-irodasi bilan u barcha mol-mulkini Respublika Xalq partiyasiga topshirdi, uning yillik mablag‘laridan singlisi Makbule va asrab olgan bolalarini boqish va Ismet Inenyuning bolalarini oliy ma‘lumotli qilish va moliyalashtirish uchun sarflandi.

⁶¹ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.: -Молодая гвардия; 2004. – С.199.

⁶² Ушаков А. Феномен Ататюрка. Турецкий правитель, творец и диктатор. – М.: Центрполиграф, 2002. – С.276.

⁶³ Ататюрк К. Избранные речи и выступления. – М.: Прогресс, 1966. – С.27.

⁶⁴ Розалиев Ю.Н. Мустафа Кемаль Ататюрк. Очерк жизни и деятельности – М.: Восточная литература, 1995. — С.56.

1-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Mustafo Kamol o'ta mashaqqatli va murakkab hayot yo'lini bosib o'tdi. Jumladan, u Birinchi jahon urushida Usmoniy imperiyasining mag'lubiyati ortidan, davlat tuproqlarining g'olib kuchlar tomonidan ishg'ol qilina boshlashi bilan turk millatini ommaviy kurashga chorladi. Bu kurashning muvoffaqiyatli yakunlanishi bilan Lozannada imzolangan tinchlik bitimi natijasida Turkiya Respublikasi tashkil topdi va Mustafo Kamol Otaturk ushbu davlatda ilk prezident bo'ldi.

Birinchi jahon urushida Usmoniylar imperiyasi mag'lubiyatga uchraganidan keyin u milliy ozodlik harakatiga rahbarlik qildi. Buning natijasi o'laroq, 1922 yil 1 noyabrda amaldagi hukumat barham topib, 1923 yil 29 oktabrda jumhuriyat e'lon qilindi.

Mamlakatda 1924 yil 3 mart kuni xalifalik rasman tugatilib, dunyoviy davlat qaror topdi. Mustafo Kamol mamlakatda keng islohotlar o'tkazdi. Ulardan ko'zlangan maqsad mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish edi. 1928 yilda alifbo lotinlashtirilib, turk tili arab va fors so'zlaridan tozalana boshlandi va din davlatdan, maktab dindan ajratildi. Otaturk islohotlari natijasida 1934 yilda xotin-qizlarga saylov huquqi berildi, feodal jamiyatlardagi titullar bekor bo'lib, familiya joriy qilindi. Aynan o'sha yili familiya joriy qilinishi munosabati bilan Milliy yig'in Mustaffo Kamolga Otaturk (Turklar otasi) familiyasini berish to'g'risida qaror qabul qildi. So'ngra, «Otaturk» degan ulug' nomga musharraf bo'lgan yo'l boshchi, ko'plab ulkan inqiloblarni amalga oshirdi. Zero, zamonaviy jamiyat tashkil topishida Otaturkning xizmatlari beqiyos.

Bugun har bir turk talabasi shubhasiz Mustafo Kamol Otaturk ismini yaxshi biladi. Unga yosh avlod yuksak hurmat ko'rsatadi. Aynan mana shu inson va siyosatchi prezident 15 yillik prezidentligi davrida kuchli, rivojlangan va zamonaviy Turkiyani yaratishga muvaffaq bo'ldiki, Kamolchilik turklar nazdida hamon davom etmoqda.

II BOB. ISLOM KARIMOV BUYUK MAQSADLARGA YO‘NALTIRUVCHI ULUG‘ YO‘LBOSHCHI

2.1. Islom Karimovning istiqlolni qo‘lga kiritish yo‘lidagi sa’y- harakatlari.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining serqirra siyosiy faoliyati, oliyjanob insoniy fazilatlari bilan O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixida o‘chmas iz qoldirgan. U nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida katta hurmat va obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgan tarixiy shaxs va davlat arbobi sifatida tanilgan. Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1938 yilning 30 yanvarida Samarqand shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topdi. Islom Karimov dunyoga kelgan 1938 yil – dinga qarshi kurash avj olgan davrda unga «Islom» deb ism qo‘yilishining o‘zi ulkan jasorat bo‘lgan. Chunki o‘sha qatag‘on ayni avj pallasiga kirgan yillarda islomiy ism qo‘yish u yoqda tursin, islom dini haqida gapirishning o‘zi xatarli edi. Ma‘lumotlarda yozilishicha, o‘sha yili Samarqand viloyati bo‘yicha 1694 nafar o‘g‘il bola tug‘ilgan va faqat bittasining ismi Islom bo‘lgan ekan. Bu uning otasining qanchalik jasorat sohibi bo‘lganliklaridan dalolat. Islom Karimovning otasi Abdug‘ani Karimov va validasi Sanobar Karimovalar o‘z hayotini farzandlarining tarbiyasiga bag‘ishlashgan. Sanobar Karimovaga bilimga chanqoqlik, kuchli xotira, zukkolik va sabr-toqat kabi fazilatlar butun umr yo‘ldosh bo‘lgan. Abdug‘ani Karimov va Sanobar Karimovalar fabrikada ishchi bo‘lib ishlashgan. Otasi Abdug‘ani bobo qattiqqo‘l, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchan kishi bo‘lgan hamda qat‘iyiligi bilan ajralib turgan. Avvalo o‘zi qat‘iy intizom va tartib-qoidaga rioya etgan ota farzandlaridan ham shuni talab qiladi. Shu xususiyatlari tufayli ularning oilasi mahalla-ko‘yning ehtiromini qozongan edi. Bu oilada sakkiz nafar farzand o‘sib ulg‘aygan. Islom Karimov esa bu farzandlarning yettinchisi edi⁶⁵. Karimovlar oilasida Mehriniso ismli bir qiz farzand va Amonullo, Ibodullo, Arslon, Quddus, Ikrom, Islom, Xurshid ismli o‘g‘il farzandlar bo‘lgan. Manbalarda ta‘kidlanishicha, barcha aka-ukalar juda kuchli

⁶⁵ Левитин Л. Ислом Каримов – янги Ўзбекистон президенти. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б.16.

xotiraga ega bo'lishgan. Islom Karimov 1945 yilda Samarqanddagi A.S.Pushkin nomidagi 21-maktabga o'qishga kirib, uni oltin medal bilan tamomlagan. O'quvchilik yillari mobaynida ko'p adabiyotlarni, ayniqsa, tarixga aloqador bo'lgan adabiyotlarni o'qigan. Karimovlar oilasidagi barcha o'g'il farzandlardan uch nafari Karimov Ibod G'anievich, Karimov Quddus G'anievich va Karimov Islom Abdug'anievichlar maktabni oltin medal bilan tugallaganlar va fan nomzodi bo'lganlar. Ular orasidan keyinroq Islom Karimov akademik darajasigacha erishdi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, «Maktabda Karimovga bag'ishlab muzey tashkil qilishmoqchi bo'lishdi, lekin u ta'qiqlab qo'yildi. Xayriyatki, bu maktabda bo'lajak akademik V.A.Koptyug ham o'qigan. Shu bahona maktabda «Shonshuhrat muzeyi» tashkil bo'ldi⁶⁶.» Muzeyda Islom Karimov haqida eksponat bu uning uchtagina surati edi. Bularning birida uning ikkinchi sinfda o'qigan vaqti, yupun kiyingan bola, xuddi o'zi qatori yupun kiyingan bolalar orasida. Keyingi surat to'qqizinchi sinfdaligida olingan. Bo'lajak prezident o'rtoqlari bilan aviamodel yasamoqda va maktab bitiruvi kechasi surati – hamma qatori yigit.

Islom Karimovning bolaligi urush davriga va yoshligi esa urushdan keyingi yillarga to'g'ri keldi. U va uning barcha yaqinlari bir burda nonning haqiqiy bahosini bilganiga qaramasdan, qiyinchilik va yo'qchilikni boshidan kechirishgan. Ular minglab o'zbeklar kabi Ikkinchi jahon urushi vaqtida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan kishilar bilan o'z uyi va tuz-nonini baham ko'rishgan. Shuning uchun qaerda va qanday lavozimda ishlamasin, keyinchalik yurtga bosh bo'lib, xalqni ozodlikka chiqargan, el mehrini qozongan paytlarda ham bu mashaqqatli davrni aslo unutmadi⁶⁷.

1955 yilda Islom Karimov O'rta Osiyo Politexnika institutiga o'qishga kiradi. «Kursdoshlari va o'qituvchilarining eslashicha, butun o'qish davomida faqat u qattiqqo'l matematika o'qituvchilaridan «a'lo» baho olgan⁶⁸.» 1960 yilda institutni tamomlab va «muhandis-mexanik» mutaxassisligi bo'yicha diplom olib,

⁶⁶ Левитин Л. Ислон Каримов – янги Ўзбекистон президенти. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б.1.

⁶⁷ <http://islomkarimov.uz/uz/page/memory/orzu-rahmatov-samarqand-shahridagi-dahbedi-mahalla-fuqarolar-jigini-raisi>

⁶⁸ Мишин Н.Л. Ислон Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.7.

«Toshselmash» zavodida o‘z mehnat faoliyatini boshladi va qisqa davr ichida usta yordamchisi, usta va texnolog kabi lavozimlarda ishlashga ulgurdi. Bu zavod qishloq xo‘jaligi texnikasining har xil turlarini, shu jumladan paxta terish mashinalarini ishlab chiqarardi. Ular O‘zbekiston va boshqa respublikalar dehqonlarining mehnatini yengillashtirar va boshqa mamlakatlarga eksport ham qilinardi. Islom Karimov uchun bularning barchasini vujudida his qilish, ishlab chiqarishda tajriba orttirish, zavod hayotining «murakkab» va «ijobiy» tomonlarini ko‘rish muhim edi.

O‘zining intiluvchanligi, bilimdonligi va tashkiliy fazilatlari tufayli 1961 yilda u sobiq Sovet Ittifoqining harbiy-sanoat majmuasining yirik korxonalaridan biri – V.P. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi zavodida muhandis lavozimiga tayinlandi. «U bilan zavodda ishlagan odamlarning aytishicha, u garchi chapani bo‘lsa-da, haqiqatgo‘y, halollikni va oqillikni qadrlagan, tez jahli chiqib ketishi, hatto, qattiq urushib qolishi hollari bo‘lgan, lekin ko‘ngilda kir saqlamagan. Prezident bo‘lgach ham yo‘li tushib zavodga kelganida, ko‘plab kishilarga ismini aytib murojaat qilardi va hech vaqt adashmasdi⁶⁹.» Zavodda og‘ir samolyotlar tayyorlanar edi. Bu yerda u 1966 yilgacha ishlab, yetakchi muhandis-konstruktor lavozimigacha ko‘tarildi.

Islom Karimov taqdir unga yozgan qator qiyinchiliklar va to‘siqlarni bartaraf etishi lozim edi. Bu esa bo‘lajak yurt yetakchisining fe‘l- atvorini toblar, uni yanada mustahkam qilardi. U hayot yo‘lini o‘z kuchi va bilimlariga tayanib bosib o‘tdi. Maktab yillarida, institutda, ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyatida va iqtisodiy ta‘lim olayotganida va dissertatsiyasini himoya qilganida ham u o‘z kuchi va bilimiga tayandi. U ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta‘lim oldi. Aynan shu tarzda 1967 yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutining kechki bo‘limini tamomladi.

Toshkent xalq xo‘jaligi institutidagi o‘qish va izlanishlari natijasida 1973 yilda «O‘zbekiston SSR sanoatining tarmoq tuzilishi va uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1975

⁶⁹ Левитин Л. Ислом Каримов – Янги Ўзбекистон президенти. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б.2.

yilda Moskvada nufuzli Xalq xo'jaligi boshqaruvi institutida iqtisodiy-matematik usullar va hisoblash texnikasini qo'llagan holda ishlab chiqarish va rejalashtirishni boshqarish, tashkil qilishning zamonaviy usullari sohasi bo'yicha tahsil oldi. Mamlakat rivoji va uning kelajagi yo'lida olib borgan fidokorona faoliyatini inobatga olgan holda Islom Karimovga 1994 yilda iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi, «makroiqtisodiyot» ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoni berildi. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining «Iqtisodiyot» ixtisosligi bo'yicha haqiqiy a'zosi etib saylandi.

1966 yildan e'tiboran Islom Karimov O'zbekiston Davlat reja qo'mitasiga o'tib, fan bo'limi bosh mutaxassisi lavozomida o'z ishini boshladi. Qo'mitadagi faoliyatida ham o'zini yaxshi ko'rsatib, jiddiy va o'ziga xos fikrlaydigan iste'dodli iqtisodchi obro'siga erishdi, astoydil mehnat qilgani bois qo'mita rahbarlarining mehrini qozondi. Tez orada Islom Karmovni Davlat reja qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

Islom Karimov o'z kasbining mohir ustasi bo'lganligi bois 1983 yilda Moliya vaziri etib tayinlandi. Oradan uch yil o'tgach, 1986 yilda Ministrlar Kengashi raisining o'rinbosari - O'zbekiston Davlat reja qo'mitasi raisi bo'ldi.

Iqtisodchi, nazariyachi va amaliyotchi Islom Karimov xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi butunlay noto'g'riligini ko'rib anglagan. Respublikaning moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishi rejalarini shakllantirgan Davlat reja qo'mitasida va Moliya vazirligida xizmat pillapoyalaridan o'tayotib, tahliliy tafakkurga ega bo'lgan holda hech kimga ma'lum bo'lmagan yuzaga kelgan muammolarni ich-ichidan his qilardi.

1986 yilda O'zSSR Davlat reja qo'mitasi raisi bo'lgan Islom Karimov vaziyatni chuqur o'rganganidan keyin respublika iqtisodiy talofat oldida turganini angladi. U vaziyatni tushungan va uni yaxshi tomonga o'zgartishni xohlagan holda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasiga «O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishi muammolari va istiqbollari haqida»gi ma'lumotnomani tayyorlaydi.

U jiddiy va aniq choralar ko'rilishiga umid qilgandi. Lekin vujudga kelgan vaziyat rahbariyatning shu darajada g'azabiga sabab bo'ldiki, uning Toshkentda

bundan buyon qolishga imkoni yo‘q edi. Rahbariyat nazarida «Nomaqbul» hisoblangan I.A.Karimovdan qutulish istagi shunchalik kuchli ediki, shu tufayli partiya tomonidan viloyat partiya qo‘mitasi birinchi kotibi lavozimiga tayinlashning belgilangan tartibi buzildi. Shunday qilib, u Siyosiy byuro yig‘ilishida Qashqadaryo viloyati partiya qo‘mitasi birinchi kotibi lavozimiga sirdan tayinlandi.

«Qashqadaryo viloyati xalqi meni, yumshoqroq aytganda ehtiyotkorlik bilangina emas, qandaydir befarq qabul qildi. O‘tmishimning biri o‘zining oldingi qandaydir nojo‘ya ishlari uchun javobgarlikdan qo‘rqib o‘z joniga qasd qilgandi. Boshqa birrasini qamashgandi. Ba’zi bir odamlar shunday deyishgandi: «Yangi birinchi sekretar, buyam avvalgilariga o‘xshagan bo‘lsa kerak.» Mening boshimda esa kecha-yu kunduz o‘sha fikr yurardi. Odamlarning ishonchini qozonish kerak. Men baxtliman-ki, buning uddasidan chiqdim. Men uch yil obkom binosida bitta xonada yashadim. Uch yil zohidlarcha turmush kechirdim. To‘g‘risini aytganda kecha-yu kunduz ishladim.»⁷⁰

Islom Karimov qanday lavozimda ishlamasin, u, avvalambor, o‘z Vatanining fuqarosi bo‘lib qoldi, xalqining baxtli va farovon turmush kechirishini xohladi. Xalq ham o‘z hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarni his qilib, unga katta ishonch bilan qarabgina qolmay, balki o‘z yo‘lboshchisining haqiqiy fikrdoshi bo‘ldi.

Ehtimollarga ko‘ra, Islom Karimovning aynan Qashqadaryo viloyatiga tayinlanishi uni sirdan sindirish uchun kerak bo‘lgan. Biroq bu hodisa aksincha uning taqdirida burilish yasadi. Qashqadaryo viloyati Islom Karimov rahbarlik qilgan 3 yil ichida jadal rivojlana boshlagandi. Karimov viloyatda ishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib, qisqa muddatda uni yuqori pog‘onalarga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldi. Qariyb 300 km yo‘llar, bozorlar, ijtimoiy-madaniy ob‘ektlar qurildi. Islom Karimov xalqning ishonchiga sazovor bo‘lgan edi. Quyidagi fikrlar fikrimizning yaqqol isbotidir: «Men uchun eng muhimi esa viloyatda hech kim Karimov nohalol odam edi, deya olmaydi. Aksincha, odamlar to bugunga qadar meni

⁷⁰ Мишин Н.Л. Ислам Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.12.

intizomli inson sifatida eslaydilar. Bu bilan men faxrlanaman»⁷¹. Hozirgacha viloyatda odamlar Islom Karimov ishlagan kunlarini mamnuniyat bilan eslaydilar.

O'sha yillarning o'zida uning Vatan oldidagi xizmatlariga munosib baho berilib, 1981 yilda «Mehnat Qizil Bayroq» ordeni bilan 1988 yilda esa «Xalqlar do'stligi» ordeni bilan taqdirlangandi.

1989 yil 23 iyun kuni I.Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi birinchi kotibi etib saylandi. Moskvadagi hukumat Karimov nomzodini tanlar ekan, u shunchaki respublikani idora etib qolmay, yig'ilib qolgan jiddiy muammolarni hal qilishiga ishonchi komil edi. O'sha vaqtda fojeali voqealar ro'y bergan pallada Islom Karimov O'zbekiston boshqaruvini o'z zimmasiga oldi. O'zbekiston SSR ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bo'yicha Sovet Ittifoqida so'nggi o'rinlarda edi. Milliy va etnik ziddiyatlar esa vaziyatni yanada murakkablashtirgan edi. 1989 yilning may-iyun oylarida Farg'ona viloyatida «Farg'ona voqealari» deb atalgan ommaviy to'qnashuvlar ro'y berdi. Oqibatda, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 100 dan ziyod kishi qurbon bo'ldi, 735 ta turar joy, 28 ta davlat ob'ekti hamda 275 ta avtotransport vositasi yoqib yuborildi⁷². Boshqa qator viloyatlarda ham vaziyat notinch edi. Odamlarni tartibsizlikka undovchi kuchlar harakatga tushib qolgandi. «Avval Farg'ona, keyin O'sh voqealari tugunini aynan Karimov yechganligini ko'pchilik bilmasa kerak. O'shandayoq u sobiq Ittifoq rahbarlari o'rtasida fundamentalizm qanday fojialarga olib kelishini birinchi bo'lib tushundi. Karimov O'zbekistonda shunday sharoit yaratdiki, odamlar millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bu yurtning Vatani deb hisoblaydilar.»⁷³

Islom Karimov butun faoliyati davomida yuksak natijalarga erishdi – SSSR hududida respublikaning eng yosh moliya vaziri bo'ldi. Aynan o'sha kunlari respublikadagi vaziyat keskin va nafaqat Farg'ona vodiysida, balki Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va boshqa viloyatlarning ayrim hududlarida yer go'yoki yonib turgan bir paytda, O'zbekiston shaxsiy jasorati va yuz berayotgan voqealarning

⁷¹ Мишин Н.Л. Ислам Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.12.

⁷² news/islom-karimov-uzbekiston-rahbariyatiga-kelganiga-30-yil-tuldi-5461

⁷³ Мишин Н.Л. Ислам Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.13.

mazmun-mohiyatiga davlat qarashi, o‘z xalqi va o‘z mamlakati uchun alohida mas’uliyati bo‘lgan rahbarga ega bo‘ldi.

Islom Karimov bularning negizida kasodga uchragan ma’muriy buyruqbozlik tizimi, respublikaning milliy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini inkor etish siyosati, hukumronlik va xalqni kamsitish siyosati yotishini yaxshi anglagan. «Markaz» tashabbusi bilan tahqirlovchi «paxta ishi», «o‘zbek ishi» asoratlari haligacha kishilarning yodida turibdi. Halokatli vaziyat xom ashyo yo‘nalishiga moslashgan iqtisodiyotda ham vujudga kelgan edi. Respublikada, ayniqsa, aholisi zich yashagan Farg‘ona vodiysida o‘z ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan norozi bo‘lgan kishilarning sabr kosasi to‘lgan edi.

Endilikda ishonch bilan aytish mumkinki, aynan Islom Karimov millatlararo ziddiyatni to‘xtatdi, fuqarolar urushi olovini o‘chirdi, yuz minglab, balki millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi, respublikamizda ham, ko‘p millatli aholi yashaydigan Markaziy Osiyo mintaqasida ham tinchlik va xotirjamlikni ta’minladi.

Islom Karimov O‘zbekiston rahbari etib saylanganidan keyingi kunidayoq, ya’ni 1989 yil 24 iyunda hukumat yig‘ilishida u qat’iyan: «Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi», degan fikrni ilgari surdi, shuningdek, qadamba-qadam respublikamizni rivojlantirish bo‘yicha chuqur o‘ylangan o‘z dasturini tatbiq etishga kirishdi.

Qisqa muddatlarda tubdan ko‘rilgan boshqa choralar bilan birga 1989 yil avgustidayoq tarixiy qaror qabul qilindi - 400 ming gektarga yaqin sug‘oriladigan yerlar qariyb 2,5 million oilaga tomorqa sifatida ajratib berildi. Bu, shubhasiz, dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishda mamlakatda tinchlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qildi. Agar bitta tarixiy dalilni hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu birinchi navbatdagi o‘zgarishning butun miqyosini anglash qiyin emas: sovet hokimiyatining 72 yili mobaynida O‘zbekiston qishloq aholisiga atigi 300 ming gektar yer ajratilgan edi, xolos.

1989 yil oktabrda juda uzoq vaqt mobaynida ikkinchi darajali o‘rinlarda bo‘lgan o‘zbek tiliga davlat tili maqomini bergan «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingani Islom Karimovning dadil siyosiy qadami bo‘ldi. Bu o‘zbek

xalqining milliy ongi yuksalishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mustaqillikni qo‘lga kiritish yo‘lida birinchi g‘alaba edi.

O‘zbekiston zimmasiga yuklangan qarorlarga ko‘ra barcha ekinlar uchun mo‘ljallangan maydonlarning deyarli 80-90 foizi bitta ekin: paxta bilan band qilingan edi. Bu katta ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga sabab bo‘ldi va Islom Karimovgacha kishilar dardiga quloq solib ularning dolzarb muammolarni yechish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan bironta rahbar bo‘lmadi.

Islom Karimov shaxsiy jasurlik bobida ham ibrat bo‘la olardi. Toshkent viloyati Bo‘ka va Parkent tumanlarida avj olgan mitinglarda shaxsiy xavfsizligi haqida bosh qotirmay, u odamlarni so‘zi bilan ishontira olganligini eslashning o‘zi kifoya qiladi. Yoki 1991 yilning oxirida Namangan viloyati ma‘muriyat binosining ekstremistlar tomonidan to‘laligicha nazorat qilingan hududiga himoya qiluvchi xodimlarsiz bir o‘zi kirib, har qanday ekstremizmni, shu jumladan diniy ekstremizmni istisno qiluvchi demokratik va dunyoviy davlat qurish bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini qat’iy va aniq qilib ko‘rsatib berdi. Keltirilgan dalillar o‘sha oson bo‘lmagan vaqtning haqiqiy holatini ishonchli tarzda aks ettiradi va hech qanday izoh talab qilmaydi.

1990 yilning mart oyida M.S.Gorbachev va uning atrofida gilarni hayron qoldirib, O‘zbekiston ittifoqdosh respublikalardan birinchi bo‘lib Respublika Prezidenti lavozimini joriy qildi. 1990 yil 24 mart kuni Oliy Sovetning sessiyasida I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylandi.

1990 yil 20 iyunda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida I.A.Karimovning tashabbusi bilan «Mustaqillik to‘g‘risidagi deklaratsiya» qabul qilindi. Bu mustaqillik uchun kurash borasidagi jasur va hal qiluvchi qadamlardan bo‘lib, ular ko‘p millionli xalqimiz Moskvadan aytilgan kommunistik mafkuraning bosimi ostida boshqa yashashni istamasligining tasdig‘i bo‘ldi.

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq SSSR davrida yo‘l qo‘yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardagi xato va kamchiliklar o‘z so‘zini ayta boshladi. «Dunyoga kelgan chaqaloq avval emaklab, keyin tetapoya bo‘ladi. Vaziyat shunday keldiki, mustaqil O‘zbekiston tug‘ilgan kuniyoq oyoqqa turishga,

o‘zi yurishga majbur bo‘ldi. Tashqi siyosatda, tashqi savdoda mutlaqo tajribasi bo‘lmagan davlat birinchi kunlardan boshlab qaerda yutqizishi mumkin, qaerda yutishi mumkin – ana shunday jiddiy masalalarni yechishga to‘g‘ri keldi⁷⁴.»

Aynan shunday vaqtda haqiqiy yetakchi o‘z xalqining qo‘llab-quvvatlashini va ishonchini his qilib, mamlakat taqdiri uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oldi va qat’iyatlilik, mardlik hamda jasorat namunasini ko‘rsatdi. «Islom Karimov O‘zbekiston siyosiy maydonida shiddat bilan yarq etib paydo bo‘ldi. Oddiy, biroq fikrlash tarzi o‘ziga xos, o‘z kasbining bilimdoni, lekin hamma vaqt ham «qulay bo‘lmagan», fikrini istagan boshliqqa ayta oladigan kishi sifatida tanilgan Davlat reja qo‘mitasi mutaxassisi O‘zbekistonni mustaqillikka olib kelgan Respublikadagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi va yetakchisi bo‘ladi deb, 80-yillarning o‘rtalarigacha hech kim bashorat qila olmas edi⁷⁵.»

1991 yil 31 avgustda Islom Karimov tarixiy voqea — O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi. 1991 yil 31 avgustda XII chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi. O‘sha kunning o‘zidayoq «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunga imzo chekildi.

1990 yilning avgustida Islom Karimov kompartiyani qayta tashkil qilishga kirishdi, xalqimizning «Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmay»–degan dono fikrini qo‘llab-quvatlagan holatda, uning mafkurasi va siyosatini amalda tubdan o‘zgartirishga harakat qildi. Odamlar va ma‘muriyat ulkan zahiralari bo‘lgan hukmron partiya mutlaqo yangi mafkura va siyosatiga ega xalq demokrtatik partiyasiga o‘zgartirildi.

Kommunistik partiyaning obro‘si tushib ketgan lahzada o‘zlarini muxolif deb e‘lon qilgan «Birlik» harakati va «Erk» partiyasi kabi muqobil partiyalar va harakatlar paydo bo‘ldi.

⁷⁴ Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-T.:O‘zbekiston, 1996. –B.4.

⁷⁵ Мишин Н.Л. Ислам Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.5

Mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyat murakkabligiga qaramay, Islom Karimov fikrlar xilma-xilligini va demokratik qadriyatlarga sadoqatni namoyon qilgan holda dadil qadam qo'yishga - ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida saylov o'tkazishga qaror qildi.

1991 yil 29 dekabrda muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. «Bu tarixiy voqeani 15 ta Markaziy saylov komissiyasi, 13 ta saylov okrugi va qariyb 7000 ta uchastka saylov komissiyasi amalga oshirdi.» O'zbekiston Respublikasi saylovi muqobillik asosida o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A.Karimov va «Erk» Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov nomzodi qo'yildi. «Saylovlar yakuniga ko'ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3 foiz) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.⁷⁶»

Anchagina qat'iy, ko'ngli bo'shlikka moyil bo'lmagan Islom Karimov, o'shanda tuyg'ularini yashira olmay, jurnalistlarga bittagina gap aytdi, xolos: «Menga bo'lgan ishonchi uchun xalqimdan minnatdorman, men uning yuksak ishonchini oqlashim kerak!»⁷⁷

Prezident saylovi bilan bir vaqtda O'zbekiston mustaqilligi masalasi bo'yicha referendum o'tkazildi. Ovoz berishga kelgan deyarli barcha fuqarolar mustaqil suveren O'zbekiston uchun fikr bildirdilar. Saylovdagi g'alabasi bilan Islom Karimov o'zining butun xalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan siyosati qonuniyligini tasdiqladi. Prezident lavozimidagi vakolatlari haqqoniyligining bunday tasdig'i, shubhasiz, Islom Karimovga mustaqillikni mustahkamlash hamda orziqib kutilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha olib borayotgan ishlar to'g'riligiga ishonchni yanada mustahkamladi.

I.A.Karimov muqobillik asosida to'g'ridan-to'g'ri, umumiy, yashirin ovoz berish yo'li bilan bir necha marotaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib

⁷⁶ Jo'raev N., Fayzullaev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: Sharq, 2000. -B.42.

⁷⁷ Мишин Н.Л. Ислам Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.8-18.

saylandi va har safar saylovchilarning mutlaq ko'pchilik ovozini oldi. Bu saylovlar 2000 yil 9 yanvar, 2007 yil 23 dekabr, 2015 yil 29 mart kunlari bo'lib o'tdi. Xullas, I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslarini ishlab chiqishda asosiy rol o'ynadi va O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida rivojlanish strategiyasini yaratdi.

2.2. Islom Karimov davrida O‘zbekiston Respublikasining ichki hamda tashqi siyosati

Islom Abdug‘aniyevich Karimov mamlakatda amalga oshirilgan ulkan ishlar, tarixiy o‘zgarishlarning tashabbuskori va rahnamosi edi. U avvalo, O‘zbekiston mustaqilligining asoschisi, mamlakat mustaqil taraqqiyot dasturini ishlab chiqqan va milliy taraqqiyot yo‘lini belgilab bergan atoqli davlat arbobidir.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov 25 yil davomida mustaqil O‘zbekistonni boshqarib, ochiq fuqarolik jamiyati va bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishning chuqur o‘ylangan strategiyasini ishlab chiqqan va uni amalga oshirgan buyuk davlat arbobi sifatida mamlakatda va xalqaro maydonda yuksak obro‘-e‘tibor qozondi. O‘zbekistonning suvereniteti va mustaqilligini saqlash va mustahkamlash Prezident Islom Karimov uchun hamisha eng oliy ustuvor vazifa bo‘lib keldi va u olib borgan siyosatning asosiy o‘zak tamoyili bo‘lib qoldi.

Biror-bir davlatni bayroq va gerb singari davlat ramzlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, mustaqil O‘zbekistonning ushbu muhim ramzlari Islom Abdug‘aniyevich Karimov davrida xalq va noiblar muhokamasidan o‘tib qabul qilindi. Shuningdek, u «Mustaqillik», «Amir Temur», «Buyuk xizmatlari uchun» ordenlari kabi mukofotlarni yaratish bo‘yicha muallif hamdir.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov tomonidan O‘zbekiston Respublikasi xalqining tinch-osuda va baxtli yashashi maqsadida bir qator muhim islohotlar amalga oshirilgan. Quyida ba’zilar bilan tanishib chiqish bu boradagi fikrimizni kat’iylashtiradi.

Sud-huquq sohasidagi yangiliklar. Islom Karimov mamlakat rahbari sifatida o‘z faoliyatining boshidan tokim umrining oxirgi kunlarigacha demokratik huquqiy davlatning eng asosiy belgisi hisoblangan huquqning hukmronligini o‘rnatishga harakat qildi. Bu uning boshchiligida davlat va jamiyat hayotining barcha tomonlari huquqiy jihatdan tartibga solinganligi va davlat o‘zining butun

faoliyatida huquqqa bo‘ysunganligi bilan izohlanadi. Islom Karimov «Huquq–bu mustaqillik demakdir» – degan tushunchani ilgari surdi.

Sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo‘yicha boshlangan ishlarning ta’siri va samarasini kuchaytirish maqsadida I.A.Karimov sud hokimiyati tizimini shakllantirishga va mustahkamlashga, uning demokratlashuvi va liberallashtirishiga, sudning mustaqilligi, xolisligi va odilligini ta’minlashga katta e’tibor qaratgan. Sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilib, kassatsiya instituti isloh qilindi, ishlarni qayta ko‘rib chiqish apellyatsiya tartibi joriy qilindi, sud muhokamasining barcha bosqichlarida tomonlarning tengligi ta’minlandi.

«Huquqiy davlatning asosiy belgisi – degan edi I.A.Karimov,– barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta’minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo‘lishi talab etiladi⁷⁸».

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, suveren O‘zbekistonning mustaqil huquqiy tizimi shaxsan Islom Karimov boshchiligida va rahnamoligida yaratildi. Bunda birinchi navbatda Respublika Konstitutsiyasini yaratishga asosiy e’tibor qaratilib, mazkur ishga ham bevosita Islom Karimov rahbarlik qildi. Uning raisligidagi maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan Konstitutsiya siyosiy, yuridik va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan Asosiy Qonun sifatida mustaqil O‘zbekistonning o‘ziga xos —pasporti, inson va fuqaro huquqlarining demokratik hujjati, insonparvar, adolatli, huquqiy davlatni shakllantirishning strategik dasturi bo‘lib qoldi. Mazkur Konstitutsiya asosida O‘zbekistonning hamma sohalarga oid ijtimoiy-huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlari ishlab chiqilib, izchillik va yakdillik bilan hayotga tadbiq qilindi. Tarixan qisqa muddatda suveren O‘zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi o‘zgarishlarni huquqiy mustahkamlaydigan, yangicha

⁷⁸ Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O‘zbekiston, 1996.– B. 85.

ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladigan qonunlar yaratildi.

Ma'lumki, O'zbekistonda 2008 yilning yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi. Mamlakatda o'lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiyatning katta e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lgani albatta, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o'ta muhim voqeadir. O'zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, faqat ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi mamlakatda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

I.A.Karimovning ko'rsatishicha, «Barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlarining himoya qilinishini va aholining xavfsizligini kafolatlash huquqiy davlatni barpo etishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi⁷⁹». Zeroki, Islom Abdug'aniyevich Karimov «Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi⁸⁰», deb ko'p ta'kidlar edi.

Iqtisodiyot tizimini tartibga soluvchi islohotlar. Islom Karimov iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta'minlash mumkin emas, degan fikrning qat'iy tarafdori edi. Aynan shuning uchun ham Islom Karimov tomonidan butun dunyoda taraqqiyotning —o'zbek modeli deb e'tirof etilgan O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh etish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish dasturi ishlab chiqildi. Bu modelning tub negizini — «Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun»⁸¹ degan strategik yo'nalishni amalga oshirish tashkil etadi. Avvalambor, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning izchil tatbiq etilishi va chuqurlashtirilishi, uning moliyaviy institutlari va real sektor tarmoqlari

⁷⁹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.– B.44.

⁸⁰ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.– T.:O'zbekiston, 2018.–B.11..

⁸¹ Karimov I.A.Inson,uning huquq va erkinliklari -oliy qadriyat.T.1. – T.: O'zbekiston, 2006.– B. 63.

barqaror va uzluksiz faoliyat ko'rsatishi, bozor mexanizmlari keng joriy etilishining ta'minlanishi, ishlab chiqarishning diversifikatsiya qilinishi, uzluksiz texnik va texnologik jihatdan yangilab borilishi va rivojlanishi, buning uchun juda katta investitsiyalar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar jalb etilishi I.A.Karimov tomonidan kompleks islohotlar o'tkazilganligining natijasidir. Bularning barchasi mamlakat salohiyatini, raqobatbardoshligini oshirishga, yanada izchil rivoj topishi uchun mustahkam fundament shakllanishiga xizmat qildi.

Kichik va xususiy biznes milliy iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatda iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususiy sektor vakillari uchun imtiyozlar va preferensiyalar yaratilgan, ular xom ashyo resurslaridan foydalanishlari uchun sharoitlar bilan ta'minlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda 2013 yilgacha tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmi bo'yicha o'sish qayd etildi. Hatto, 2008-2009-yillarda sodir bo'lgan Jahon moliyaviy inqirozi davrida ham, savdo hajmining o'sish darajasi keskin pasaygan bo'lishiga qaramay, bu ko'rsatkich ijobiy natijani namoyon qildi. Quvonarli tomoni shundaki, barcha davrlarda mamlakat musbat tashqi savdo balansini qayd etilgan bo'lib, bunda birinchi Prezident Islom Karimovning sa'y-harakatlari amaliy ahamiyat kasb etdi⁸². O'zbekiston Respublikasining hozirgi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev I.A.Karimov olib borgan iqtisodiy islohotlar xususida quyidagilarni bayon etgan, «Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy dasturlarning amalga oshirilishi mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb olti marta o'sdi»⁸³.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar. O'zbekiston ko'p millatli, ko'p konfessiyali, bag'rikeng xalq sifatida tanilgan diyordir, shu sababli ham xalqning ijtimoiy ahvoli I.A.Karimov islohotlarining asosiy markazida turgan. O'zbekiston hududida 137 ta millat va elat vakillari tinch-totuv yashamoqda. Turli millatlar,

⁸² O'zbekiston Respublikasi davlat statistikasi qo'mitasi. <https://stat.uz>

⁸³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.– T.:O'zbekiston, 2018.–B.5.

elatlar, turli xil din vakillari yashaydigan joyda, ular orasida manfaat va maqsadlar xilma-xilligidan turli darajadagi kelishmovchilik va ziddiyatlar paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarni hisobga olish, vujudga kelgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim omilidir⁸⁴.

Yoshlar oliy o'quv yurtlarida, maktablarda 8 tilda ta'lim olishmoqda. Ko'plab tillarda gazetalar chop etilgan, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar olib borilmoqda. Umumiy soni yuzga yaqinlashib qolgan madaniy-ma'rifiy milliy markazlarning xalq orasida nufuzi oshib bordi. Fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqiga amal qilinmoqda.

Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbusi bilan qishloq aholisi uchun shahar sharoitlariga yaqin zamonaviy uy-joylar sharoitlari yaratish maqsadida uzoq muddatli ipoteka kreditlarini imtiyozli shartlarda ajratgan holda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi Dasturi qabul qilingandi.

Hozirgi vaqtda mamlakatda deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Istiqolol yillari mobaynida ularni ishlab chiqarish hajmi 2 martadan ko'p o'sdi. O'zbekiston nafaqat o'z aholisini asosiy oziq-ovqatlar bilan ta'minlaydi, balki bug'doyni hamda yangi va ishlov berilgan meva-sabzavot mahsulotining 200 ga yaqin turini eksport qilmoqda. Faqat ishni ko'zini biladigan, har qarich yerning qadriga yetib, unga butun mehrini, borlig'ini berib mehnat qiladigan insonlargina yuqori natijalarga erishishga qodir bo'ladi⁸⁵. Shu o'rinda I.A.Karimovning «Dehqonchilik - mo'jiza yaratish bilan barobar, desak, also mubolag'a bo'lmaydi. Bu mo'jiza har yil ko'z o'ngimizda takror bo'ladi. Biz bunga o'rganib qolganmiz. Shuning uchun bunday mo'jizalarni yaratadigan insonlar mehnatini har qancha ulug'lasak arziydi⁸⁶» kabi fikrlari diqqatga sazovordir. Bugun O'zbekistonning barcha aholisi, ham shahar aholisi, ham qishloq aholisi yuqori malakali tibbiyot xizmatlaridan teng foydalana

⁸⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston, 1999.–B.20.

⁸⁵ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.– T.:O'zbekiston, 2017.–B.13.

⁸⁶ Karimov I.A.Inson,uning huquq va erkinliklari -oliy qadriyat.T.1. – T.: O'zbekiston, 2006.– B. 31.

olayotganligi, sog‘liqni saqlash sohasidagi tizimli davlat siyosatining yuksak darajadagi samaradorligidan darak bermoqda. Davlat tomonidan kafolatlangan bepul shoshilinch tibbiy yordamning prinsipial jihatdan yangi tizimi va ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari shakllandi. Barcha viloyatlarda ko‘p tarmoqli, tibbiy, perinatal va skrining markazlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyati profilaktika, diagnostika va davolashning Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti standartlariga javob beradigan ilg‘or texnologiyalariga asoslangan.

«Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo‘lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi», – deb ta’kidlagan edi, I.A.Karimov⁸⁷.

1993 yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlod salomatligini mustahkamlash, uni ma’naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan tarbiyalash, unga vatanparvarlik va o‘z Vataniga mehr-muhabbat tuyg‘usini singdirish ishidagi alohida xizmatlarni rag‘batlantirish maqsadida, shuningdek, bolalar manfaatlari yo‘lida xayriya faoliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etganlik uchun davlat mukofoti - «Sog‘lom avlod uchun» ordeni ta’sis etildi. Shu yilning aprel oyida «Sog‘lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, mustaqil O‘zbekiston tarixida birinchi hukumatga qarashli bo‘lmagan fond tuzildi.

I.A.Karimov davrida mamlakatda onalar va bolalar o‘limi uch baravardan ortiq qisqardi. Kishilarning turmush sifati va salomatligi yaxshilanib bormoqda. Erkaklarning o‘rtacha umr ko‘rishi 66 yoshdan 73,5 yoshga, ayollarning esa 76 yoshga yetdi.

O‘zbekistonda islohotlar amalga oshirila boshlangan dastlabki yillardayoq kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan maqsad, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Qisqa qilib aytganda, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoraalri xalqqa xizmat qilishi kerak, degan oddiy, lekin g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan prinsipni amalga

⁸⁷ Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O‘zbekiston, 1996.– B.112.

oshirish zarur⁸⁸. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning — «O‘zbekistonning o‘z yangilanish va taraqqiyot yo‘liga asos bo‘lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o‘tkazishdir⁸⁹», degan so‘zlarini keltirish joizdir.

Oila institutini yanada mustahkamlash, bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish Islom Karimov faoliyatida alohida ahamiyat kasb etgandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti ta‘biri bilan aytganda, —oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir⁹⁰.

Oila – bu jamiyatning tayanch ustuni, uning hal qiluvchi bo‘g‘ini sanalganligi bois ichki siyosatda asosiy o‘rinni egallaydi. Islom Karimov ta‘kidlab o‘tganidek, — «...oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor⁹¹». Shu fikrlarni mantiqiy davomi sifatida Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda «Bizning yo‘limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir» mavzusida ma‘ruza qilib, unda birinchi Prezident mamlakatda 2012 yilni — «Mustahkam oila yili» deb e‘lon qilgandi.

Inson huquqlari bo‘yicha samarali faoliyat ko‘rsatadigan milliy institutlar tizimini yaratish O‘zbekiston demokratik rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri bo‘ldi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti yaratildi. Ular bir-birini takrorlamasdan, mustaqil va o‘z yo‘liga ega bo‘lib, jamiyatimizda qonun

⁸⁸ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz..– T.:O‘zbekiston, 2017.–B.169.

⁸⁹ Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O‘zbekiston, 1996.– B.315.

⁹⁰ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. –T.: —Ma‘naviyat, 2008. –B. 58.

⁹¹ Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida: T. 6. T.: —O‘zbekiston, 1998. –B.400.

ustuvorligi tamoyiliga rioya qilishga, fuqarolarning huquqlari qonunchilikka muvofiq himoya qilinishiga sharoitlar yaratadi, ularning tatbiq etilishi monitoringini yuritadi.

«Har qaysi xalq, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, - milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakkam tarix bo'ladi»⁹².

Ta'lim tizimidagi yangiliklar. Eski qolip va andozalardan to'liq voz kechgan holda Islom Karimovning tashabbusi bilan keng ko'lamli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi, ta'lim tizimi zamonaviy xalqaro standartlar asosida tubdan isloh qilindi. O'zbekistonda bu davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mamlakatda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Janubiy Koreyaning Inha universiteti kabi Yevropa va Osiyoning bir qator yetakchi oliy o'quv yurtlarining filiallari muvoffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Islom Karimov ulg'ayib borayotgan avlodni tarbiyalashning prinsipial jihatdan yangi tizimini yaratish va hayotga tatbiq etish ishiga bevosita rahbarlik qildi. Bu mamlakatning bugungi va ertangi kunining hal qiluvchi kuchiga aylanib borayotgan yoshlarimizning tafakkurini va dunyoqarashini tubdan o'zgartirdi.

Yangi ta'lim standartlari va o'quv dasturlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida mamlakatning millionlab o'g'il-qizlari yuksak darajada bilim va tarbiya olmoqdalar.

Ta'lim sohasidagi islohotlar erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishi lozimligini doimo ta'kidlab o'tadigan I.A. Karimov:

⁹² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: —Ma'naviyat, 2008. -B. 97.

«Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak»⁹³,
- deb aytgandi.

Islom Karimovning ko'plab so'zlari va fikrlari aforizmdan iborat va ma'no jihatdan shu darajada teranki, millionlab vatandoshlarimiz uchun ruhiy sokinlikning asosiga, turmushning axloqiy negiziga aylandi. «O'zbekiston — umumiy uyimiz» deb nomlangan aniq ifodalangan va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan prinsip tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlashga ko'maklashmoqda. Maktablar va oliy o'quv yurtlarida ta'lim yetti tilda — o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida olib boriladi. Ko'p tillarda gazeta, jurnal, kitoblar chop etiladi, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar efir yuzini ko'rmoqda. Qariyb 140 ta respublika va mintaqaviy milliy madaniyat markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan Prezident I.A.Karimovning **faol tashqi siyosiy faoliyati** boshlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatga qo'yilishi, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik – iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turardi.

O'zbekiston tashqi siyosat sohasida boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, dunyo mamlakatlari bilan teng huquqli asosda sherikchilik qilish, yuzaga keladigan har qanday mojaro va muammoni faqat tinch yo'l bilan, siyosiy va huquqiy vositalar orqali hal etish, uzoq va yaqin qo'shnilarimiz bilan o'zaro manfaatli hamkorlik va totuvlikda yashash tamoyiliga qat'iy amal qilindi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning — «Xavfsizlik, barqarorlik va tanlagan yo'ldan og'ishmaslik degan, ana shu oddiy so'zlar zamirida chuqur ma'no-mazmun bor. Biz buni bilib olmog'imiz va anglab yetmog'imiz zarur. Xavfdan qanday xoli bo'lish mumkin? Rivojlanish uchun kuch-madadni qayerdan izlash lozim? Bular strategik muammolar bo'lib, har qanday mustaqil davlat, eng avvalo, ana shu muammolarga e'tibor berib kelgan va

⁹³ Karimov.I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.–B.13.

bundan buyon ham e'tibor berajak⁹⁴»- degan fikrlari tashqi siyosatdagi strategik vazifaning qanchalik dolzarb ekanligini isbotlab turibdi.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatini amalga oshirish – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarini bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir⁹⁵.

Prezident Islom Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakat tashqi siyosatining asosiy qoidalari aniq belgilandi va qonunlashtirildi. Respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. Bular faol va keng ko'lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov qarashlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda dunyodagi hech bir muammoni alohida bir davlatning sa'y-harakati bilan yechib bo'lmaydi. Jumladan, xavfsizlik muammolari kamida mintaqa miqyosidagi hamkorlikni taqozo qiladi. Shu ma'noda nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning o'rnatilishi muhim masalalarni yechishda bahamjihat harakat qilishga keng yo'l ochadi. 133 ta mamlakat O'zbekiston bilan xalqaro aloqalar sub'ekti sifatida diplomatik munosabatlar o'rnatdi. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga ham a'zo bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi kabi nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy va global rivojlanishning ko'p masalalarini hal qilishga salmoqli hissa qo'shib keldi. Tashqi siyosatdagi faoliyatda eng katta yutuq bu O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish-irodasi va taklifiga ko'ra 1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotiga

⁹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. –B.3

⁹⁵ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.– B.50.

qabul qilindi. Mamlakat jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentabrda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va yosh, navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston tashqi siyosatining ko'p tomonlamaligi va ochiqligi iqtisodiy va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan mustahkam va o'zaro foydali munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan yondashuvlarni belgilab beradi⁹⁶.

Bundan tashqari, I.A.Karimovning 1992 yilning iyulida Xelsinkida o'tkazilgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengashda ishtirok yetgani O'zbekistonning xalqaro obro'si e'tirof etilgani hisoblanadi. U YeXHTning yig'ilishida raislik qilib, «O'zgarishlar vaqtiga tahdid» deb nomlangan yakuniy hujjatini muhokama qildi. I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyalarida va boshqa xalqaro tashkilotlarda bir necha marotaba so'zga chiqib, o'zining gohida kutilmagan, balki dolzarb xalqaro muammolarning yechimi bo'yicha hamisha to'g'ri, o'z yuragidan chiqqan yondashuvni taklif yetgan.

Islom Karimov O'zbekiston biron-bir harbiy-siyosiy blokga qo'shilmay, o'z hududida xorijiy harbiy bazalarning joylashuviga, o'z harbiy xizmatchilarining mamlakat tashqarisida bo'lishiga yo'l qo'ymay, har qanday ziddiyatlarni faqat siyosiy va tinch yo'l bilan hal qilish nuqtai nazariga qat'iy amal qiladi deb bir necha marotaba ta'kidlagan.

Suveren va mustaqil O'zbekistonning tashkil topishiga, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etilishiga, fuqarolararo tinchlik va milliy totuvlik ta'minlanishiga qo'shgan misli ko'rilmagan hissasi uchun hamda qat'iyligi va jasurligi uchun «O'zbekiston Qahramoni» (1994, 001-sonli yulduz), «Mustaqillik» (1996, 002-sonli orden), «Amir Temur» (1997, 003-sonli) ordenlari bilan taqdirlandi⁹⁷. 2015 yil 29 mart kuni muqobillik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Uning natijalariga ko'ra Konstitutsiyaga kiritilgan

⁹⁶ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.– B.58.

⁹⁷ The book 'My First President', published in English, consists of written works of the students of educational institutions - winners of the essay contest dedicated to the memory of the First President of Uzbekistan.– T.: 2017.

o'zgarishlarga muvofiq Islom Karimov 5 yillik muddatga mamlakatning oliy lavozimiga saylandi. Mustaqil davlatning asoschisi Islom Abdug'aniyevich Karimov 2016 yil 2 sentabr kuni soat 20.55 da Toshkentda miya qon aylanishining o'tkir buzilishi (insult) oqibatida vafot etdi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning vafoti munosabati bilan xorijiy davlatlar, hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, taniqli jamoat arboblari, ishbilarmon va akademik doiralar vakillaridan ta'zianomalar keldi. Mazkur ta'zianomalarda ushbu qayg'uli damlarda O'zbekiston rahbariyati, xalqi va Islom Karimovning oila a'zolariga chuqur hamdardlik bildirilib, sabr-toqat tilangandi.

Birinchi Prezidentga nisbatan samimiy mehr-muhabbat va chuqur hurmat ayniqsa motam kunlari kuchli namoyon bo'ldi. O'shanda butun xalq Birinchi Prezidentini ko'z yoshlari bilan oxirgi manzilga kuzatib qo'ydi.

2-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Milliy tarixiy taraqqiyot, ko'p ming yillik o'ziga xos huquqiy tizim hamda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini inobatga olgan holda hech bir davlatga o'xshamaydigan, bugungi kunda xalqaro jamoatchilikning katta qiziqishi va doimiy e'tiborida bo'lgan prezidentlik institutining «o'zbek modeli» yaratilgan.

Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston totalitar, mustabid tuzumning paxta bazasi hisoblanar va ana shu xom–ashyoni boshqa mintaqalarga ham yetkazib berardi. Turmush darajasi esa nihoyatda past edi: 1990 yilda O'zbekistonda umumiy daromadlari yashash minimumidan past bo'lganlar aholining 70 foizini tashkil etardi, boshqa respublikalarda esa bu ko'rsatkich 30 foizdan ko'p emasdi. Mavjud korxonalar ichki bozor yehtiyojlari uchun emas, balki olib chiqib ketilishi uchun mahsulot ishlab chiqarardi. Shu bilan birgalikda, agar o'sha payt xaritasiga nazar tashlansa, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining 50 foizi faqat Toshkent shahri va Toshkent viloyatining, qolgan 50 foizi esa boshqa viloyatlarning hissasiga to'g'ri kelardi.

Islom Karimov murakkab davrda mamlakatga rahbarlik qilgan va chuqur siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar orqali respublikani o'z xalqi farovonligi uchun rivojlanish yo'liga olib chiqqan yirik davlat arbobi edi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov 25 yil davomida mustaqil O'zbekistonni boshqarib, ochiq fuqarolik jamiyati va bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishning chuqur o'ylangan strategiyasini ishlab chiqqan va uni amalga oshirgan davlat arbobi sifatida mamlakatda va xalqaro maydonda yuksak obro'-e'tibor qozondi. O'zbekistonning suvereniteti va mustaqilligini saqlash va mustahkamlash Prezident Islom Karimov uchun hamisha eng oliy ustuvor vazifa bo'lib keldi va u olib borgan siyosatning asosiy o'zak tamoyili bo'lib qoldi. O'zbekiston xalqi istiqlol yillarida erishilgan barcha olamshumul yutuqlar va natijalarni mamlakatning Birinchi Prezidenti nomi va faoliyati bilan uzviy bog'liq deb biladi. U haqli ravishda demokratik talablar va xalqaro mezonlarga to'la javob beradigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muallifi bo'lib, uni hayotga amaliy jihatdan tatbiq etishning haqiqiy kafolatiga aylandi.

Bugun biz Islom Karimovni samimiy ehtirom bilan yodga olamiz hamda xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtasini mustahkamlashga qo'shgan bemisl hissasi uchun undan minnatdormiz. O'zbekistonning birinchi Prezident I.A.Karimov tarixiy jihatdan qisqa davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ham asrlarga arziydigan ishlarni amalga oshirdi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi va jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi va uning mavqei yildan yilga mustahkamlanib bordi.

«O'zbek modeli»ga hamohang ravishda istiqbolli vazifalar belgilab olindi. Islom Karimov «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz» asarida qayd etganidek, respublikada iqtisodiy islohotlar va yangilanishlar dasturini amalga oshirishning dastlabki kunlaridan boshlaboq, asosiy e'tibor iqtisodiyot tuzilmasini muayyan ravishda yaxshilash, uning bir tomonlama, xom ashyo bazasi sifatidagi yo'nalishidan voz kechishga qaratildi va hozir ham shunday qilinmoqda.

III BOB. MUSTAFO KAMOL VA ISLOM KARIMOV HAYOTI VA FAOLIYATIDAGI O‘ZIGA XOSLIK VA UMUMIY JIHATLAR

3.1. Ikki buyuk aql-zakovat sohiblarining o‘ziga xos jihatlari.

Ushbu bobda Mustafa Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimovning o‘z faoliyatini amalga oshirishlari davomida davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida qilgan o‘ziga xos xususiy fazilatlarini haqida to‘xtalib o‘tilish maqsadi ko‘zlandi. Turkiya va O‘zbekiston ikki sharq va musulmon davlatlari bo‘lsa ham davlatlar rahbarlarining dinga xususan islom diniga nisbatan munosabatlari turlicha edi. Ushbu jihat ularning hokimiyat tepasiga kelganlaridan so‘ng olib borgan islohotlarida yaqqol ayon bo‘lgan. Xususan, Mustafa Kamol Otaturk diniy hayotda bir qancha jiddiy islohotlarni amalga oshirdi. Mustafa Kamolning fikricha din ayniqsa, diniy mutaasiblikni o‘ziga kasb qilib olgan dindorlar yangilikka qarshi chiqqan holatda mamlakatni rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan kuch sifatida namoyon bo‘lgan. Shu sababli 1924 yil 8 aprelda TBMM shariat sudlarini bekor qilish to‘g‘risidagi qonun ishlab chiqdi va sud tizimining ayrim qoidalariga o‘zgartirishlar kiritdi. 1925 yil 30 noyabr kuni diniy monastirlar faoliyatini ta‘qiqlash bo‘yicha ham qonun qabul qilinib darveshlarning faoliyati nazoratga olinib, ularning xonaqohlari va tekeleri yopib qo‘yildi.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, Turkiyaning O‘zbekistondan eng katta farqi Turkiyaning 1924 yilda qabul qilgan Konstitutsiyasida islom dini –davlat dini ekanligi bayon etilganidadir⁹⁸. Bu to‘g‘risida Konstitutsiyaning 2-moddasida quyidagi so‘zlar bitilgan: «Türkiye Devletinin dini, Dini İslâmdır; resmî dili Türkçedir; makarrı Ankara şehridir (Turkiya davlatining dini-islom, rasmiy tili-turk va markazi- Anqara shahridir)»⁹⁹ 1928 yil 10 aprelda davlat dinining islom dini ekanligini ifodalangan band konstitutsiyadan chiqarildi.¹⁰⁰ Buni biz Konstitutsiyaning o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan ikkinchi nashrining 2-

⁹⁸ Киреев Н. Г. История Турции XX в. — М.:УБРАН,2007.-С.206.

⁹⁹ <http://www.anayasa.gov.tr/index.php?l=template&id=20&lang=0>

¹⁰⁰ Şahin Atacan.Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları.- Eskişehir:Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2011,- S.218.

moddasida ko‘rishimiz mumkin¹⁰¹: «Türkiye Devletinin resmî dili Türkçedir; makarrı Ankara şehridir (Turkiya davlatining rasmiy tili-turk, markazi- Anqara shahridir)». ¹⁰² Ammo, O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyada aynan bitta din davlatning rasmiy dini ekanligi haqida yozilmagan. Buning tasdig‘i sifatida Konstitutsiyaning 31-moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.» deb qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida garchi islom dini rasmiy din sanalib, Konstitutsiyaga kiritilmagan bo‘lsa ham, ota-bobolarning, ajdodlarning muqaddas dini, adolatga, haqiqatga chorlovchi din sifatida aholining ko‘pchilik qismini o‘z ichiga qamrab olgan. Bu xususda Respublika Prezidentining shaxsan o‘zi Islom Karimov: «Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekani u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma‘rifat ekanligini doimo yuksak qadrlaymiz... dinga hurmat va e‘tiqod-biz uchun o‘lmas qadriyatdir»¹⁰³ deb aytgandi.

Sir emaski, musulmon xalqining muqaddas kitobi Qur‘on kitobi sanaladi. 1932 yilda turk tilida Qur‘on tinglovchilar uchun kitobning sura va oyatlaridan parchalar radio orqali jonli efirga uzatila boshlandi. Aynan o‘sha yili Mustafo Kamol islomni asrlar davomida anglamagan turk xalqiga ilk bora o‘z ona tilida ya‘ni turkchada dinni o‘rgatishni istagan edi. O‘sha paytlarda barcha Qur‘on kitoblar qadimgi arab tilida nashr etilardi, bu esa oddiy xalqqa kitobni o‘rganish uchun qiyinchiliklar tug‘dirardi. Bungacha arab, fors, turk va lotin tillarida tetrapla uslubida yozilgan Bernstadlik olim Andrea Akoluto tomonidan tayyorlangan Qur‘onning noyob bir nusxasi bo‘lib, u 1701 yilda Berlinda bosilgan.

1924 yilda Istanbulda Qur‘onning uchta turkcha tarjimai nashr etildi va bu bahs-munozarani keltirib chiqardi. Qur‘ondan bir necha parchalar turk tilida omma oldida o‘qildi. Ushbu Qur‘on qiroatchilari turk dindorlari tomonidan qattiq qarshilikka uchragan. Ushbu voqealar va ko‘plab musulmon yetakchilarining

¹⁰¹ Орлов Д.И. Идеи, лидеры, действия.— М.:Букинистическое издание.2006.- С.137.

¹⁰² <http://www.anayasa.gov.tr/index.php?l=template&id=20&lang=0>

¹⁰³ Karimov I.A.Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.Sharq.1991.-B.26.

harakatlari Turkiya parlamentini Qur'onni sifatli tarjimasiga homiylik qilishga majbur qildi.

Namozga bo'lgan chaqiriq ya'ni azon endi turk tilida yangray boshladi. Ibodatlarda arabchadan voz kechishga urinish amalga oshirildi ammo bu harakatlar samara bermadi. Chunki muqaddas Qur'on kitobida shunday arabcha so'zlar bo'lganki, ularni tarjimasini turk tiliga tushunarsiz bo'lgan. Kamolchilar juma kunini emas, yakshanba kunini dam olish kuni deb e'lon qilishadi, Istanbuldagi Avliyo Sofiya masjidini muzeyga aylantirishadi. Shiddat bilan o'sib borayotgan poytaxt Anqarada deyarli birorta diniy binolar qurilmay qoladi.

Mustafo Kamolning qo'llab-quvvatlashi bilan parlament Din ishlari bo'yicha direksiya tuzish loyihasini ma'qulladi. Shuningdek, Mehmet Akif (Ersoy) tomonidan Qur'onning tarjimasini va islomshunos olim Yelmalili Hamdi Yazirning «Haq Din Qur'on Dili» deb nomlanuvchi turk tilidagi Qur'on sharhi(Tafsir) yozildi. Faqatgina 1935 yilga kelib xalq ommasi kitob chop etilishiga erishildi. Mustafo Kamolning maqsadi Qur'onni zamonaviy odamlarga yetkazish edi va shuning uchun uni zamonaviy tillarga tarjima qilishga harakat qildi.

O'zbekiston ko'p millatli davlatlardan biri sifatida dunyoga mashhur. Respublikada 137 ta millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Turli millat va elat vakillari uchun esa bir qancha milliy-madaniyat markazlari faoliyat olib bormoqda. O'zbekistonda barcha diniy tashkilotlarga qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan.

Islom dini deyarli o'n asr mobaynida o'zbek xalqi turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib kelgan. 1917 yilgi Oktabr inqilobidan keyin esa keskin qoralangan dindorlik, ayniqsa, o'tgan asrning 80-yillarida O'zbekistonda ham qattiq tazyiqqa uchradi. Sho'ro yoshlari qatori o'zbek yoshlari ham dahriylik ruhida tarbiyalandi. Biroq qayta qurish davri yana diniy erkinlikka yo'l ochdi. Natijada ko'plab yoshlarning man etilgan taom lazzatidan totinishga shoshganlari kuzatildi. O'zbekistonda bugungi kunda musulmonlar uchun 2000 dan ziyod masjid va 10 ta o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Toshkent viloyati hududida esa 200 ortiq masjid rasmiy ro'yxatdan o'tgan.

1995-1996 yillarda yoshlarning masjidlarga qatnashi maksimum darajaga yetgan bo'lsa, undan keyingi ma'lum voqealardan so'ng, hukumat tomonidan asosiy javobgarlikka tortilganlar yoshlar bo'ldi.

O'zbekistonda diniy faoliyat 1998 yilda qabul qilingan diniy tashkilotlar va vijdon erkinligi to'g'risidagi qonunga binoan tartibga solinadi. O'zbek xalqining muqaddas e'tiqodi — islom diniga oid boy ma'naviy-madaniy merosini asrab avaylash, diyordan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy g'oyalari va asarlarini chuqur va har tomonlama o'rganish, tahlil etish va zamonaviy ruhda rivojlantirish, shu sohada ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, zamon talablari darajasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni ta'minlash, ularga lozim bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish hamda ajdodlardan qolgan noyob manbalar asosidagi tadqiq etilgan ma'lumotlar bilan xalqning diniy savodxonligini oshirish maqsadida 1999 yil 7 aprelda prezident Islom Abdug'aniyevich Karimovning PF-2282 raqamli farmoni qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

Ana shularni hisobga olgan holda mustaqillik O'zbekistonda islom dini olamidani, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi katta imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, masjidlarga, avliyolar yotgan maqbaralarga solingan qulflar olib tashlandi. Qarovsiz qolgan masjidlar ta'mirlandi, yangilari barpo etildi. Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kuni deb e'lon qilindi. Har yili minglab fuqarolarning haj va umraga borib kelishlari uchun imkoniyat va sharoitlar yaratib berila boshlandi.

Islom olamining ulug' allomalari Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Zamaxshariy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Moturdiy Al-Marg'inoniy va boshqa ulug' zotlarning yubeleylari nishonlandi. Qur'oni Karim, Hadislar va boshqa diniy kitoblar nashr qilindi. 1999 yilda Toshkent Islom Universiteti tashkil etildi. Mustaqillikning 20 yilida islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasidagi asrlarga teng amaliy

ishlar bajarildi. Islom va islomiy qadriyatlar ma'naviy va ma'rifiy hayotning tarkibiy qismiga aylanib qoldi.

Davlat boshlig'ining shaxsiy fazilatlari ko'p jihatdan mamlakatning kelajakdagi taqdirini belgilaydi. Islom Karimov omilkor siyosatchi sifatida, voqealar mohiyatini oldindan anglash va ko'rish imkoniyatiga ega edi, shaxsiy jasorat, kuchli irodasi va har bir vatandoshi uchun maxsus javobgarlik hissi bilan ajralib turar edi.¹⁰⁴

Demokratik hayotning asosiy shartlaridan biri ko'ppartiyaviylik masalasidir. Demokratik jamiyat albatta, ko'ppartiyaviylik tizimini taqozo etadi. Ko'p partiyaviylik, avvalo jamiyatda o'z manfaat va qarashlaridan qat'iy nazar har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning o'z maqsad va intilishlarini to'liq aks ettira olish imkoniyati bilan xarakterlanadi. Har qaysi partiya xalqning ma'lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch sifatida turli manfaat va qarashlarni o'rta qo'yadi. Turkiya Respublikasi tashkil topgandan so'ng, dastlab bir partiyaviylik tizimi barqaror bo'lgan, biroq Respublika asoschisi Mustafa Kamol Otaturk, demokratik tuzum o'rnatish maqsadi tufayli, ko'ppartiyaviylik tizimiga xayrixoh bo'lgan. Partiyalar vatan, millat manfaati kabi mushtarak maqsadlar yo'lida birlashsalar, davlat va jamiyat hayotini xilma-xil fikrlar kurashi soyasida rivojlantiradilar. Bugun demokratiya tuzumidagi ko'pchilik davlatlar shu yo'ldan bormoqda. Turkiya jumhuriyati Mustafa Kamol Otaturk yetakchiligida 1923 yil 29 oktabrda Usmonli imperiyasining siyosiy va boshqaruv an'alaridan umuman farq qiluvchi g'oyalar asosida qurilganligi ma'lum. Usmonli imperiyasining diniy va monarxik boshqaruv tamoyillarini tark etib, o'rniga latsizm va milliy davlatchilikka asoslangan tuzum tashkil etilgan. Biroq, bu inqilobiy o'zgarishlar 1945 yilgacha davom etgan bir partiyaviylik, muxolifatsiz rejimning hukmronligiga yo'l ochdi. Bu davrda ko'ppartiyaviylik tizimi uchun harakatlar bo'lgan bo'lsada, ba'zi siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlar tufayli muvoffaqiyatsizlikka uchradi. Garchi progressiv respublikachilar va liberal respublikachilar partiyalari qonuniy ravishda harakat qilsalar ham Turkiya

¹⁰⁴ <https://themag.uz/uz/post/islom-karimov-birinchi-prezident-qanday-edi-xalq-xotiralari>

Respublikasida Xalq respublikachilari partiyasi (XRP) 1950 yilgacha hokimiyatdagi yagona partiya bo‘lib qoldi.

Bunday bir partiyaviy rejimni demokratik deb hisoblash mumkin emas, chunki:

- a) partiya raisi o‘zgarmas edi;
- b) hokimlar o‘z shaharlaridagi partiya rahbarlari lavozimlarini ham egallashgan;
- v) deputatlikka nomzodlar ro‘yxati saylovchilar tomonidan tasdiqlanmagan, lekin partiya raisi tomonidan tuzilgan;
- d) Konstitutsiyaning qonuniy qo‘llanishini nazorat qilish uchun konstitutsiyaviy sud yo‘q edi;
- e) matbuot erkinligi cheklangan va rasmiylar tomonidan nazorat qilinardi. Shuning uchun ham Maurice Düverger bu davrdagi respublikani asosiy maqsadi demokratiya bo‘lgan «respublikaviy diktatura» sifatida baholagan.

Ko‘p yillik bir partiyali monopoliyadan keyin O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati qonunchilik, ijroiya, sud hokimiyatiga bo‘linishi tamoyili asosida tashkil qilinishi va tuzilishining huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi qonuni 1-moddasida bunday deyilgan: «Siyosiy partiya - qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O‘zbekiston fuqarolarining ko‘ngilli birlashmasidir¹⁰⁵».

Turkiya «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra: «Siyosiy partiyalar, Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq, deputatlik va mahalliy boshqaruv saylovlari yo‘li bilan, nizom va dasturlarida ma‘lum qilingan qarashlari to‘g‘risidagi faoliyatlari va oshkora propagandalari bilan milliy boshqaruvni tashkil etilishini ta‘minlab demokratik davlat va jamiyat tartiboti ichida mamlakatning zamonaviy

¹⁰⁵ <https://lex.uz/docs>

madaniyat saviyasiga yetishish maqsadini ko'zlagan va mamlakat miqyosida faoliyat ko'rsatish uchun tashkil topgan nizomga ega tashkilotdir» .

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida mamlakatda beshta siyosiy partiya mavjud bo'lgan. Bular: Xalq demokratik partiyasi (XDP) 1991 yil 1 noyabrda tashkil etilgan; Adolat sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) 1995 yil 18 fevralda tashkil topgan; Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP) 1995 yil 3 iyunda tashkil topgan; Fidokorlar milliy demokratik partiyasi (FMDP) 1998 yil 28 dekabrda, Liberal demokratik partiyasi esa (LDP) 2003 yil 15 noyabrda tashkil topgan. Bundan tashqari 2019 yil 8 yanvar kuni ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida yangi siyosiy kuch, O'zbekiston Ekologik partiyasi ta'sis etildi. Bu siyosiy tashkilotlarning jamiyatda tutgan o'rni va mehnatkashlar ommasi o'rtasidagi obro'-e'tibori ular ishlab chiqqan va amal qilayotgan dasturlarning nechog'lik xalq ommasi istak va intilishlarini ifoda etganligi va mazkur siyosiy partiyalarning qay darajada hokimiyatga hamda o'zaro bir-birlari bilan muxolifatga aylanganliklariga bog'liqdir.

Xullas, Islom Karimov va Mustafu Kamollarning davlat boshqaruvi hamda siyosiy yo'l boshchiligida o'ziga xos strategik yo'llari mavjud edi. Nima bo'lganda ham ikki rahbar ham o'z xalqi va mamlakatlarining nurli istiqboli uchun tolmas kurashchilar ekanligi tarix sinovidan o'tdi.

3.2. Mustaf o Kamol Otaturk va Islom Abdug'aniyevich Karimov faoliyatidagi umumiy o'xshash jihatlar.

XX asrning mashhur siyosatchilaridan biri bo'lgan Mustaf o Kamol Otaturk va O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovlar turli davrlarda yashab, turli davlatlarda hukmronlik qilgan shaxslar bo'lishiga qaramay, ularning davlat boshqaruvi va ayrim siyosatlarida bir qator o'xshashliklar mavjud. Quyida ular bilan birma-bir tanishib chiqamiz. Avvalo, ularning rahbarlikka kelish davrining o'zida uyg'un, o'xshash jihatlar ko'zga tashlanadi. Ushbu ikki davlat arbobi ham o'zidan oldingi hukmron mafkuradan qolgan xarob davlatni qaytadan tiklay olishgan.

1920-yil 16-mart kuni Turkiyaning Istanbul shahri ingliz qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgach, o'zi shundoq ham xalq orasida obro'si pasayib borayotgan Usmonlilar saltanatining mavqesiga yana bir bor putur yetgan edi. Aynan shu paytda Turkiyada hukmron mafkuraga qarshi ozodlik harakatlari avj ola boshlaydi. Bunday harakatlarning biri Mustaf o Kamol Otaturk boshchilik qilayotgan «Kamolchilar inqilobi» edi. Istanbul ishg'ol etilgach barcha vatanparvar kuchlar uning atrofida to'planadilar va 1920 yil 23aprel sanasida Anqarada yangi parlament Turkiya Buyuk Millat Majlisini tashkil etadilar. Shundan so'ng sekin-asta hukmron mafkuraga qarshi kurash avj oladi va nihoyat 1922 yil 1 noyabr kuni Usmonli turk sultonligi va uning mafkuralari o'z poyoniga yetadi.¹⁰⁶

1922 yilda tashkil etilgan SSSR davlati XX asrning boshlariga kelib tanazzul yoqasiga kelib qolgan edi. Davlatning mustamlakalariga nisbatan olib borgan mavfukaviy tazyiqlari va milliy ozodlik harakatlarining qonga botirilishi natijasida SSSR tarkibidagi davlatlar mustaqillikka intila boshlaydilar. Bular orasida peshqadamlardan biri bo'lgan O'zbekiston SSR rahbari Islom Karimov bo'lib, u SSSR parchalanishidan ancha oldin, «Biz bundan buyon eskicha yashay olmaymiz»¹⁰⁷ deb, Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib SSSR dan

¹⁰⁶ Edward J Erickson- Mustafa Kemal Ataturk.-L.:Ospey Publishing, 2013.-P.57.

¹⁰⁷ Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.:O'zbekiston,2011.-B.13.

ajralib chiqqandi. Biroq respublika ichki hayotining ayrim o‘rinlarida sobiq hukumron mafkuraning ildizlari hanuz saqlanardi. Bu esa vaqt-vaqti bilan ichki siyosatda turli muammo va to‘qnashuvlarga sabab bo‘lib, prezident faoliyatiga nisbatan noto‘g‘ri munosabatlar paydo bo‘la boshlagandi. Mohir siyosatchi Islom Karimov sekin-asta bunday muammolarni bartaraf etib, yangicha siyosat yurita boshlaydi.

Adolatli va uzoqni oldindan ko‘ra biluvchi davlat rahbari o‘z mamlakatini rivojlantirish maqsadida har tomonlama puxta o‘ylab chiqilgan dastur asosida boshqarishi barchaga ma’lum. Shuni inobatga olgan holda Turkiyada Mustafo Kamol va O‘zbekistonda Islom Karimov davlat rahbarligiga kelishlari bilanoq o‘z davlatlarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqdilar. Mustafo Kamol davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, 1931 yilda «Olti o‘qli dastur» tamoyillarini ishlab chiqqan. «Olti o‘qli dastur» qanotlarining dastlabki to‘rttasi 1927 yilda yaratilgan bo‘lib, 1931-yili yana ikkita qanot unga qo‘shilib «Olti o‘q» (Altı Ok) nomi bilan shakllangandi. 1937 yilda qabul qilingan Turkiya Respublikasining yangi Konstitutsiyasiga ushbu «Olti o‘q» loyihayasi kiritiladi¹⁰⁸. Dastur o‘z tarkibiga respublikachilik, millatparvarlik, xalqparvarlik, dunyoviylik, davlatchilik, inqilobchilik kabilarni qamrab olgan. Quyida ular haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan.

1. Respublikachilik. Usmoniylar mutlaq monarxiyasining muqobilidagi konstitutsion-demokratik respublika yaratish g‘oyasi. Oliy hokimiyat (Turkiya prezidenti va Turkiya Buyuk Millat Majlisi)ni saylash va uning xalqqa bo‘ysunishi tamoyili.

2. Dunyoviylik. Dunyoviy davlat tuzish va islomdan davlatni ajratish. Mustafo Kamolning ilk reformalaridan biri shariat qonunlarining bekor qilinishi edi. Keyinchalik diniy ta’limga ta’qiq joriy etildi va barcha maktablar maxsus vazirlikka bo‘ysundi. Zamonaviy Turkiyada bu tartib islomiy partiyalarni ta’qiq qilinishida ham namoyon bo‘ladi.

¹⁰⁸ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.: -Молодая гвардия; 2004.– С.216.

3. Davlatchilik. Davlatning yetakchilik roli orqali aralash iqtisodiyotni yaratish. Amalda bu kichik xususiy sektorni saqlab qolish bilan iqtisodiyotni milliy lashtirishga olib keldi.

4. Millatparvarlik. Milliy xalqqa sodiqlik ruhi ostida ta'lim berib, vatanparvarlardan tashkil topgan milliy davlat yaratish g'oyasi. Etnik va fuqarolikni tasdiqlash hamda milliylikka hurmat bilan qarashga qaratilgan.

5. Xalqparvarlik. Sinfy tengsizlik va imtiyozlarga qarshi kurash. Bu tamoyil millatparvarlik tamoyili bilan bog'liq bo'lib turk jamiyatining birligini va uning ichidagi birdamlikni, shuningdek, xalqning suverenitetini va Turkiya Buyuk Millat Majlisi (TBMM) xalqning irodasi ekanligini ifodalaydi.

6. Inqilobchilik. An'anaviy jamiyatning qoldiqlariga qarshi kurashishda taraqqiyot va ma'rifatga tayanish va g'arblashtirish. G'arblashuv siyosatining yorqin misollarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin: turk tilini lotin tiliga tarjima qilishning boshlanishida, ayollarga ham ovoz berish huquqining berilishida va boshqa bir qator shunga o'xshash islohotlarda o'z ifodasini topgan. Ammo Mustaf o Kamolning vafotidan so'ng u ilgari surgan «Olti o'q» dasturi ham o'z ahamiyatini yo'qotgan.¹⁰⁹

O'zbekiston esa 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng hukumat rahbari umri tugab borayotgan mustabid, ma'muriy –buyruqbozlik, rejali taqsimot tizimidan voz kechib, — «O'zbek modeli» deb nom olgan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi¹¹⁰. «O'zbek modeli» tushunchasi, avvalo O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov 1993 yili «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarini omma e'tiboriga taqdim etib, unda davlatni rivojlantirishning iqtisodning

¹⁰⁹ Жевахов А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей М.:-Молодая гвардия; 2004.– С.230.

¹¹⁰ Usmonov Q. O'zbekiston tarixi(milliy istiqlol davri).-T.:O'qituvchi, 2010.-B.45.

siyosatdan ustunligi, davlat bosh islohotchi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish kabi tamoyillardan tashkil topgan «O'zbek modeli» ni e'lon qiladi¹¹¹. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning —»O'zbek modeli» deb qabul qilindi. Taraqqiyotning «O'zbek modeli» quyidagi besh tamoyilga asoslandi;

1. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ya'ni iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lishi kerak. Shuningdek, ichki, tashqi va iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta'minlashi zarur.

2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat asosiy islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi shart.

3. Qonun ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat'iy rioya etish lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni barcha hech istisnosiz hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

4. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish kerak.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotining obektiv qonunlarini e'tiborga olib, yaqin o'tmishdagi inqilobiy sakrashlarsiz, ya'ni evolyusion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, mazkur bosqichda —Erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir deb, aytgan edi.

Mustafo Kamoldan farqli o'laroq Islom Karimov vafotidan so'ng respublika rahbarligiga kelgan Shavkat Mirziyoyev o'zidan oldingi hukumat boshlig'i siyosatini davom ettiradi. Bu xususda uning o'zi: «Bizning yana bir eng muhim ustuvor vazifamiz- Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «o'zbek modeli»ning asosi bo'lmish besh tamoyilni amalga oshirish asosida

¹¹¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr / I.Karimov. – T.: O'zbekiston, 2010. – B.3.

iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va uning raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat¹¹²» deb aytgan.

Turkiya ham, O'zbekiston ham mustaqil respublika sifatida shakllangach, albatta, ularning asosiy qonuni ya'ni Konstitutsiyasi ham bo'lishi va u o'z davrining talablariga to'laqonli javob berishi kerak edi. Bu ikki davlat arbobining bu boradagi qarashlari yana o'xshash nuqtalarda birlashadi. Turkiyada allaqachon eskirgan hisoblanuvchi, 1921 yil 20 yanvarda Turkiya Buyuk Millat Majlisi (TBMM) tomonidan qabul qilingan asosiy qonun amalda edi. Yangi konstitutsiyani yaratish jarayoniga Mustafo Kamolning shaxsan o'zi bosh-qosh bo'lgan. 1924 yil 20 aprelda Yevropa standartlariga mos keladigan, 1961 yilgacha 36 yil muddatda amalda bo'lgan yangi konstitutsiya yaratildi. Bu vaqt ichida u Turkiyani zamonaviy, dunyoviy va demokratik respublikaga aylantirgan ko'plab tub o'zgarishlarga asos bo'ldi. Qabul qilingan Konstitutsiya olti bo'lim va 105 moddani o'z ichiga qamrab olgan edi¹¹³ va nihoyat Turkiya Respublikasida dunyoviy jamiyat yaratildi.

Tarixan qisqa davrda O'zbekiston Respublikasida ham davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ta'riflangan asosiy qonun - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqilib, qabul qilindi. Islom Karimov uni ishlashda bevosita qatnashib, O'zbekiston Respublikasi asosiy qonuni ustida ishlashda konstitutsiyaviy tajribasidan foydalanish uchun AQSh, GFR, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya, Hindiston, Pokiston, Misr kabi mamlakatlarning konstitutsiyalarini batafsil o'rganib chiqdi. Uch oy mobaynida Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasidan o'tib, uning doirasida 6 mingdan ziyod taklif kiritildi va komissiya tomonidan ko'rib chiqildi.

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Oliy Kengashi olti bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo'lgan ushbu tarixiy hujjatni qabul qildi¹¹⁴. Yangi Konstitutsiya fuqarolarni va davlatni huquq va majburiyatlar orqali o'zaro bog'lab turadi. Shu

¹¹² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2018. – B.13.

¹¹³ <http://www.anayasa.gov.tr/index.php?l=template&id=20&lang=0>

¹¹⁴ <https://www.lex.uz/ru/docs/-20596?otherlang=1>

ma'noda hujjat Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha prinsipial qoidalarini, ya'ni hayot, shaxs va inson erkinligining daxlsizligi qoidasini o'zida mujassam etgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, yangi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish jarayonida BMT fundamental hujjatlarining qoidalariga va xalqaro huquq prinsiplariga qat'iy amal qilindi. Hattoki, Yevropa mamlakatlari va AQShning eng talabchan ekspertlari, shuningdek, BMT va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashining ko'p sonli ekspertlari Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan Qonunni diqqat bilan tahlil qilib, u umumqabul qilingan demokratik normalarga muvofiqligini e'tirof etdilar. Shu boisdan ham Islom Abdug'aniyevich Karimov «Konstitutsiya — bizning buyuk yutug'imiz» deb ta'kidlashiga to'la haqli edi.

Mustafo Kamol Otaturk ham Islom Abdug'aniyevich Karimov ham davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay kelajak avlod uchun ma'naviy meros qoldirishga ham muvaffaq bo'lishgan shaxslardir. Mustafo Kamol Otaturkdan bugungi avlodga 1917 yilda «Yosh turklar» hukumatini boshqargan (1913-1918 yy) Anvar, Tal'at, Jamol posholarga yuborgan «Bayonnoma» si, harbiy soha haqidagi beshta risola, 1919-1924 yillarda yozilgan «Nutq» asari hamda ayrim qo'lyozmalari ma'naviy meros bo'lib qoldi¹¹⁵.

Islom Abdug'aniyevich Karimov quyidagi to'plamlarda e'lon qilingan ko'plab asarlarning muallifi hisoblanadi: «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li»(1992), «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay»(1993), «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li»(1993), «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin»(1994), «Istiqloq va ma'naviyat»(1994), «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir»(1995), «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari»(1997), «Barkamol avlod orzusi»(1998), «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari»(1998), «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»(1998), «O'zbekiston qalbimizda, yuragimizda»(1999), «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz»(2000), «Tinchlik uchun kurashmoq kerak»(2001), «O'zbekistonda demokratik

¹¹⁵ Хайитов Ш.А.,Рахмонов К.Ж.,Хайитов Ж.Ш. Амир Темур сиймоси бархаёт.Бухоро :2015,- Б. 34.

o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002), «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Bunyodkorlik yo'lidan», «Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi», «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz», «Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida», «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakat taraqqiyotining asosiy mezonidir», «Mamlakatni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida» va boshqa asarlarning muallifi sanalib, asarlari ingliz, arab, ispan, xitoy, koreys, nemis, rus, turk, fransuz, hind va boshqa tillarga tarjima qilingan. Birinchi prezident asar va tarixiy nutqlari 24 tomga mujassam bo'lgan.

Kelajak bunyodkorlari, ertangi kun egalari hisoblanmish yosh avlodning har tomonlama shakllanishida maktabning ahamiyati beqiyos. Maktab taraqqiyotning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning kalitidir. Qadim-qadimdan ota-bobolar ta'lim-tarbiya jarayonini, ilm-u ma'rifatni shaxs kamolotining sababchisi sifatida baholashgan, ta'lim-tarbiyaga jamiyat va millat hayotini rivojlantiruvchi, sivilizatsiyaning eng yuksak pog'onasiga olib chiquvchi xazina sifatida qarashgan va uni imkon qadar boyitishga harakat qilishgan. Negaki, ta'lim-tarbiya, avvalo, inson, uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va tafakkurini o'zida aks ettiradigan bir ko'zgu hisoblanadi va shaxsning o'zligini anglashiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradigan, yurt ravnaqi, el-u yurt koriga yaraydigan komil inson sifatida shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim – tarbiya tizimi bir – birini bevosita to'ldirib, quvvatlab turadigan, o'zaro bog'liq holda rivojlanib boradigan jarayondir.

Turkiyada respublikaga asos solingach, Mustafo Kamol yagona ta'lim tizimini yaratib, barcha ilmiy va o'quv muassasalarini Ta'lim vazirligiga topshirish bo'yicha qaror qabul qildi. Ushbu buyruqlar Turkiyada joylashgan xorijiy o'quv yurtlari va milliy kam sonli aholi maktablariga nisbatan qo'llaniladi. 1924 yil 3 mart sanasida barcha ta'lim organlarini yagona rahbarlik ostida

birlashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Turk tilshunosligi va turk tarixiy jamiyatlari tashkil topdi. 1928 yil 1 noyabrda Mustafo Kamol yangi turk alifbosini joriy qildi va arab yozuvidan foydalanishni bekor qildi. O'sha paytda mamlakatning savodli fuqarolari aholining 10 foizini tashkil etar edi. Mamlakatning yangi alifboga moslashuvi juda tez sodir bo'ldi va Turkiyada savodxonlik ikki yil ichida 10 foizdan 70 foizgacha ko'tarildi.

1928 yil 1 yanvarda u Turk Ta'lim Uyushmasini tashkil qildi. Uyushma moliyaviy ehtiyojga ega, aqlli va mehnatsevar bolalarni qo'llab-quvvatladi, bu esa ta'lim sifatini yaxshilab, uning rivojiga moddiy va ilmiy hissa qo'shdi.

Mustafo Kamol boshlang'ich ta'lim bosqichida zamonaviy o'qitish usullarini targ'ib qilgan. Dewey o'zining «Turk ta'lim tizimiga oid hisobot va tavsiyalarida» zamonaviylikka intilayotgan jamiyatlarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan paradigmatic tavsiyalar to'plamini taqdim yetgan. U mamlakatda mahorat bazasini shakllantirish maqsadida kattalar ta'limi bilan qiziqdi. Turk ayollarga nafaqat bolalarni parvarish qilish, kiyim tikish va uy xo'jaligini boshqarish, balki uy tashqarisidagi iqtisodiyotga qo'shilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar ham o'rgatildi.

Turk ta'limi davlat tomonidan boshqariladigan tizimga aylandi, bu tizim mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun mahorat bazasini yaratishga qaratilgan edi. Uning «yagona» ta'lim dasturi mas'uliyatli fuqarolar bilan bir qatorda jamiyatning foydali va qadrli a'zolarini ham o'qitishga mo'ljallangan edi¹¹⁶. Turk ta'limi qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan integrativ tizimga aylandi va gender tengligini o'rnatish uchun ayollarning ta'limi ishlatildi.

Mustafo Kamol ushbu davrda zamonaviy ta'limni targ'ib qilishga ommaviy axborot vositalarining e'tiborini qaratdi. U ta'lim sifati, o'qitish masalalari va ba'zi asosiy ta'lim tamoyillari to'g'risidagi «Ilmiy kengashlar» va «Ta'lim sammitlari» deb nomlangan rasmiy ta'lim uchrashuvlarini o'tkaza boshladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa sohalar qatori ta'lim

¹¹⁶ Wolf-Gazo. John Dewey. The Middle Works of John Dewey, 1899-1924: Journal Articles, Essays, and Miscellany.– SIU Press, 2008.– P.15.

tizimini ham qaytadan isloh qilish va rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Ta’lim sohasini rivojlantirish uchun qisqa bir davrda zarur huquqiy, ilmiy-uslubiy va moliyaviy sharoitlar yaratildi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan, ayniqsa, maktab ta’limiga alohida e’tibor qaratildi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning ta’lim haqidagi quyidagi fikrlari e’tiborga molik: «...xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi¹¹⁷». O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining bepul ta’lim olishi haqidagi qonunning bosh qomusimiz hisoblanmish Konstitutsiyamizning 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» deb qat’iy belgilab qo‘yilishi ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar uchun tashlangan dastlabki yirik qadam bo‘ldi. O‘quvchi yoshlarga ta’lim–tarbiya beradigan maktab muassasalari faoliyatini davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishining o‘zi ham bu tizimda amalga oshirilgan dastlabki islohotlarning biri edi. I.Karimov ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha maxsus istiqbolli dastur tayyorlash va uni amaliyotga tatbiq etish to‘g‘risida ko‘p bora ta’kidlagan edi. Ana shu tashabbuslarning yorqin ifodasi sifatida 1997 yil 29 avgust sanasida O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlari qabul qilindi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi tizimdagi ulkan amaliy qadamlardan biri bo‘ldi. «Ushbu qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb – hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilga¹¹⁸». «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun

¹¹⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият–енгилмас куч.–Т.:—Маънавият, 2008.–Б.38-39.

¹¹⁸ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.- Т.:O‘zbekiston, 2015.–Б.264.

va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni bajarish asnosida, maktablarning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamon talablariga javob beradigan o‘quv binolar, o‘quv va laboratoriya jihozlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minlash masalasi bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishidan asosiy maqsad mustaqil O‘zbekistonning jahon standartlariga mos keladigan, ilmiy taraqqiyotini ta’minlovchi, mustaqil fikrlay oladigan, yuqori malakali va bilimli, shu bilan birga ezgu insoniy sifatlarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashdan iborat edi. Dastur Islom Karimov tomonidan ijtimoiy ongga kiritilgan, davlatni, jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan tamomila yangi tushunchadir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi sifatida 2004 – 2010 – yillarda amalga oshirishga mo‘ljallangan «Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi» qabul qilindi. Ushbu dasturdan asosiy maqsad faoliyat yuritayotgan o‘n mingga yaqin umumta’lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shu bilan birga ta’lim jarayonini tubdan takomillashtirish, o‘qituvchilar mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishdan iborat edi. Yurtimizda ta’lim tizimini yuksaltirishda birinchi Prezident boshchiligida qator ishlar olib borildi. Statistik ma’lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, 2004-2010-yillar oralig‘ida yurtimizda I.Karimov tashabbusi bilan 7800 dan ortiq yangi maktablar qurildi, ta’mirlandi va rekonstruksiya qilindi, ularning umumiy soni 9860 taga etdi. 8 mingdan ortiq ta’lim muassasasi kapital ta’mirlandi, gaz va suv bilan ta’minlandi, markazlashgan kanalizatsiya tarmoqlariga ulandi. Bu ko‘rsatkichlarni o‘rta-maxsus ta’lim tizimida kuzatadigan bo‘lsak, 1998-2010-yillar oralig‘ida yurtimizda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari soni 1539 taga yetdi. «2014 yil holatiga nazar soladigan bo‘lsak, joriy yilda hammasi bo‘lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb – hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so‘m sarflangan bo‘lib, shundan 120 milliard so‘mdan ortig‘i ta’lim muassasalarini o‘quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta’minlash uchun ajratildi. 2011 – 2016 – yillarda oliy ta’lim

muassasalarining moddiy–texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta’lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mir va jihozlash bo’yicha qiymati 230 milliard so‘mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik– texnologiya instituti, O‘zbekiston Milliy universitetida yangi o‘quv binolari barpo etildi¹¹⁹». Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, Turkiya va O‘zbekiston Respublikalarining ilk prezidentlari puxta o‘ylab chiqilgan o‘z tamoyiliga asoslangan holda, yoshlar ertangi kunning munosib vorislari bo‘lishi uchun astoydil harakat qilishdi.

Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov xalq bilan bo‘lgan ochiq muloqotlarda ham, rasmiy nutqlarida ham «tinchlik, osoyishtalik» so‘zini ko‘p qo‘llashgan. Bunday so‘zlar hamma vaqt ham har qanday davlat rahbarining nutqida uchraydigan so‘zlar emas. Mustafo Kamol o‘z nutqini «Mamlakatda tinchlik va dunyoda tinchlik!» degan shior bilan yakunlasa, Islom Karimov «Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lsin!» deb xulosa yasardi har bir nutqida. Mustafo Kamol va Islom Karimov o‘z Vatanlari, xalqlarini sevar edilar. Odamlar ularning siymosida o‘zlarining hayoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan ota timsolini ko‘rishdi. Ushbu o‘zaro samimiy ehtirom bugun ham davom etmoqda.

¹¹⁹Karimov I.A.. Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir.–T.:O‘qituvchi,2015.–B.108.

3-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Buyuk shaxs, eng avvalo, milliy qadriyatlarni qadrlay oladi, hurmat qila biladi va ayni paytda, o'ziga nisbatan hurmatni ham talab qiladi¹²⁰. Aniq xulosaga ega bo'lmagan inson ijtimoiy hayotda aniq o'ringa ega bo'lolmaydi. Bunday odamlar uchun ijtimoiy mohiyatga ega bo'lish, ijtimoiy qadriyatga aylanish haqida gapirish o'rinsiz. Voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirsa olmaydigan, boshqalar fikri bilan yashaydigan, vaziyatga qarab ish tutadigan, o'ta yumshoq va noshud inson shaxs bo'lib yetisha olmaydi.

Ikki davlat arboblari Mustafo Kamol Otaturk hamda Islom Abdug'aniyevich Karimovni biz bejizga «Ikki buyuk shaxs» sifatida baholamadik. Yangi milliy mafkura, yangi kuchli davlat, yangi davlat boshqaruv siyosati, yangi boshqaruv rejimi, yangicha tashqi va ichki hayot borasida islohotlar olib borish, bular barcha davlat rahbarlarining ham qo'lidan kelavermaydigan mushkul vazifa sanaladi.

Aynan mana shunaqa mushkul ishning uddasidan a'lo darajada chiqa olgan Mustafo Kamol va Islom Karimov tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgani bejiz emas. Ular o'z oldlariga qo'ygan ulug' maqsad tomon olg'a intildilar, bu yo'lda duch kelgan to'siqlarini yengib o'tdilar. Ular bosib o'tgan yo'lda, yengib o'tgan to'siqlarda bir-biriga o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan vaziyat va holatlar sodir bo'lganligini esa yuqorida imkon qadar tahlil etdik.

¹²⁰ <http://istiqlol.samdu.uz/uzl/article/176#fnt1>

XULOSA

O‘zbekiston va Turkiya munosabatlari yangi bosqichga chiqib borayotgani, ushbu davlatlarning birinchi prezidentlari Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov faoliyatlarini bitta tadqiqot ishiga sig‘dirish mushkul. Hozirgi dissertatsiyada o‘rganilgan jihatlar yuksak marralarning debochasi xolos. Magistrlik dissertatsiyasida quyidagi yakunlov xulosalariga kelindi.

1. Yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashash va bu yo‘lda fidoiylik ko‘rsatish, darhaqiqat sharaflı vazifadir. Zero, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot xususiyatlarini tahlil etarkanmiz, xalq fidoyiligi va vatanparvarligi, taraqqiyotning asosiy omillaridan bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Shunday ekan, tadqiqotchi olimlar zimmasiga ham mazkur muqaddas ma’suliyat yuklanadi. Tarixchilar nafaqat mamlakatning boy tarixini, balki xorijiy Sharq va G‘arb mamlakatlarning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari va tarixiy tajribalarini tadqiq etish orqali mamlakat rivoji uchun muhim hissa qo‘shishlari lozimdir.

2. Bugun har bir turk talabasi Mustafu Kamol Otaturk ismini mubolag‘asiz biladi. Unga ham, yosh avlodga ham hurmat ko‘rsatiladi. Aynan mana shu inson va siyosatchi, 15 yillik prezidentlik davrida kuchli, rivojlangan va zamonaviy Turkiyani yaratishga muvaffaq bo‘ldi - biz buni bugun bilamiz. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning Turkiya Respublikasi asoschisi Mustafu Kamol Otaturk haqida bildirib o‘tgan fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: «Nafaqat qardosh turk xalqining, balki barcha turkiy xalqlarning buyuk farzandi va iftixori bo‘lmish Mustafu Kamol Otaturk dunyoda mashhur siyosiy arboblardan biridir.¹²¹»

3. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov haqida «Bizning xalqimiz va xalqaro hamjamiyat Islom Karimov nomini Jorj Vashington, Sharll de Goll, Mustafu Kamol Otaturk kabi taniqli davlat va siyosat arboblari qatoriga qo‘yadi», - deb aytgandi. Shavkat Mirziyoyev I.A. Karimovni dunyoning eng taniqli siyosiy yo‘lboshchilari qatoriga qo‘shar ekan, ushbu insonning davlat va xalq oldidagi xizmatlarini munosib baholagandi.

¹²¹ Абдурахмон Зоҳидий.Мустафо камол Отатурк//Фан ва турмуш,2001.-№1.-Б.26-28.

4. Muxtasar qilib aytganda, Islom Karimov O‘zbekiston davlati va davlatchiligini barpo qilish, demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi, mamlakat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqdi, yurtning yorug‘ istiqboli yo‘lida ko‘p millatli xalqni birlashtirib, uni ulug‘ maqsadlar sari yetakladi.

5. Biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizda o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriytlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvida erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang–barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Shu nuqtai nazardan jahon tamaddunining bir qismi bo‘lgan Turkiya va O‘zbekistonning kechagi va bugungi siyosiy va ijtimoiy manzarasini tahlil etish muhimdir.

Yuqoridagi yakuniy xulosalardan kelib chiqib quyidagicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi

- Mustafu Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov siyosiy portretlari qiyosiy tahliliga bag‘ishlab yirik monografik tadqiqot yaratish lozim;

- XX asrning buyuk shaxslari orasida bu ikki davlat arbobining o‘rni va rolini ko‘rsatishga qaratilgan videofilmlar, hujjatli filmlar yaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi;

- Mustafu Kamolning ma‘naviy merosi hisoblangan «Nutq», «Bayonnoma» va maktubiy yozishmalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish yoshlarda jur‘at va jasoratni, vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lardi;

- Mustafu Kamol va Islom Karimov g‘oya va qarashlariga oid aforizmga aylangan fikrlarni jamlagan ma‘lumotlarni to‘plab internet saytida joylashtirish ham muhim deb hisoblaymiz.

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Madaniy Meros fakulteti, Jahon tarixi kafedrası II bosqich magistranti Abdullayeva Saodat Nurillo qizining "Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov portretiga chizgilar" mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasiga

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi istiqloli yillarida jahon tarixida kechgan siyosiy va davlat arboblarning hayoti va faoliyatlariga xolisona baho berish tarixiy haqiqatni anglash asoslaridan biri bo‘lib qoldi. Dunyo tarixida qadimgi zamonlardan hozirga qadar ming-minglab tarixiy siymolar o‘tgan. Ular orasida ijobiy iz qoldirganlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi. XX-XXI asr tarixiy siymolari va siyosiy yo‘lboshchilari orasida Mustafo Kamol Otaturk hamda Islom Abdug‘aniyevich Karimovning nomlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Turkiy xalqlarning vakili bo‘lgan, Sharq dunyosining farzandlari Mustafo Kamol va Islom Karimov hayot yo‘llari, siyosiy faoliyatlarida o‘ziga xos jihatlar bilan birga mushtarakliklar ham mavjud. Ushbu masalalarni qiyosiy tahlil qilish maqsadini ko‘zlagan S.Abdullayevaning taqdim etilgan magistrlik dissertatsiyasi dolzarb va davrtalabdir.

Mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalar kabi qismlardan iborat. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzu dolzarbligi, predmeti, obekti, maqsad va vazifalari, ilmiy-nazariy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, ishning tuzilmasi va hajmi kabilar Magistratura nizomi asosida yozilgan.

Ishning birinchi bobi Mustafo Kamol Otaturk hayoti va siyosiy portretiga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bobi Islom Karimov hayotidagi eng muhim nuqtalarga yo‘naltirilgan. Dissertatsiyaning uchinchi bobida ikki tarixiy siymoning faoliyati hamda siyosiy-strategik yo‘lidagi uyg‘unlik va farqli jihatlar manbalar tahlili orqali ochib berilgan.

S.Abdullayeva dissertatsiya matnini yozishda ko‘p miqdordagi turk va ingliz tilidagi adabiyotlardan foydalangan. Har bir bobdan so‘ng tadqiqotchi shaxsiy

xulosalarini bayon etgan. Tadqiqot xulosalangan, uning so‘nggida yakuniy xulosalar va ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalar ilmiy asoslantirilgan. Dissertatsiyada foydalanilgan manba va adabiyotlar, internet ma’lumotlari ishning mazmuniga mos keladi.

S.N.Abdullayevaning "Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov portretiga chizgilar" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi yakunlangan, magistrlik dissertatsiyasi to‘g‘risidagi nizom talablariga javob beradi. Ushbu dissertatsiya ishini rasmiy himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

**Hayitov Shodmon Ahmadovich,
BuxDU Jahon tarixi kafedrası professori,
tarix fanlari doktori**

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Madaniy Meros fakulteti, Jahon tarixi kafedrası II bosqich magistranti Abdullayeva Saodat Nurillo qizining "Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov portretiga chizgilar" mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasiga

Taqriz

XX-XXI asr tarixiy siymolari va siyosiy yo‘lboshchilari orasida Mustafo Kamol Otaturk hamda Islom Abdug‘aniyevich Karimovning nomlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Turkiy xalqlarning vakili bo‘lgan, Sharq dunyosining farzandlari Mustafo Kamol va Islom Karimov hayot yo‘llari, siyosiy faoliyatlarida o‘ziga xos jihatlar bilan birga mushtarakliklar ham mavjud. Ushbu masalalarni qiyosiy tahlil qilish maqsadini ko‘zlagan S.Abdullayevaning taqdim etilgan magistrlik dissertatsiyasi dolzarb va davrtalabdir.

Mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalar kabi qismlardan iborat. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzu dolzarbligi, predmeti, obekti, maqsad va vazifalari, ilmiy-nazariy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, ishning tuzilmasi va hajmi kabilar Magistratura nizomi asosida yozilgan.

Ishning birinchi bobi Mustafo Kamol Otaturk hayoti va siyosiy portretiga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bobi Islom Karimov hayotidagi eng muhim nuqtalarga yo‘naltirilgan. Dissertatsiyaning uchinchi bobida ikki tarixiy siymoning faoliyati hamda siyosiy-strategik yo‘lidagi uyg‘unlik va farqli jihatlar manbalar tahlili orqali ochib berilgan.

S.Abdullayeva dissertatsiya matnini yozishda ko‘p miqdordagi turk va ingliz tilidagi adabiyotlardan foydalangan. Har bir bobdan so‘ng tadqiqotchi shaxsiy xulosalarini bayon etgan. Tadqiqot xulosalangan, uning so‘nggida yakuniy xulosalar va ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalar ilmiy asoslantirilgan. Dissertatsiyada foydalanilgan manba va adabiyotlar, internet ma‘lumotlari ishning mazmuniga mos keladi.

S.N.Abdullayevaning "Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimov portretiga chizgilar" mavzusidagi dissertatsiyasi magistrlik akademik darajasini olishga va ijobiy baholanishga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi:

**Rashidov Oybek Rasulovich,
t.f.f.d, dotsent**

**Buxoro Davlat Unversiteti Tarix va Madaniy Meros fakulteti, Jahon tarixi
kafedrası II bosqich magistranti Abdullayeva Saodat Nurillo qizining
"Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdug‘aniyevich Karimov portretiga
chizgilar" mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiyasiga**

Taqriz

Dunyo tarixida qadimgi zamonlardan hozirga qadar ming-minglab tarixiy siymolar o‘tgan. Ular orasida ijobiy iz qoldirganlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi. XX-XXI asr tarixiy siymolari va siyosiy yo‘lboshchilari orasida Mustafo Kamol Otaturk hamda Islom Abdug‘aniyevich Karimovning nomlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Turkiy xalqlarning vakili bo‘lgan, Sharq dunyosining farzandlari Mustafo Kamol va Islom Karimov hayot yo‘llari, siyosiy faoliyatlarida o‘ziga xos jihatlar bilan birga mushtarakliklar ham mavjud. Ushbu masalalarni qiyosiy tahlil qilish maqsadini ko‘zlagan S.Abdullayevaning taqdim etilgan magistrlik dissertatsiyasi dolzarb va davrtalabdir.

Mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalar kabi qismlardan iborat. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzu dolzarbligi, predmeti, obekti, maqsad va vazifalari, ilmiy-nazariy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, ishning tuzilmasi va hajmi kabilar Magistratura nizomi asosida yozilgan.

Ishning birinchi bobi Mustafo Kamol Otaturk hayoti va siyosiy portretiga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bobi Islom Karimov hayotidagi eng muhim nuqtalarga yo‘naltirilgan. Dissertatsiyaning uchinchi bobida ikki tarixiy siymoning faoliyati hamda siyosiy-strategik yo‘lidagi uyg‘unlik va farqli jihatlar manbalar tahlili orqali ochib berilgan.

Tadqiqot xulosalangan, uning so‘nggida yakuniy xulosalar va ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalar ilmiy asoslantirilgan. Dissertatsiyada foydalanilgan manba va adabiyotlar, internet ma’lumotlari ishning mazmuniga mos keladi.

S.N.Abdullayevaning "Mustafo Kamol Otaturk va Islom Abdugʻaniyevich Karimov portretiga chizgilar" mavzusidagi dissertatsiyasi magistrlik akademik darajasini olishga va ijobiy baholanishga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi:

**D.M.Jamolova,
BuxDU t.f.f.d.,PhD**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

I. Rahbariy adabiyotlar

- 1.1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.– Toshkent.:O‘zbekiston, 2018. 592 b.
- 1.2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz..– Toshkent.:O‘zbekiston, 2017.488 b.
- 1.3.Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1996.358 b.
- 1.4. Karimov I.A.Inson,uning huquq va erkinliklari -oliy qadriyat.T.1. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2006.280 b.
- 1.5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1997.326 b.
- 1.6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2000.48 b.
- 1.7. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: —Ma’naviyat, 2008.108 b.
- 1.8.Karimov I.A «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir».-Toshkent:O‘zbekiston, 2015.304 b.

II.Adabiyotlar

- 2.1. Абдурахмон Зоҳидий. Мустафо Камол Отатурк//Фан ва турмуш,2001.- №1.-Б.26-28.
- 2.2. Бўриев О. Ўзбекистоннинг биринчи президенти Ислон Каримовнинг тарихий мероси. –Т.:Ўзбекистон, 2010.
- 2.3. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. - Т.: Шарқ, 2000. -Б.42.
- 2.4. Левитин Л. Ислон Каримов – янги Ўзбекистон президенти. –Т.: Ўзбекистон, 1996.

- 2.5. Мишин Н.Л. Ислом Каримов - Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти. –Т.:Ўзбекистон, 1997
- 2.6. Насруллоҳ Тўра.Мустафо Камол Отатуркнинг Амир Темур хақида ёзганлари//Миллатнинг дардига дармон бўлиб... Навоий-2008.
- 2.7. Эргашев Ф. Янги Туркиянинг отаси //Жаҳон адабиёти,1998,-№8.
- 2.8. Ҳайитов Ш.А,Рахмонов К.Ж,Ҳайитов Ж.Ш Амир Темур сиймоси барҳаёт Бухоро 2015.
- 2.9. Али Фуат Себесой, мой одноклассник Ататюрк - Воспоминания школьных и молодых офицеров, Основные публикации, Стамбул, 2000, с.25.
- 2.10.Алиев, Г.З. Турция в период правления младотурок. — М.: Наука, 1972. — 388 с.
- 2.11.Ататюрк К. Избранные речи и выступления. М.: Прогресс, 1966.- 439 с.
- 2.12.Барсегов, Ю.Г. Геноцид Армян. Ответственность Турции и обязательства мирового сообщества, том 2, часть 2, Вопрос о создании международного уголовного суда в рамках Парижской мирной конференции. Комиссия пятнадцати
- 2.13.Жевахов, А. Ататюрк. Жизнь замечательных людей.-М.:Молодая гвардия, 2004.
- 2.14.Большая российская энциклопедия.- М.:2005.- 438 с.
- 2.15.Джон Киган. Первая мировая война. — М.: АСТ, 2004. — 576 с.
- 2.16.Заёнчковский А.М. Первая мировая война; СПб.: Полигон, 2002
- 2.17.Киреев.Н.Г.История Турции XX век-Москва:УВРАН,2007.
- 2.18.Леонид Левитин Узбекистан на историческом повороте
- 2.19.Масловский С. Итало-турецкая война . — М.:Terra Fantastica, 2003. — 542 с.
- 2.20.Мировая война в цифрах. — М.: Воениздат, 1934. — 128 с.
- 2.21.Орлов Д.И. Идеи, лидеры, действия.— Букинистическое издание.— 2006.- 319 с.
- 2.22.Первая мировая война на море — Мн.: Харвест; М.: АСТ, 2001

- 2.23. Розалиев Ю.Н. Мустафа Кемаль Ататюрк. Очерк жизни и деятельности М.: Восточная литература, 1995. — 56 с.
- 2.24. Словения, Хорватия, Сербия, Черногория, Босния и Герцеговина, Македония, Албания // Атлас мира / М.:—ПКО «Картография»; 2010. — С. 70.
- 2.25. Ушаков А. Феномен Ататюрка. Турецкий правитель, творец и диктатор. — М.: Центрполиграф, 2002.
- 2.26. Erickson, Edward J. Ordered to Die A History of the Ottoman Army in the First World War. — Greenwood Press, 2001. — P. 202.
- 2.27. Jacob M. Landau Atatürk and the Modernization of Turkey – Westview Press, 1984.
- 2.28. John P. Kinross. Atatürk: a biography of Mustafa Kemal, father of modern Turkey. New York, 1965
- 2.29. Mango, Andrew. Ataturk: The Biography of the Founder of Modern Turkey, (Overlook TP, 2002), стр. 279.
- 2.30. Shevket Süzeyga Añdemir. Tek adam. Mustafa Kemal. C.1-2. Istanbul, 1963-1966.
- 2.31. Wolf-Gazo. John Dewey. The Middle Works of John Dewey, 1899-1924: Journal Articles, Essays, and Miscellany.— SIU Press, 2008.— P.564.
- 2.32. Şahin Atacan. Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları.- Eskişehir: Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2011,- S.218.

III. Internet saytlari:

- 3.1. <https://mfa.uz/uz/cooperation/countries/201/>
- 3.2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/MustafáKemálAtatíork>
- 3.3. https://en.wikipedia.org/wiki/%C5%9Eevket_S%C3%BCreyya_Aydemir#cite_ref-3
- 3.4. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

- 3.5. Prof. Dr. Hamza Eroğlu. «Peace at home and peace in the world» (<http://www.atam.gov.tr/index.php?Page=DergiIcerik&IcerikNo=72>)
- 3.6. <http://islomkarimov.uz/uz/page/memory/orzu-rahmatov-samarqand-shahridagi-dahbedi-mahalla-fuqarolar-jigini-raisi>
- 3.7. <http://islomkarimov.uz/uz/page/tarjimai-hol>
- 3.8. <http://www.anayasa.gov.tr/index.php?l=template&id=20&lang=0>
- 3.9. <https://themag.uz/uz/post/islom-karimov-birinchi-prezident-qanday-edixalq-xotiralari>
- 3.10. <https://lex.uz/docs>

دارالمطبعة	۲۰	مطبعة	۲۰
چاپخانه	۲۶	تصحیح	۲۶
تصحیح	۲۶	تصحیح	۲۶
تصحیح	۲۶	تصحیح	۲۶

تصویر افکار

مستقل افکار غزوة

مؤسس: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

تصحیح	۲۰	مطبعة	۲۰
تصحیح	۲۶	تصحیح	۲۶
تصحیح	۲۶	تصحیح	۲۶
تصحیح	۲۶	تصحیح	۲۶

اشدراك نراھل
اشدراك نراھل
اشدراك نراھل



مؤسس: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

سیاسیات

حیرت افراقی

کين سه برون توره کرده شای ملیه
عزیز ایچیک بدهد موری حیرت افراقی
غزوة اولان مسولوف دولتی...
سیاسیات
حیرت افراقی
کين سه برون توره کرده شای ملیه
عزیز ایچیک بدهد موری حیرت افراقی
غزوة اولان مسولوف دولتی...
سیاسیات
حیرت افراقی

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

چاپخانه: امیر تحریر و خضوعات داوود غزوة (شیر افکار) - داوود غزوة

Jevat posho va Mustafa Kamol "Tasvir-i Efkar" gazetasing 1915 yil 29 oktabr sonida



Oʻzbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdugʻaniyevich
Karimov





Mustafo Kamol Harbiy akademiyaning tugatgan kuni olgan surat.

M. Kamol

Mustafo Kamolning shaxsiy imzosi